TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI

# MAXSUS PEDAGOGIKA

## Maxsus pedagogikaning dolzarb muammolari va zamonaviy yutuqlari

## MODULI BO'YICHA
# O'QUV-USLUBIY MAJMUA




TOSHKENT

**Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy ta`lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 25-avgustdagi 391-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlandi.**

**Tuzuvchi:** **L.R.Mo‘minova** - Nizomiy nomidagi TDPU «Logopediya» kafedrasi professori, pedagogika fanlari doktori

*O‘quv-uslubiy majmua TDPU Kengashining 2023 yil 27-iyundagi*

*11-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.*

## MUNDARIJA

**I.IShChI DASTUR** ........................................................................................ 4

**II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI** ........................................................................ 15

**III. NAZARIY MATERIALLAR** ........................................................ 33

**IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI** ........................................ 88

**V. KEYSLAR BANKI** ........................................................................ 105

**VI.GLOSSARIY** ........................................................................................ 115

**VII.FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI** ............................... 119

# I. IShChI DASTUR

## KIRISh

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi”da milliy kadrlarning raqobatbardoshligi va umumjahon amaliyotiga asoslangan oliy ta’lim milliy tizimining sifati oshishiga, Bolonya jarayoni ishtirokchi mamlakatlari diplomlarini o‘zaro tan olishga, o‘qituvchi va talabalar bilan almashuv dasturlarini amalga oshirishga ko‘maklashuvchi 1999 yil 19-iyundagi Bolonya deklaratsiyasiga qo‘shilish masalasini ko‘rib chiqish belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da oliy ta’lim jarayonlariga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o‘qitish usullarni joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, korrupsiyaga qarshi kurashish, muhandislik-texnik ta’lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ulushini oshirish, kredit-modul tizimini joriy etish, o‘quv rejalarida amaliy ko‘nikmalarni oshirishga qaratilgan mutaxassislik fanlari bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019 yil 8 oktyabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"ga ko‘ra mamlakatdagi oliy ta’lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish belgilangan. Shuningdek, mamlakatimizning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish, odamlarning dunyoqarashini o‘zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o‘zi taqozo etmoqda. Respublikada ta’lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg‘unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta’lim va tarbiya berish tizimi islohatlar talablari bilan chambarchas bog‘langan bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Davlat talablari asosida ta’lim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir.

Ushbu dasturda pedagog-defektologlarni maxsus pedagogikaning dolzarb muammolari va zamonaviy yutuqlarining  nazariy asoslari, tuzilishi va mazmuni,

jaxon, MDX va milliy  maxsus va inklyuziv ta’lim  yo‘nalishlaring  yutuqlari bilan tanishish, innovatsion texnologiyalar yutuklarini o‘zlashtirish va maxsus pedagogikaga kiritsh masalalari hamda pedagog-defektologning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy va amaliy asolari troektoriyalari bayon etilgan.

### *Modulning maqsadi va vazifalari*

**Modulning maqsadi:** qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi tinglovchilarini innovatsion ta’lim muhiti sharoitida pedagog-defektologlarni maxsus pedagogikaning dolzarb muammolari va zamonaviy yutuqlariga oid yangi bilimlar, ko‘nikmalar hamda malakalarini tarkib toptirishdan iborat.

**Modulning vazifalari:**

maxsus pedagogikaning nazariy asoslari, tuzilishi va mazmuni, dolzarb muammolari aniklash va  tahlil qilish;

maxsus pedagogikaning zamonaviy yutuqlariga oid yangi bilimlar, ko‘nikmalar hamda malakalarini tarkib toptirishdan iborat.

Maxsus va inklyuziv ta’limni yo‘nalishlarini muammolarini aniklash va tahlil qilish;

Maxsus va inklyuziv ta’limni yo‘nalishlarini rivojlantirish omillarini tahlil qilish;

innovatsion ta’lim muhiti sharoitida maxsus va inklyuziv ta’limni yo‘nalishlarini rivojlantirish yo‘llarini aniqlash;

- tinglovchilarda pedagog-defektologning maxsus va inklyuziv ta’limni yo‘nalishlarini jaxon, MDX va milliy  maxsus va inklyuziv ta’lim  yo‘nalishlaring yutuqlari bilan tanishish, innovatsion texnologiyalar yutuklarini o‘zlashtirish va maxsus pedagogikani rivojlantirishning texnologiyalarini  ishlab chiqish va amalda qo‘llash  ko‘nikmasi va malakalarini shakllantirish.

### Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

“Maxsus pedagogikaning dolzarb muammolari va zamonaviy yutuqlari ” modulini o‘zlashtirish jarayonida:

**Tinglovchi:**

- Maxsus pedagogikaning tuzilishi va mazmuni;
- Maxsus pedagogikaning muammolari
- Maxsus pedagogikaning rivojlantirish omillari;
- innovatsion ta’lim muhiti sharoitida maxsus pedagogikaning yutuqlari;

- maxsus va inklyuziv ta’lim yo‘nalishlaring yutuqlari, innovatsion texnologiyalar, maxsus pedagogikaga kiritish masalalari hamda pedagog-defektologning kasbiy bilimlarining nazariy va amaliy yo‘llari haqidagi **bilimlarga ega bo‘lishi**;

- shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalar;
- fanlarni o‘qitishda didaktik o‘yin texnologiyalaridan foydalanish;
- amaliy va rolli o‘yinlar;
- pedagogik nizolarni samarali hal etish yo‘llari;
- zamonaviy pedagog imidji va modelini ishlab chiqish;
- o‘qituvchining o‘z-o‘zini kasbiy va shaxsiy takomillashtirib borish yo‘llari;
- Maxsus pedagogikaning fanining yo‘nalishlari bo‘yicha **ko‘nikma va malakalarini egallashi;**

pedagogdefektologning maxsus pedagogika fanining yo‘nalishlarini ;

- shaxsga yo‘naltirilgan maxsus va inklyuziv ta’lim texnologiyalaridan foydalanish;
- Talabalarning maxsus pedagogikani yo‘nalishlarishda muammo va yutuklarini bilish faoliyati faolligini oshirish va mustaqil ta’limini tashkil etish;
- Pedagog-defektologning maxsus pedagogika fanining yo‘nalishlaridagi muammolarni bartaraf etish troektoriyalarini ishlab chiqish **kompetensiyalarni egallashi lozim.**

## Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Maxsus pedagogikaning dolzarb muammolari va zamonaviy yutuqlari” moduli ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi, shuningdek, ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimot va elektron-didaktik texnologiyalarni;

- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, blis-so‘rovlar, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, va boshqa interfaol ta’lim metodlarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

““Maxsus pedagogikaning dolzarb muammolari va zamonaviy yutuqlari ” moduli bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘quv rejasidagi “Ta’lim jarayoniga raqamli

texnologiyalarni joriy etish", "Talabalar bilimini baholash" hamda "Yo'nalishning dolzarb muammolari va zamonaviy yutuqlari" kabi modullar bilan uzviy aloqadorlikda olib boriladi.

Modulning oliy ta'limdagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar ta'lim va tarbiya jarayonlarini normativ-huquqiy asoslarini o'rganish, ularni tahlil etish, amalda qo'llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

## MODUL BO'YIChA SOATLAR TAQSIMOTI

| № | Modul mavzulari | Auditoriya o'quv yuklamasi | | |
|---|---|---|---|---|
| | | Jami | Nazariy | Amaliy mashg'ulot |
| 1. | **Tug'ilgandan to 3 yoshgacha davrda bolalar rivojlanishidagi nnuqsonlarni tashxis qilish va korreksiyalash muammosi** | 2 | 2 | 4 |
| 2. | **Inklyuziv ta'lim muammosi: muammolar va yutuqlar** | 2 | 2 | 2 |
| 3. | **Ayrim toifadagi bolalarning psixik rivojlanish xususiyatlari haqida ma'lumotlarning yetarli darajada emasligi** | 2 | 2 | 2 |
| 4. | **Rivojlanishda nuqsonlari bo'lgan o'smirlar va yoshlarning ijtimoiy moslashuvi va kasbiy tayyorgarligi muammosi bugungi kunda ham dolzarbdir** | 2 | 4 | 2 |
| 5. | **Rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni maxsus maktabgacha ta'lim muammosi** | | | 2 |
| | **Jami:** | **22** | **10** | **12** |

## NAZARIY MAShG'ULOTLAR MAZMUNI

### 1-MAVZU: Tug'ilgandan to 3 yoshgacha davrda bolalar rivojlanishidagi nnuqsonlarni tashxis qilish va korreksiyalash muammosi. (2 soat)

Bolaning rivojlanishidagi nuqsonlarni erta korreksiyalash butun dunyoda, jumladan O'zbekistonda ham maxsus pedagogika va psixologiyaning dolzarb muammosi bo'lib qolmoqda.Ilk yoshdagi bolalarning rivojlanish xususiyatlari, nerv tizimining egiluvchanligi,buzilgan funksiyalarning kompensatsiyalanishi

imkoniyatlari erta kompleks yordamning muhimligini ko‘rsatadi, maqsadga yo‘naltirilgan ta’sirlar orqali psixik va motor funksiyalardagi nuqsonlarni bartaraf etish va ular natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ikkilamchi nuqsonlarni oldini olish imkonini yaratadi. Hozirgi vaqtda go‘daklar, passiv, yordamga muhtoj, faoliyat ob’ekti sifatida emas, balki hamkorlikdagi faoliyatning faol sub’ektlari, atrofdagi ijtimoiy muhit bilan, eng avvalo ota-onalari bilan o‘zaro aloqadorlik jarayonida rivojlanayotgan, bu ijtimoiy o‘zaro aloqadorlikni izlovchi va o‘zining rivojlanish jarayonida jadal ishtirok etuvchi su’ekt sifatida qarala boshladi.

## 2-MAVZU: INKLYuZIV TA’LIM MUAMMOSI: MUAMMOLAR VA YuTUQLAR (2 SOAT)

rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolalar va ularning me’yorida rivojlanayotgan tengdoshlarini birgalikda o‘qitish imkoniyati va maqsadga muvofiqligi masalasi muhokama qilinadi. Eng keskin, munozarali muammolardan biri bu psixik rivojlanishining sur’ati me’yorida bo‘lgan bolalar va rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni birgalikda o‘qitish muammosi. Muhim xususiyatlardan biri keng jamoatchilikning ta’limda alohida ehtiyojlari bo‘lgan bolaning me’yorida rivojlanayotgan tengdoshlari orasida ta’lim olish huquqini tan olishni istamaslikidir.

## 3-MAVZU: AYRIM TOIFADAGI BOLALARNING PSIXIK RIVOJLANISh XUSUSIYaTLARI HAQIDA MA’LUMOTLARNING YeTARLI DARAJADA EMASLIGI . (2 soat)

Shu munosabat bilan ularni o‘qitish va tarbiyalash masalalari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Bu toifalar: aqli zaif bolalar, erta bolalik autizmi bo‘lgan bolalar, rivojlanishida murakkab nuqsonlarga ega bo‘lgan bolalar, xulq-atvori buzilgan bolalar va koxlear implantatsiyadan keyingi bolalar.

## 4-MAVZU: RIVOJLANIShDA NUQSONLARI BO‘LGAN O‘SMIRLAR VA YoShLARNING IJTIMOIY MOSLAShUVI VA KASBIY TAYYoRGARLIGI MUAMMOSI BUGUNGI KUNDA HAM DOLZARBDIR (4 SOAT)

To‘liq huquqli ta’lim olishga qaratilgan bola uchun individual reabilitatsiya dasturining mavjud emasligi yoki formalligi.

Shunday qilib, ilgari surilayotgan muammolar bugungi kunda ham dolzarb ekanligini ko‘ramiz. Amaliy maxsus pedagogika doirasida bolalarga korreksion psixologik-pedagogik yordam tizimini yaratish katta ahamiyatga ega. Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarni aniqlash va go‘daklar va yosh bolalarga erta korreksion-pedagogik yordam berish, oilalarga maslahat berish.

## AMALIY MAShG‘ULOTLAR MAZMUNI

### 1-amaliy mashg`ulot: TUG‘ILGANDAN TO 3 YoShGAChA DAVRDA BOLALAR RIVOJLANIShIDAGI NNUQSONLARNI TAShXIS QILISh VA KORREKSIYaLASh MUAMMOSI (4 SOAT)

O‘zbekistonda ham maxsus pedagogika va psixologiyaning dolzarb muammosi bo‘lib qolmoqda.Ilk yoshdagi bolalarning rivojlanish xususiyatlari, nerv tizimining egiluvchanligi,buzilgan funksiyalarning kompensatsiyalanishi imkoniyatlari erta kompleks yordamning muhimligini ko‘rsatadi, maqsadga yo‘naltirilgan ta’sirlar orqali psixik va motor funksiyalardagi nuqsonlarni bartaraf etish va ular natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ikkilamchi nuqsonlarni oldini olish imkonini yaratadi. Hozirgi vaqtda go‘daklar, passiv, yordamga muhtoj, faoliyat ob’ekti sifatida emas, balki hamkorlikdagi faoliyatning faol sub’ektlari, atrofdagi ijtimoiy muhit bilan, eng avvalo ota-onalari bilan o‘zaro aloqadorlik jarayonida rivojlanayotgan, bu ijtimoiy o‘zaro aloqadorlikni izlovchi va o‘zining rivojlanish jarayonida jadal ishtirok etuvchi su’ekt sifatida qarala boshladi.

### 2-amaliy mashg`ulot: INKLYuZIV TA’LIM MUAMMOSI: MUAMMOLAR VA YuTUQLAR (2 SOAT)

Rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolalar va ularning me’yorida rivojlanayotgan tengdoshlarini birgalikda o‘qitish imkoniyati va maqsadga muvofiqligi masalasi muhokama qilinadi. Eng keskin, munozarali muammolardan biri bu psixik rivojlanishining sur’ati me’yorida bo‘lgan bolalar va rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni birgalikda o‘qitish muammosi. Muhim xususiyatlardan biri keng jamoatchilikning ta’limda alohida ehtiyojlari bo‘lgan bolaning me’yorida rivojlanayotgan tengdoshlari orasida ta’lim olish huquqini tan olishni istamaslikidir.

### 3-amaliy mashg`ulot:AYRIM TOIFADAGI BOLALARNING PSIXIK RIVOJLANISh XUSUSIYaTLARI HAQIDA MA’LUMOTLARNING YeTARLI DARAJADA EMASLIGI (2 SOAT)

Shu munosabat bilan ularni o‘qitish va tarbiyalash masalalari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Bu toifalar: aqli zaif bolalar, erta bolalik autizmi bo‘lgan bolalar, rivojlanishida murakkab nuqsonlarga ega bo‘lgan bolalar, xulq-atvori buzilgan bolalar va koxlear implantatsiyadan keyingi bolalar.

**4-amaliy mashg`ulot: RIVOJLANIShDA NUQSONLARI BO‘LGAN O‘SMIRLAR VA YoShLARNING IJTIMOIY MOSLAShUVI VA KASBIY TAYYoRGARLIGI MUAMMOSI BUGUNGI KUNDA HAM DOLZARBDIR (2 SOAT).**

To‘liq huquqli ta’lim olishga qaratilgan bola uchun individual reabilitatsiya dasturining mavjud emasligi yoki formalligi.

Shunday qilib, ilgari surilayotgan muammolar bugungi kunda ham dolzarb ekanligini ko‘ramiz. Amaliy maxsus pedagogika doirasida bolalarga korreksion psixologik-pedagogik yordam tizimini yaratish katta ahamiyatga ega. Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarni aniqlash va go‘daklar va yosh bolalarga erta korreksion-pedagogik yordam berish, oilalarga maslahat berish.

**5-amaliy mashg`ulot: RIVOJLANIShDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALARNI MAXSUS MAKTABGAChA TA’LIM MUAMMOSI (2 SOAT).**

Maxsus maktabgacha ta’lim muassasalari tizimi faqat 1970-yillarning boshlarida shakllandi. Rivojlanishda nuqsonlari bo‘lgan maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlari yetarlicha o‘rganilmagan va ularga tuzatish yordami tizimi nomukammaldir. Tarixan maktab yoshidagi bolalar birinchi bo‘lib maxsus ta’limga jalb qilingan. Maxsus maktabgacha ta’lim muassasalari tizimi faqat 1970-yillarning boshlarida shakllandi. Rivojlanishda nuqsonlari bo‘lgan maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlari yetarlicha o‘rganilmagan va ularga tuzatish yordami tizimi nomukammaldir

## *O‘QITISh ShAKLLARI*

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, motivatsiyani rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini rivojlantirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

## *FOYDALANILGAN ADABIYoTLAR RO‘YXATI*

### I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. –T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

### II. Normativ-huquqiy hujjatlar:

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.–T.:O‘zbekiston, 2023.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi “Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 343-sonli Qarori.

15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 10 yanvardagi “Oliy ta’limning Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2001 yil 16 avgustdagi “343-sonli qororiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 3-sonli qarori.

16. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risidagi Qonuni”. – 07.01.2008 yildagi O‘RQ-139-sonQonunchilik palatasi tomonidan 2007-yil 23-noyabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2007-yil 1-dekabrda ma’qullangan [Elektronnыyresurs] Rejimdostupa http:// www.lex.uz

17. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim vatarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni, 2019 yildagi O‘RQ-595-son Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 22-oktabrda qabul qilingan. Senat tomonidan 2019-yil 14-dekabrda ma’qullangan. [Elektronnыyresurs] Rejimdostupa http:// www.lex.uz

18. O‘zbekiston Respublikasining” Nogironligi bo ‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g’risida”gi Qonuni,15.10.2020 yildagi O‘RQ-641-son Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 22-iyulda qabul qilingan.Senat tomonidan 2020-yil 11-sentabrda ma’qullangan [Elektronnыyresurs] Rejimdostupa http:// www.lex.uz.

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 13.10.2020 yildagi pq-4860-son Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida [Elektronnыy resurs] Rejimdostupa http:// www.lex.uz

20. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 12.10.2021 yildagi 638-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” [Elektronnыy resurs] Rejimdostupa http:// www.lex.uz

**III. Maxsus adabiyotlar:**

21. Ayupova, M.Y. Logopediya: darslik – T. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2007– 560 b.

22. Inklyuzivnoe obrazovanie lis s narusheniyami v razvitii: Yevropeyskiy opыt-Rossiyskie tendensii. Sbornik materialov itogovoy konferensii / Nauch. red.d-r ped.nauk, prof V.Z.Kantor. – Spb.: RGPU im.Gersena, 2010. –192 s.

23.Kalbaeva, X.D Realizatsiya prava na obrazovanie dlya detey s

ogranichennыmi vozmojnostyami zdorovya v Uzbekistane. // materialы Respublikanskoy konferensii, Tashkent 2010. S.106–108

24. Kantor, 3. V. Inklyuzivnoe obrazovanie detey s ogranichennыmi vozmojnostyami zdorovya: problemы podgotovki kadrov / 3. V. Kantor,

I. P. Volkova, A. A. Bogdanova // Zdorovesberegayuщee obrazovanie. – 2014.

– № 4. – S. 20-23.

25. Muminova, L.R., Nurkeldieva, D.A. Texnologiya rannego vmeshatelstva kak zalog zdorovogo obraza jizni. Materialы mejdunarodnoy konferensii: Zdorovыy obraz jizni – osnova garmonicho razvitogo pokoleniya 29-30 noyabrya – 2010.Tashkent: S. 159–162.

26. Koroleva, I.V. Koxlearnaya implantatsiya gluxix detey i vzroslых. – SPb.: KARO, 2011. –751s.

27. Livenseva, N.A. Problemы prakticheskoy realizatsii inklyuzivnogo obrazovaniya v SShA i stranax Yevropы / N.A Livenseva // Sovremennaya zarubejnaya psixologiya. – 2012. – № 1. – S. 20–29. [Elektronnыy resurs]https://www.psychlib.ru (data dostupa: 26.04.2022).

28. Malofeev, N.N. Spesialnoe obrazovanie v menyayuщemsya mire. Yevropa: ucheb. posobie dlya ped. vuzov / N.N. Malofeev. – M.: Prosv., 2009.-319 c.

29. Nazarova, N.M. Sravnitelnaya spesialnaya pedagogika / N.M. Nazarova. – M.: ACADEMIA, 2012. – 336 s.

30. Po‘latova,P.,Mamarajabova, Z.N., Amirsaidova, SH.,Nurmuxamedova, L.Sh.Maxsus pedagogika: Darslik. –T.: Fanvatexnologiyalar. 2014. –368 b.

31. Brendon T., Charlton D. Opit Anglii v sozdanii i razvitii sentra podgotovki pedagogov k inklyuzivnomu obrazovaniyu. // Mejdunarodniy jurnal inklyuzivnogo obrazovaniya. – 2011. – Vip. 15, № 1. - S. 165 – 178. – [Elektronniy resurs]
Rejim dostupa: http://www.informaworld.com/smpp/sectioncontent (Data dostupa 18.12.2021)

## IV. Internet saytlar:

1. http://edu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.

2. http://lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

3. http://bimm.uz – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish Bosh ilmiy-metodik markazi.

4. http://ziyonet.uz – Ta’lim portali ZiyoNET.

5. http://natlib.uz – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.

## II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

Bugungi kunda o‘qitishning zamonaviy metodlari ta’lim jarayonida keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta’lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasining ko‘tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirilib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar kabi metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Bu metodlar interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham ataladi. **Interfaol metodlar** deganda ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo‘llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta’lim oluvchi markazda bo‘lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- ta’lim samarasi yuqoriroq bo‘lgan o‘qish-o‘rganish;
- ta’lim oluvchining yuqori darajada rag‘batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e’tiborga olinishi;
- o‘qish shiddatini ta’lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta’lim oluvchining tashabbuskorligi va mas’uliyatining qo‘llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o‘rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.



## “Kichik guruhlarda ishlash” metodi

**“KICHIK GURUHLARDA ISHLASH” METODI** - ta’lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda o‘quv materialini o‘rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo‘llanilganda ta’lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo‘lishga, bir-biridan o‘rganishga va turli nuqtai- nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo‘ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo‘llanilganda ta’lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Chunki ta’lim beruvchi bir vaqtning o‘zida barcha ta’lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi

va baholay oladi. Quyida “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi keltirilgan.




**“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi. Mavzu bo‘yicha bir-biriga bog‘liq bo‘lgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta’lim oluvchilar guruhlarga 3-6 kishidan bo‘linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. Ta’lim beruvchi tomonidan aniq ko‘rsatmalar beriladi va yo‘naltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi.

**«Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi:**

- o‘qitish mazmunining yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi;
- muloqotga kirishish ko‘nikmasining takomillashishiga olib keladi;
- vaqtni tejash imkoniyati mavjud;
- barcha ta’lim oluvchilar jalb etiladi;
- o‘z-o‘zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

**«Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:**

- ba’zi kichik guruhlarda kuchsiz ta’lim oluvchilar bo‘lganligi sababli kuchli ta’lim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;
- barcha ta’lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo‘ladi;
- guruhlararo o‘zaro salbiy raqobatlar paydo bo‘lib qolishi mumkin;
- guruh ichida o‘zaro nizo paydo bo‘lishi mumkin.

**“DAVRA SUHBATI” METODI** – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta’lim oluvchilar tomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir.

“Davra suhbati” metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta’lim oluvchining bir-biri bilan “ko‘z aloqasi”ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatida ta’lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta’lim oluvchilardan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir ta’lim oluvchi o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar. So‘zlayotgan ta’lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi. Quyida “Davra suhbati” metodining tuzilmasi keltirilgan.

**Davra stoli tuzilmasi**

Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta’lim oluvchiga konvert qog‘ozi beriladi. Har bir ta’lim oluvchi konvert ustiga ma’lum bir mavzu bo‘yicha o‘z savolini beradi va “Javob varaqasi”ning biriga o‘z javobini yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi. Shundan so‘ng konvertni soat yo‘nalishi bo‘yicha yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta’lim oluvchi o‘z javobini “Javoblar varaqasi”ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi va yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo‘ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig‘ib olinib, tahlil qilinadi.

**“Davra suhbati” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Mashg‘ulot mavzusi e’lon qilinadi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi bilan tanishtiradi.
3. Har bir ta’lim oluvchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha ta’lim oluvchi bo‘lsa, shunchadan “Javoblar varaqalari”ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo‘yiladi. Ta’lim oluvchi konvertga va “Javoblar varaqalari”ga o‘z ismi-sharifini yozadi.
4. Ta’lim oluvchi konvert ustiga mavzu bo‘yicha o‘z savolini yozadi va “Javoblar varaqasi”ga o‘z javobini yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi.
5. Konvertga savol yozgan ta’lim oluvchi konvertni soat yo‘nalishi bo‘yicha yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi.
6. Konvertni olgan ta’lim oluvchi konvert ustidagi savolga “Javoblar varaqalari”dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qo‘yadi hamda yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi.

7. Konvert davra stoli bo‘ylab aylanib, yana savol yozgan ta’lim oluvchining o‘ziga qaytib keladi. Savol yozgan ta’lim oluvchi konvertdagi “Javoblar varaqalari”ni baholaydi.

8. Barcha konvertlar yig‘ib olinadi va tahlil qilinadi.




Ushbu metod orqali ta’lim oluvchilar berilgan mavzu bo‘yicha o‘zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta’lim oluvchilarni muayyan mavzu bo‘yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta’lim oluvchilar o‘zlari bergan savollariga guruhdagi boshqa ta’lim oluvchilar bergan javoblarini baholashlari va ta’lim beruvchi ham ta’lim oluvchilarni ob’ektiv baholashi mumkin.

**“BAHS-MUNOZARA” METODI**- biror mavzu bo‘yicha ta’lim oluvchilar bilan o‘zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o‘tkaziladigan o‘qitish metodidir.

Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo‘llaniladi. Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini ta’lim oluvchilarning biriga topshirishi yoki ta’lim beruvchining o‘zi olib borishi mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har bir ta’lim oluvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayotganda ta’lim oluvchilar orasida paydo bo‘ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

“Bahs-munozara” metodini o‘tkazishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

- ✓ barcha ta’lim oluvchilar ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish;
- ✓ “o‘ng qo‘l” qoidasi (qo‘lini ko‘tarib, ruhsat olgandan so‘ng so‘zlash)ga rioya qilish;
- ✓ fikr-g‘oyalarni tinglash madaniyati;
- ✓ bildirilgan fikr-g‘oyalarning takrorlanmasligi;
- ✓ bir-birlariga o‘zaro hurmat.

Quyida “Bahs-munozara” metodini o‘tkazish tuzilmasi berilgan.

**Muammoli savol tashlanadi**

↓

**Turli fikrlar tinglanadi**

↓

**Fikr-g‘oyalar to‘planadi**

↓

**Tahlil qilinadi**

↓

**Aniq va maqbul yechimni topish**

**Metodning bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Ta’lim beruvchi munozara mavzusini tanlaydi va shunga doir savollar ishlab chiqadi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammo bo‘yicha savol beradi va ularni munozaraga taklif etadi.
3. Ta’lim beruvchi berilgan savolga bildirilgan javoblarni, ya’ni turli g‘oya va fikrlarni yozib boradi yoki bu vazifani bajarish uchun ta’lim oluvchilardan birini kotib etib tayinlaydi. Bu bosqichda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga o‘z fikrlarini erkin bildirishlariga sharoit yaratib beradi.
4. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilar bilan birgalikda bildirilgan fikr va g‘oyalarni guruhlarga ajratadi, umumlashtiradi va tahlil qiladi.
5. Tahlil natijasida qo‘yilgan muammoning eng maqbul yechimi tanlanadi.



## "FSMU" metodi

**“FSMU”**–(fikr, sabab, misol, umumlashtirish) metodi munozarali masalalarni hal etish hamda o‘quv jarayonining bahs-munozarali o‘tkazishda qo‘llaniladi, chunki bu metod tinglovchilarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash, o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq holda bahslashishga hamda shu bilan birga bahslashish madaniyatiga o‘rgatadi. Bu metod yangi mavzuni chuqur o‘rganishdan avval tinglovchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o‘tilgan mavzuni mustahkamlash, o‘zlashtirish, umumlashtirish, tinglovchilarni shu mavzu bo‘yicha tasavvurlarini yozma shaklda, dalil va isbotlar bilan ifodalashga undaydi.

**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida,

mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

**Texnologiyani amalga oshirish tartibi:**

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi:
- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.

| | |
|---|---|
| F | • **fikringizni bayon eting** |
| **S** | • **fikringizni bayoniga sabab ko‘rsating** |
| **M** | • **ko‘rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring** |
| **U** | • **fikringizni umumlashtiring** |

**FSMU** tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

**Namuna.**

**Fikr:** “Tarix fanidan davlat ta’lim standartlari talablarini xalqaro andozalar asosida takomillashtirish va sertifikatlashtirish ta’lim samaradorligining eng muhim omillaridan biridir”.

**1-Topshiriq:** Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU texnologiyasi orqali tahlil qiling.

**2-Topshiriq:**Buxoro amirligi, Xiva xonligi, Qo‘qon xonligi davlat boshqaruviningasosiy farqlari?



## "XULOSALASh" (Rezyume, Veer) metodi

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy

fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda tinglovchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

**Metodni amalga oshirish tartibi:**



Ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;



Mashg‘ulotning maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo‘lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;



Har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



Navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar. Shundan so‘ng, o‘qituvchi tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlr bilan to‘ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

**Namuna:**

| **Tarix fanidan Davlat ta’lim standarti** | | | |
|---|---|---|---|
| **Sobiq standart** | | **Yangi standart** | |
| afzalligi | kamchiligi | afzalligi | kamchiligi |
| | | | |
| **Xulosa:** | | | |



## “SWOT-таҳлил” методи

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

| | |
|---|---|
| **S – (strength)** | • **kuchli tomonlari** |
| **W – (weakness)** | • **zaif, kuchsiz tomonlari** |
| **O – (opportunity)** | • **imkoniyatlari** |
| **T – (threat)** | • **to‘siqlar** |

**Namuna:** Tarix o‘qitishda “Xulosalash” metodning SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

| | | |
|---|---|---|
| **S** | Tarix o‘qitishda “Xulosalash” metodidan foydalanishning kuchli tomonlari | |
| **W** | Tarix o‘qitishda “Xulosalash” metodidan foydalanishning kuchsiz tomonlari | |
| **O** | Tarix o‘qitishda “Xulosalash” metoddan foydalanishning imkoniyatlari (ichki) | |
| **T** | To‘siqlar (tashqi) | |

**Namuna:** An’anaviy va zamonaviy ta’lim shakllarini “SWOT-tahlil” metodida tahlil qiling.

| | | |
|---|---|---|
| **S** | Oddiy darsda o‘qituvchi, tinglovchilarga ko‘p ma’lumot bera olmaydi | Zamonaviy darsda kamroq ma’lumot beriladi, biroq ular tinglovchilar ongiga singdirib beriladi |
| **W** | O‘qituvchi asosan a’lochi, qiziquvchi tinglovchilar bilan gaplashadi, ya’ni darsda oz sonli tinglovchilar qamrab olinadi | Zamonaviy ta’limda darsda ko‘p sonli tinglovchilar qamrab olinadi |
| **O** | Oddiy darsda faqat o‘qituvchi reja asosida va tayyorlab kelgan ma’lumotlari atrofida gaplashiladi | Zamonaviy darsda muhokama jarayonida yangi-yangi masalalar, muammolar yuzaga chiqishi, g‘oyalar tug‘ilishi mumkin |
| **T** | O‘qituvchi uchun asosiy to‘siq – dasturdan chiqib keta olmaslik, tinglovchi uchun qiziqmasa ham o‘qituvchini eshitib o‘tirish majburiyati | Keng muhokama uchun vaqtning chegaralanganligi, tinglovchilarni mavzudan chetga burishga intilishlari |



# "Insert" metodi

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilmlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi.

**Metodni amalga oshirish tartibi:**

➢ o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;

➢ yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;

➢ ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda tinglovchilar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

| **Belgilar** | **1-matn** | **2-matn** | **3-matn** |
|---|---|---|---|
| “V” – tanish ma’lumot. | | | |
| “?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak. | | | |
| “+” bu ma’lumot men uchun yangilik. | | | |
| “–” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman? | | | |

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.



# “Pinbord” metodi

Pinbord (inglizchadan: pin – mahkamlash, board – yozuv taxtasi) munozara usullari yoki o‘quv suhbatini amaliy usul bilan moslashdan iborat. Muammoni hal qilishga oid fikrlarni tizimlashtirish va guruhlashtirish (klassifikasiya)ni amalga oshirishga, jamoa tarzda yagona yoki aksincha qarama-qarshi pozitsiyani shakllantirishga imkon beradi.

O‘qituvchi taklif etilgan muammo bo‘yicha o‘z nuqtai nazarini bayon qilishni so‘raydi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki ommaviy aqliy hujumning boshlanishini tashkil qiladi (rag‘batlantiradi). Fikrlarni taklif qiladilar, muhokama qiladilar, baholaydilar va eng optimal (samarali) fikrni tanlaydilar. Ularni tayanch xulosaviy fikr (2 ta so‘zdan ko‘p bo‘lmagan) sifatida alohida qog‘ozlarga yozadilar va doskaga mahkamlaydilar.

O‘qituvchi bilan birgalikda flipchart (maxsus doska va maxsus qog‘oz yopishtirish imkonini beradigan skotch) yordamida fikrlar jamlanadi, klassifikasiya qilinadi, muhokamada esa optimal yechimlar bo‘yicha aniqlanadi.

Guruh namoyondalari doskaga chiqadilar va maslahatlashgan holda:

1) yaqqol xato bo‘lgan yoki takrorlanayotgan fikrlarni olib tashlaydilar;

2) bahsli bo‘lgan fikrlarni oydinlashtiradilar;

3) fikrlarni tizimlashtirish mumkin bo‘lgan belgilarini aniqlaydilar;

4) shu belgilar asosida doskadagi barcha fikrlarni (qog‘oz va varaqlaridagi) guruhlarga ajratadilar;

5) ularning o‘zaro munosabatlarini chiziqlar yoki boshqa belgilar yordamida ko‘rsatadilar: jamoaning yagona yoki qarama-qarshi pozitsiyalari ishlab chiqiladi.

**Madaniyat**

| **moddiy madaniyat** | **ma’naviy madaniyat** |
|---|---|
| | |
| | |



# “Konseptual jadval” metodi

Konseptual jadval metodi - turli g‘oyalarni, qarashlarni o‘zaro taqqoslash va ularni turli toifalar bo‘yicha taqqoslagan holda baho berishga qaratilgan organayzer hisoblanadi. Metod tinglovchilarni o‘rganilayotgan mavzu (masala yoki muammo)ni ikki yoki undan ortiq jihatlari bo‘yicha taqqoslashga o‘rgatadi. Undan foydalanishda tinglovchilarning mavzu yuzasidan mantiqiy fikrlash, ma’lumotlarni tizimli bayon qilish qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Mashg‘ulotlar chog‘ida metoddan foydalanish quyidagi tartibda kechadi:

O‘qituvchi yechimi topilishi lozim bo‘lgan mavzu

↓

Tinglovchilar mavzu va metoddan foydalanish

↓

Tinglovchilar kichik guruhlarga biriktiriladi

↓

Guruhlar o‘zlariga berilgan topshiriqni bajaradi

↓

Guruhlar yechimni guruh jamoasi hukmiga havola

↓

Guruhlarning yechimlari guruh jamoasida muhokama qilinadi

| **O‘rganilayotgan mavzu mohiyatini yorituvchi jihatlar** | **Muhim belgilar, tavsiflar** | | |
|---|---|---|---|
| | **1-belgi (tavsif)** | **2-belgi (tavsif)** | **3-belgi (tavsif)** |
| 1-jihat | | | |
| 2-jihat | | | |
| ... | | | |

**Namuna:**

| **Tarix darslarida interfaol ta’lim usullaridan foydalanishning jihatlari** | **Muhim belgilar, tavsiflar** | | |
|---|---|---|---|
| | **1-belgi (tavsif)** | **2-belgi (tavsif)** | **3-belgi (tavsif)** |
| “Assesment” | | | |
| “Insert” | | | |
| “Tushunchalar” | | | |
| “Brifing” | | | |
| “Bahs-munozara” | | | |
| “Muammoli vaziyat” | | | |
| | | | |
| | | | |



# "Tushunchalar" metodi

**Metodning maqsadi:** mazkur metod Tinglovchilar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo‘llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi ( individual yoki guruhli tartibda);
- tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va tuliq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan tugri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

**Namuna:** “Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili”

| **Tushunchalar** | **Sizningcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi?** | **Qo‘shimcha ma’lumot** |
|---|---|---|
| Tarixiy manba | | |
| Tarixiy adabiyot | | |
| Tarixiy hujjat | | |
| Tarixiy xarita | | |
| Tarixiy surat | | |
| Tarixiy fonogramma | | |
| Tarixiy xat | | |
| Tarixiy makon | | |

**Izoh:** Ikkinchi ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo‘shimcha ma’lumot glossariyda keltirilgan.

**“Muammoli vaziyat” metodi**

**“Muammoli vaziyat” metodi** - ta’lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta’lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo‘yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo‘lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmagach, ta’lim oluvchilarning qiziqishlari so‘nishiga, o‘zlariga bo‘lgan ishonchlarining yo‘qolishiga olib keladi. “Muammoli vaziyat” metodi qo‘llanilganda ta’lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o‘rganadilar. Quyida “Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi keltirilgan.



**“Muammoli vaziyat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Ta’lim beruvchi mavzu bo‘yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.
3. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni kichik guruhlarga ajratadi.
4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o‘rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.
5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to‘g‘risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.
6. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo‘llarini ishlab chiqadilar.
7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo‘yicha taqdimot qiladilar va o‘z variantlarini taklif etadilar.
8. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta’lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo‘llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.



# "T-jadval" texnologiya

Texnologiya tayanch tushunchalarni bir-biri bilan o‘zaro solishtirish, qiyoslash asosida o‘rganilayotgan mavzu yoki masalaning muayyan jihatini bir necha asosiy belgilarga ko‘ra batafsil yoritish maqsadida qo‘llaniladi. Ko‘p hollarda texnologiya mavzu mazmunida yoritiladigan bir necha holatlarning afzallik yoki kamchiliklarini, samaradorli yoki samarasizligini, bugungi kun va istiqbol uchun ahamiyatini taqqoslash maqsadida qo‘llaniladi.

Agar ular yozilgan fikrga qo‘shilsalar, birinchi ustunda “+“ aks holda uchinchi ustunda “-“ belgisini qo‘yadilar.

**Izoh: O‘qituvchi:** Yangi mavzuni bayon qiladi va tinglovchilarga ikki qarama-qarshi jihat haqida boshlang‘ich ma’lumotlarni beradi;

- topshiriqni yakka tartibda bajarishlarini so‘raydi va 10 daqiqa vaqt ajratadi;
- vaqt tugagach tinglovchilardan izohlarsiz o‘z fikr – mulohazalarini o‘qib eshittirishlarini aytadi;
- barcha xulosalar tinglangach, umumlashtiriladi va yakuniy xulosa shakllantiriladi.

**Tinglovchi:** - mavzuni diqqat bilan tinglaydi;

- o‘zi uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni daftariga qayd qilib boradi;
- berilgan sxema asosida tushunchaga nisbatan o‘zining mustaqil fikrini bildiradi;
- yakuniy xulosasi bilan o‘tirganlarni tanishtiradi;

- reglamentga rioya qiladi.

**Kutiladigan natija:** Tinglovchilar mavzu yuzasidan zaruriy bilimlarni oʻzlashtiradi, kursning mohiyati haqida tasavvurga ega boʻladi

**“T-jadval” texnologiyasi**

| **Oʻrganilayotgan masala (gʻoya, omil)** | |
|---|---|
| **+ (ha, ijobiy)** afzalligi (yutugʻi) | **- (yoʻq, salbiy)** kamchiligi |
| 1. | 1. |
| 2. | 2. |
| ... | ... |

**“Innovasion texnologiyalarni darsda foydalanish”**

| **Afzalliklari** | **Kamchiliklari** |
|---|---|
| “Qaytar aloqa”ning ta’minlanishi | koʻp vaqt talab etilishi |
| motivasiyaning yuqori darajada boʻlishi | tinglovchilarni nazorat qilish imkoniyatining pastligi |
| oʻtilgan materialning yaxshi esda saqlab qolinishi | ob’ektiv baholashning qiyinligi |
| muloqatga kirishish koʻnikmasining takomillashishi | oʻqituvchining oʻzidan ham rivojlangan fikrlash qobiliyatiga va muammolar yechish koʻnikmasiga ega boʻlishining talab etilishi |
| oʻz-oʻzini va boshqalarni baholash koʻnikmasining shakllanishi | ijodiy shovqin boʻlishi |
| mustaqil fikrlash qobiliyatiningoshishi | qaytar aloqaning ta’minlanmasligi |
| **XULOSA** | |

***T-sxema koʻrinishida vazifa***

| **Ha** | **Fikr-mulohazalar** | **Yoʻq** |
|---|---|---|
| | Oʻzbekistonda "Tashselmash", “Oʻzbekselmash”, “Krasniy dvigatel”, “Pod’emnik” va boshqa zavodlar paxtachilikni rivojlantirish maqsadlariga moslashtirildi. | |
| | 1950 yil Oʻzbekistonda 2.220 ming tonna paxta tayyorlandi. | |
| | Sugʻorish ishlarini yaxshilash uchun sun’iy suv omborlari qurildi. | |
| | XX asrining eng yirik ekologik - “Orol fojeasi” vujudga keldi. | |
| | Oʻzbekiston mamlakati paxta xom-ashyo bazasiga aylantirildi. | |
| | Oʻzbekiston “Oq-oltin”dan katta manfat koʻrardi. | |



## “Blis-oʻyin texnologiyasi”

**Sana va voqealarni toʻgʻri xronologik ketma-ketlikda joylashtiring.**

**Sanalar –** 395, VI asr, 527-565, 534, VI asrning oʻrtalari, VII asr, X-XI asr, IX-XI asrlar.

**Tarixiy voqealar** – Rim imperiyasi ikki mustaqil davlatga boʻlindi, Konstantinopol, YustinianI imperatorligi davri, Yustinian I Velisariyni shimoliy Afrikaga joʻnatdi, Vizantiyaning zaiflashuvi slavyan qabilalari istilolariga yoʻl ochdi, Arab halifaligi hujumlari natijasida Suriya va Misr qoʻldan ketdi, imperatorlar amaldorlar, ibodatxonalar va monastirlarga koʻplab yer-mulklar in’om etadilar, feodal munosabatlarning uzil-kesil oʻrnatilishiga olib keldi.

| Yil,sana | Sodir boʻlgan voqelik |
|---|---|
| | |

**“Venn diagrammasi” strategiyasi**

Strategiya tinglovchi (tinglovchi)larda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini oʻzlashtirish (sintezlash) koʻnikmalarini hosil qilishga yoʻnaltiriladi. U kichik guruhlarni shakllantirish asosida aniq sxema boʻyicha amalga oshiriladi.

Strategiya tinglovchi (tinglovchi)lar tomonidan oʻzlashtirilgan oʻzaro yaqin nazariy bilim, ma’lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan boʻlim yoki boblar boʻyicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.



## “Hamkorlikda oʻqitish” metodi

Hamkorlikda oʻqitishning asosiy gʻoyasi – biror narsani birga bajarish emas, balki hamkorlikda oʻqish, oʻrganishdir!

Hamkorlikda oʻqitishning samaradorligi:

1. Axborotga tanqidiy yondashuv va oʻz nuqtai nazarini dalillar bilan asoslashni shakllantiradi. Bu koʻnikmalar hamkorlikda oʻqiyotganlarda bir-biri bilan raqobat qilayotgan yoki individual oʻqiyotganlarga qaraganda yaxshiroq rivojlangan. Xattoki, hamkorlikda bajarilgan yozma ishlar chuqur mazmunga egaligi bilan farqlanadi.

2. Ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi. Hamkorlikda oʻqiyotgan guruh a’zolari betakror gʻoyalarni koʻproq ishlab chiqadi, turli maqsadlarga erishishda va dars jarayonida paydo boʻlgan har xil oʻquv masalalarining yangi yechimlarini topishda ijodiy qobiliyatlar rivojlanib boradi.

3. Bir vaziyatda olingan bilimlar boshqa vaziyatda qoʻllanishiga koʻmaklashadi. Bugun guruh bajargan topshiriqni ertaga har tinglovchi mustaqil bajara olishi mumkin.

4. Dars mazmuniga ijobiy yondashuv shakllantiriladi. Hamkorlik bilimlarga koʻproq qiziqish uchun ham sharoitlar yaratadi. Mashgʻulot oʻtkazish usuli qanchalik takomillashgan boʻlsa, tinglovchilarning oʻrganilayotgan masalaga qiziqishi va faolli ortib boradi.

5. Topshiriqlarni bajarish uchun ko‘proq vaqt sarflanadi. Hamkorlikda o‘qiyotganlar topshiriqlarni bajarish uchun raqobat qilayotgan yoki individual o‘qiyotganlarga nisbatan ko‘proq vaqt sarflaydilar.

Hamkorlikda o‘qitishning asosiy afzalliklari:

- hamkorlikda o‘qiyotgan tinglovchilar bir-birining muvaffaqiyatiga ko‘maklashadi;
- yordam va madad beradilar va yordamni qabul qiladilar, gap faqat o‘qish to‘g‘risida emas, balki insoniy, do‘stona munosabat to‘g‘risida ketayapti;
- axborot va “moddiy resurslar”, ya’ni topshiriqni bajarish uchun zarur bo‘lgan barcha narsalar bilan almashadi;
- o‘rtoqlari bergan ma’lumotlarni o‘zlashtiradi va qo‘llashga harakat qiladilar. Og‘zaki tushuntirishlar, axborotni o‘ylab ko‘rish va umumlashtirish, o‘z bilimlari va ko‘nikmalarini boshqalarga uzatish – bularning hammasi bilimlarni tartibga solish, ularni yaxshiroq anglab o‘zlashtirish va umumiy maqsadga erishishga shaxsiy ulushini qo‘shishga olib keladi;
- tinglovchilar bir-biri bilan muzokara olib borishga va dalillar keltirishga o‘rganadi. Intellektual maydondagi zidliklar qiziquvchanlikni rivojlantiradi, bilimlarni o‘zlashtirish va ularni qayta anglash, o‘rganilayotgan muammoga chuqurroq kirishishga undaydi hamda boshqa ko‘p foydali sifat va ko‘nikmalarni shakllantiradi;
- tinglovchilar yaxshiroq o‘qishga intilishda bir-biriga ko‘maklashadi. O‘qishda o‘rtoqlariga yordam berayotgan tinglovchi o‘zi ham sezilarli darajada yaxshiroq o‘qiydi;
- bir-biriga ta’sir etadi. Hamkorlikda o‘qiyotgan guruh a’zolari o‘rtoqlariga ta’sir etishning har qanday imkoniyatidan foydalanadilar va o‘z navbatida ta’sir uchun ochiqlar;
- aniq ifodolangan motivasiyaga ega. Bilimlarni o‘zlashtirishga intilish umumiy maqsadga erishishga qaratilgan hamkorlikdagi mehnat tufayli kuchayadi;
- o‘zaro ishonch sharoitini yaratadi va talablarni yuqori darajada ushlab turadi. Guruh a’zolari o‘z o‘rtoqlariga ishonadilar va o‘zlarini o‘rtoqlari ishonchini qozonadigan tarzda tutadilar, bu katta muvaffaqiyatlarga erishish uchun sharoitlar yaratadi. O‘zaro ishonch – har birining yuqori yutuqlari uchun yaxshi asos.

Hamkorlikdagi o‘qish tamoyillari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- guruhga bitta topshiriq;
- bitta rag‘bat: guruh barcha ishtirokchilari hamkorlikdagi ish bahosi (umumiy natijaga erishish uchun barcha guruh a’zolari sarflaydigan kuchi baholanadi) va akademik natijalari yig‘indisidan tashkil topgan bitta baho oladi, ya’ni guruh (komanda) muvaffaqiyati har bir ishtirokchining hissasiga bog‘liq;
- har birining o‘z muvaffaqiyati va guruhning boshqa a’zolari muvaffaqiyati uchun shaxsiy mas’uliyati;
- hamkorlikdagi faoliyat: guruhiy muzokara, hamkorlik, o‘zaro yordam berish kabi o‘zaro harakat usullari asosida tashkil topadi;

- muvaffaqiyatga erishishda teng imkoniyatlar: har bir o‘qiyotgan o‘z shaxsiy yutug‘ini takomillashtirish, shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda o‘qishga berilgan bo‘lishi zarur, chunki u boshqalar bilan teng baholanadi.

**Guruhda ishlash qoidalari:**
Har kim o‘z hamkasblari nutqini xushmuomalalik bilan tinglashi zarur;
Har kim faol, birgalikda ishlashi, berilgan topshiriqqa mas’uliyatli yondashishi zarur;
Har kim yordamga muhtoj bo‘lganda uni so‘rashi zarur;
Har kimdan yordam so‘ralsa, yordam qilishi zarur;
Har kim guruh ishini natijalarini baholashda ishtirok etishi zarur.
- Boshqalarga yordam berib, o‘zimiz tushunamiz!
- Biz bitta kemadamiz: yoki birga suzib chiqamiz, yoki birga cho‘kib ketamiz!

**Guruhda topshiriqni bajarish yo‘riqnomasi:**
1. Guruh liderini saylang.
2. Topshiriq bilan tanishing va uni qanday qilib bajarishingiznimuhokama qiling.
3. Topshiriqni bajaring.
4. Taqdimotga tayyorlaning.
5. Taqdimot o‘tkazing.
6. Guruh ishini baholang.

1-bosqich

Guruh ish joyini tayyorlash – stol va o‘rindiqlar shunday joylashtiriladiki, bunda ta’lim beruvchi auditoriyada erkin harakatlana olsin, har bir guruh a’zosi bir joyda bo‘lishlari va bir-birlarini ko‘rishlari va eshitishlari kerak, zarur o‘quv qo‘llanmalar barchaga yetarli bo‘lishi kerak.

2-Asosiy bosqich

**1.** Ta’lim oluvchilarni guruhlarga taqsimlash – tanlangan kichik guruhlarga birlashtirish yo‘li asosida ta’lim oluvchilarni guruhlarga bo‘ladi.

**2.** O‘quv topshiriqlarini tarqatish – muammoli vaziyatni taklif qiladi, ta’lim oluvchilar bilan birgalikda uni echish yo‘li va tartibini muhokama qiladi, guruhlarda hamkorlikdagi faoliyatni taqdim etish shaklini ma’lum qiladi. Har biri va butun guruhning natijalarini baholash mezonlarini tushuntiradi.

**3.** O‘quv topshiriqlarni bajarish bo‘yicha yo‘riqnomani tushuntirish. Guruhlar bo‘yicha ishni bajarish uchun zarur materiallarni tarqatadi. Topshiriqni baajarishda qanday qo‘shimcha materiallaridan foydalanish mumkinligini tushuntiradi. Guruhlarda ishlash qoidalarini eslatadi.

Doskada guruhli ishni bajarish bo‘yicha yo‘riqnomani yozadi yoki tarqatadi.

**4.** Ta’lim oluvchilar bilan qaytar aloqani amalga oshirish Ta’lim oluvchilar bilan guruhli ishni bajarish bo‘yicha yo‘riqnomani muhokama qiladi;hammalari uni tushunganlariga ishonch hosil qiladi.

**5.** Guruhlarda o‘quv topshiriqni bajarish jarayonini tashkil etish – o‘quv topshiriqni bajarish bo‘yicha ishni boshlanishi haqida e’lon qiladi; Guruh ishini nazorat qiladi. Guruh ishini rejalashtirish, vazifalarni guruh a’zolari o‘rtasida taqsimlash,vazifani bajarish bo‘yicha yakka tartibda ishlash, yakka tartibda topilgan

yechimlarni muhokama qilish, guruh uchun umumiy yechimni ifodalash, guruh ishi natijalarini taqdimotini tayyorlash, aniq topshiriqni baajarish uchun zarur bo‘lgan alohida bo‘lib ishlashga, ko‘nikmalarni shakllantirishga e’tiborini qaratadi. Ish borishini sharhlaydi, yutuqlarni baholaydi, ayrim aniq, va samimiy tanbeh qiladi.

**6.** Guruh ishi taqdimotini tashkil qilish – bajarilgan ish natijalari to‘g‘risida ma’lumot berish uchun guruh vakillarini tayinlaydi. Baholash mezoni va ko‘rsatkichlarini eslatadi.

3-Nazorat –yakuniy bosqichi

Yakun yasash – natijalar tekshiruvini o‘tkazadi: guruhning har bir ishtirokchisi bilan gaplashadi; Guruh ishini tahlil qiladi, topshiriq bajarilishining yakunini qiladi, erishilgan maqsad to‘g‘risida xulosalar chiqaradi.

**Hamkorlikda o‘qitishning samaradorligi**

1. Axborotga tanqidiy yondashuv va o‘z nuqtai nazarini dalillar bilan asoslashni shakllantiradi.
2. Ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi.
3. Bir vaziyatda olingan bilimlar boshqa vaziyatda qo‘llanishiga ko‘maklashadi.
4. Dars mazmuniga ijobiy yondashuv shakllantiriladi.
5. Topshiriqlarni bajarish uchun ko‘proq vaqt sarfini talab etadi.

# III. NAZARIY MATERIALLAR

## 1-MAVZU: Tug‘ilgandan to 3 yoshgacha davrda bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarni tashxis qilish va korreksiyalash muammosi. (2 soat)

Ilk yoshdagi bolalarni logopedik tekshirishning maqsadi – bolaning nutqini rivojlanishini uning yoshiga, intellektual rivojlanishiga mosligini, nutqidagi buzilishlarni aniqlash va nutqining xususiyatlarini o‘rganishdir.

Ilk yoshdagi bolalarni logopedik tekshirishning vazifalari quyidagilardan iborat:

- bolaning nutqini paydo bo‘lgunicha davrining xususiyatlarini va ilk nutqiy rivojlanishini aniqlash va tavsiflash;
- impressiv (nutqni tushunishni) nutqning rivojlanish darajasini aniqlash va tavsiflash;
- ekspressiv nutqning (faol nutqni) rivojlanish darajasini aniqlash va tavsiflash;
- nutq buzilishlarini differensial tashxis qilish;
- nutq paydo bo‘lgunga qadar va nutqning yuzaga kelgandan keyin rivojlanish darajasining bolani umumiy psixik rivojlanishiga mosligini, muvofiqligini aniqlash;
- logopedik korreksiyaning mos sharoitlarini aniqlash;
- ota-onalarga nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘qitish yuzasidan maslahatlar berish.

Logopedik tekshirish o‘ziga nutqiy anamnezni yig‘ishni, boshqa anamnezlar bilan tanishish, artikulyatsiya a’zolarining tuzilishi va harakatchanligini tekshirish, nutqning ohangi, su’ratini (prosodik tomonlarini), tovushlar talaffuzi va fonematik idrokni, nutqning impressiv va ekspressiv tomonlarini (lug‘ati, grammatik qurilishi, jumlali va bog‘langan nutq) o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Bir yoshgacha bo‘lgan harakatning qo‘pol buzilishlari kuzatilgan bolalarni tekshirishda reflektor harakatlarning, bolalarning qichqirishi hamda ovoz reaksiyalarini o‘rganish zarur.

Ilk yoshdagi bolalarning nutqiy rivojlanishini tekshirishning asosiy metodlariga quyidagilar kiradi: anamnetik ma’lumotlarni yig‘ish, ota-onalar bilan suhbat, bolaning o‘yin faoliyatida barcha nutq jarayonlarini bevosita kuzatish, bolaning nutqini faoliyati jarayonida hamda eksperimental sharoitda o‘rganish.

Shuni e’tiborga olish zarurki, ilk yoshdagi bolalarni logopedik tekshirish o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bir yoshgacha bo‘lgan bolaning nutqini paydo bo‘lguniga qadar davrini o‘rganish murakkab bo‘lib, u nerv sistemasining yetilmaganligi, nutq va sensor, motor, kognitiv funksiyalarning va hislarning me’yorda va patologiyada ham o‘zaro chambarchas bog‘liqligidan kelib chiqadi. Bolaning nutq paydo bo‘lgunicha va va nutqiy imkoniyatlarini baholash uning

barcha nerv-psixik rivojlanishi va harakat doirasining xususiyatlarini e’tiborga olgan holda o‘tkaziladi.

Ilk yoshdagi bolalar doimo ham eksperimentator bilan oson aloqaga va topshiriqlarni bajarish faoliyatiga kirishmaydilar. Shuning uchun ilk yoshdagi bolaning nutqini tekshirishda logoped bola bilan ijobiy hissiy aloqani o‘rnatib olishi zarur. Logoped ilk yoshdagi bolaning psixik rivojlanish qonuniyatlarini, turli yoshdagi bolalarni psixologik-pedagogik tekshirish metodlarini bilishi muhim, logopedik tekshirishni esa bolaning ushbu yoshi uchun yetakchi bo‘lgan faoliyat turini e’tiborga olgan holda o‘tkazishi kerak. Bu metodlarni qo‘llash orqali logoped nutq nuqsonlarining turli formalarini differensiatsiya qila olishi va ularni intellektning yetishmovchiligida, hissiy-irodaviy kuzatiladigan nutq nuqsonlaridan ajrata olishi mumkin.

Logoped nutq buzilishlarining nevrologik asoslarini bilishi va bolalar patopsixologiyasi bo‘yicha, ularda ko‘p kuzatiladigan psixik buzilishlar formalari haqida ham ba’zi tushunchalarga ega bo‘lishi lozim. Bu bilimlar nutq buzilishlarining tuzilishini to‘g‘ri aniqlashga, korreksiyalash, o‘qitish va tarbiyalash ishlarining eng maqbul yo‘llarini tanlashga imkon beradi.

*Logopedik tekshirishni o‘tkazishga qo‘yiladigan talablar*

Logopedik tekshirishni anamnezni to‘liq o‘rganib bo‘lingandan va tibbiy tekshiruvdan so‘ng o‘tkazish maqsadga muvofiq. Bola haqida olingan ma’lumotlar logopedga nutq nuqsonining kelib chiqishi, kechishini aniqlashga, tekshirishda to‘g‘ri yo‘nalishga, bolaning yoshiga, uning motor, sensor va intellektual imkoniyatlariga mos metodlarni tanlashga yordam beradi.

Ilk yoshdagi bolaning hissiy-kommunikativ doirasining xususiyatlariga bog‘liq holda logopedik tekshirishni psixologik tekshirishdan so‘ng yoki u bilan parallel ravishda logopedik usullarni qo‘llab o‘yin tarzida, bolani qiziqtirib o‘tkazish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ikki yoshgacha bo‘lgan bolalarni onasining yonida, ba’zi hollarda bola onasining tizzasida o‘tirgan holda tekshirish tavsiya etiladi, chunki bu yoshdagi bolalarda yuzaga keladigan qo‘rquv, xavotirlanish nutqiy negativizmni keltirib chiqarishi mumkin.

Ikki yoshdan katta bo‘lgan bolalar odatda berilgan yangi o‘yinchoqlarga qiziqadilar. Bu yoshdagi bolalarni tekshirish vaziyatiga ularni maxsus tashkil etilgan o‘yin faoliyatiga jalb etish orqali oson kechadi. Nutqiy materialning barchasi nutqiy ongogenezni e’tiborga olgan holda tanlanishi zarur. 1 yoshu 3 oylikda 3-5ta yaxshi

tanish bo‘lgan predmetlarning rasmlari, ko‘rib chiqish uchun – 1ta predmet rasmi qo‘shimcha qismlarsiz, statik (tik turgan) holatda beriladi.

1 yoshu 6 oylikda 5-7ta rasmlar orasidan kerakli predmetni topish taklif etiladi. Taklif etilgan rasmlarda predmet bola uchun tushunarli bo‘lgan qismlardan tashkil topgan bo‘lishi kerak.

1 yoshu 9 oylik bolalarga sodda mazmundagi voqeaband rasm ( qo‘g‘irchoq stulda o‘tiripti, mushuk koptok o‘ynayapti va hokazo) mos bo‘ladi. Ikki yoshda sodda ikki pog‘onali ko‘rsatmalarni, masalan “Kubikni ol va onangga ber” berish mumkin. Ikki yoshdan so‘ng bolalar ancha chuqur mazmundagi syujetni tushunishga qodir bo‘ladilar.

Fonematik idrokning shakllanganligini o‘rganish uchun 2 yoshu 6 oylikdan turlicha ovoz chiqaradigan o‘yinchoqlar qo‘llaniladi, 3 yoshdan esa rasm-simvollar va paronim so‘zlarni ifodalaydigan predmetlarning yassi, tekis rasmlaridan foydalaniladi.

Jumlali nutqning shakllanganlik darajasini tekshirish uchun bola bilan ko‘rgazmaga tayangan holda (ertak personajlari) tanish bo‘lgan ertakdan bir parchani eslab bevosita suhbat metodi qo‘llaniladi.

Eksperssiv (tashqi) nutqga ega bo‘lmagan bolalarni tekshirishda nutqiy diqqatning ifodalanganligiga, bola ovozga diqqatini qaratishiga, intonatsiyaga mos reaksiyasiga; ovoz faolligining mavjudligiga va artikulyatsiya a’zolari harakatlarining ixtiyoriy yoki reflektorliliga e’tibor beriladi.

## Bir yoshgacha bo‘lgan bolalarni logopedik tekshirish

### *Bir oylik bolani tekshirish metodlari va yo‘llari*

*Tadqiqot predmeti*: u bilan gaplashilganda javob sifatida alohida tovushlar chiqaradi.

*Tekshirish metodikasi:* katta odam chalqancha yotgan bolaga uning ko‘zidan 23-30 sm masofada engashadi. O‘zining yuziga nisbatan bolaning diqqatini tortadi, uni erkalatib gaplashadi, ba’zi tovushlarni cho‘zib (5 martagacha) talaffuz etadi.

*Bola uchun yordam:* agarda bola tovushlarni talaffuz etmasa, u bilan gaplashish 1-2 minutgacha cho‘ziladi. Agarda shunda ham javob tovushlari bo‘lmasa, bolani silab-siypalash, rag‘batlantirish lozim.

*Bolaning o‘zini tutishi:* katta odamning bir necha marta unga qarab murojaat qilishiga bola alohida tovushlar bilan javob beradi. Bir qancha vaqtdan (bir necha daqiqidan 1 minutgacha) so‘ng javob berishiga ham yo‘l qo‘yiladi. Agarda bu vaqt oralig‘ida istalayotgan xulq yuzaga keltirilmasa, unda bolaning beixtiyoriy vokalizatsiyasiga (ovoz chiqarishiga) diqqat qaratiladi va ularni boshqa topshiriqlarni bajarishida hisobga olinadi. Bir oylikda barcha shartli reflekslar namoyon bo‘lishi lozim.

*Ikki-uch oylik bolani tekshirish metodlari va yo‘llari*

*Tadqiqot predmeti:* Gugulash tovushlarini talaffuz etadi.

*Tekshirish metodikasi:* bolaning bo‘g‘iz tovushlarini aytishi uchun uni orqasi bilan yotqiziladi, bolani erkalatib murojaat qilinadi yoki bolaning onasidan u bilan hissiy “gaplashish” so‘raladi. Agarda go‘dak tekshirish davomida hech qanday bo‘g‘iz tovushlarini talaffuz etmagan bo‘lsa, unda onasidan: “Sizning farzandingiz qorni to‘q, dam olgan vaqtlarida qandaydir tovushlarni aytadimi? “Bu tovushlar qanday eshitiladi?”-, deb so‘raladi. Go‘dakning onasi bola talaffuz etadigan tovushlarni bayon qilishga qiynalsa, unga logoped yordam berishi mumkin. Namuna sifatida logoped go‘dakning onasiga gugulash tovushiga o‘xshash tovushlarni misol tariqasida talaffuz etadi.

*Bola uchun yordam:* agarda taktil-hissiy aloqada tovushlarni ayttirishning iloji bo‘lmasa, logoped bolaning nafas chiqarishini nafas gimnastikasi yordamida vokalizatsiya qilishga urinishi mumkin: dastlabki holat – orqasi bilan yotqizish. Ko‘krak qafasini, uning yon va oldi tomonlarini ritmik ravishda asta bosish. Nafas chiqarishda logoped gugulash tovushlarini talaffuz etadi. Bu metod 2 xaftalikdan 3 oylikkacha bo‘lgan bolalarda qo‘llanilishi mumkin. 3 oylikda dastlabki holat – bola orqasi bilan yotqiziladi. Bolaning bukilgan qo‘llarini biroz yon tomonlarga stolning ustida yengilgina sirpantirib ochish (nafas olish), so‘ngra ularni bukilgan holatda asta ko‘krak qafasining yon tomonlarining ustiga bosish (nafas chiqarish). Nafas chiqarishda logoped gugulash tovushlarini talaffuz qiladi.

*Bolaning o‘zini tutishi:* kattalarning bir necha murojaatidan so‘ng go‘dak alohida tovushlar bilan javob beradi: a) go‘dak birin-ketin unlilarga o‘xshash tovushlar (ayniqsa, “e” va “i”ga) chiqara boshlaydi. Asta-sekin undoshlar qo‘shila boradi. Bu so‘zlarning artikulyatsiyasi qisman noaniq, ba’zan esa umuman tushunarsiz bo‘ladi; Ba’zan 3 oylikda bola ko‘pincha orqasi bilan yotib velyar “r” tovushini talaffuz etishi mumkin.

*To'rt oylik bolani  tekshirish metodlari va yo'llari*

*Tadqiqot predmeti:* Faol turli gugulash tovushlarini talaffuz etadi. Gugulashda o'ziga-o'zi taqlid qiladi; bola bilan hissiy nutqiy aloqa qilinganda unga javoban qattiq kuladi; sokin va ritmik musiqaga turlicha munosabat bildiradi.

*Tekshirish metodikasi:* bola tomon engashib, uni  erkalatib, bir necha marta unga qarab gaplashiladi. Agarda bola ovoz reaksiyalari bilan javob bermasa, onasiga savol beriladi: "Farzandingiz qanday tovushlarni talaffuz qiladi?", "Uxlab turganidan so'ng, kayfiyati yaxshiligida o'z-o'zi bilan gaplashadimi?", "Bolangiz qanday xursand bo'ladi, kulishni biladimi?", "Sokin va ritmik musiqaga qanday munosabat bildiradi?"

*Besh  oylik bolani  tekshirish metodlari va yo'llari*

*Tadqiqot predmeti:* guvrashni ( bo'g'inlarni talaffuz etish) paydo bo'lishi.

*Tekshirish metodikasi:* odatda bolaning kayfiyati yaxshi vaqtlarda guvrashning dastlabki tovushlari paydo bo'la boshlaydi. Agarda bu tovushlarni spontan eshitishning iloji bo'lmasa, go'dakning onasi yoki tekshiruvchi bolani ushbu bo'g'in zanjirlarini aytishga undaydi. Agarda tekshirish vaqtida buning ham uddasidan chiqilmasa, bolaning onasidan: "Farzandingiz kayfiyati yaxshi vaqtlarda qanday tovushlarni talaffuz etadi?", deb so'raladi.

Onasi tomonidan bayon etilayotganda logoped bola bo'g'inlarning ketma-ket zanjirini talaffuz etishiga ahamiyat beradi. Agarda bunday bo'lmasa, logoped namuna keltiradi va onasidan bunga o'xshash tovushlarni bola qanday talaffuz qilishini eshitganligi so'raladi.

*Olti-yetti  oylik bolani  tekshirish metodlari va yo'llari*

*Tadqiqot predmeti:* bo'g'inlarni talaffuz etadi.

*Tekshirish metodikasi:* bo'g'inlarni talaffuz etishga undaydigan omil sifatida katta odamning bola bilan gaplashishi zarur emas, ammo unga murojaat qilinganda bola quvonadi. Tekshirish vaqtida bola tomonidan beixtiyoriy (spontan) talaffuz etilgan barcha tovushlar e'tiborga olinadi (belgilab boriladi).

Agarda tekshirish vaqtida tegishli tovushlarning, quvonch qichqiriqlarini eshitishning iloji bo'lmasa, bolaning onasi yoki logoped bola bilan taktil-hissiy

aloqa oʻrnatishga urinib koʻradi. Bola bilan bunday “gaplashish” vaqtida biroz toʻxtalish qilish lozim, bu vaqtda bola artikulyatsiya a’zolarining tegishli harakatlarini “topib” olishi mumkin. Agarda tekshirishning nihoyasigacha bola birorta ham boʻgʻinlarni talaffuz qilmasa, uning onasidan “Farzandingiz qichqiriqdan boshqa qandaydir tovushlarni talaffuz etadimi?”, “Ular qanday aytiladi?” va “Farzandingizning kayfiyati yaxshi vaqtlarda quvonchli qattiq qichqiriqlar chiqaradimi?”, deb soʻraladi. Agarda bolaning onasi farzandining qanday tovushlar chiqarishini koʻrsatishga qiynalsa, logoped namuna keltiradi.

Agarda taktil-hissiy aloqada tovushlar chiqarishning uddasidan chiqilmasa, logoped bolaning nafas chiqarishini nafas gimnastikasi yordamida vokalizatsiyalashga urinib koʻradi:

katta odam bolaning qoʻllarini ushlab ularni yon tomonga va yuqoriga koʻtaradi (nafas olish) va galma-galdan oʻng qoʻlini chap qoʻliga va chap qoʻlini oʻng qoʻlini ustida holda koʻkragining ustiga qoʻyadi (nafas chiqarish). Bolaning nafas chiqarishida logoped gugulash tovushlarini talaffuz etadi. Bu usul 6-12 oylik bolalarda qoʻllaniladi.

Koʻrishida, eshitishida nuqsoni boʻlgan bolalarda guvrashning (boʻgʻinlarni talaffuz etishning) shakllanishini orqada qolishi natijasida tovush va artikulyatsiya mimikasi oʻrtasida bogʻlanishlar yuzaga kelmaydi.

*Sakkiz oylik bolani tekshirish metodlari va yoʻllari*

*Tadqiqot predmeti:* soʻz-belgilarni tushunadi

*Tekshirish metodikasi:* tekshirish bolaning ota-onasining yordamida oʻtkaziladi, chunki bu davrda bola nutqni tushuna boshlaydi, vaziyatga munosabatini bildirishga qodir boʻladi. Bunda bolaga gapirayotgan odamning gavdasini holati, uning koʻrinishi, sharoit, intonatsiyasi, ovozining tembri ahamiyatli boʻladi. Tekshirishni oʻtkazishda predmet, uning joyi, gapirayotgan odamning ovoz tembri va intonatsiyasi bolaga yaxshi tanish boʻlishi kerak.

Bolaning onasi logopedning savollariga javob berishga qiynalgan vaqtlarda undan uyida bola agarda oʻyinchoq uning koʻziga koʻrinmaydigan joyda boʻlsa nigohi bilan uni izlashga harakat qilishiga e’tiborini qaratish soʻraladi.

*Bola uchun yordam:* agarda bola oʻyinchoqqa qaramasa, katta odam bolani qoʻliga olib oʻyinchoq yoniga olib keladi, uning nomini aytadi va “...............qani?”, deb soʻraydi va darhol uni koʻrsatadi. Oʻyinchoqni oʻrniga shunday tarzda qoʻyadiki, bola uni kuzatsin va yana boladan uni soʻraydi.

20-30 sek. toʻxtalishdan soʻng bolaning oʻyinchoqni nomini tushunganligi tekshiriladi, ammo bunda oʻyinchoq bolaning oldiga koʻrsatmasdan qoʻyiladi.

*To‘qqiz va o‘n oylik bolani tekshirish metodlari va yo‘llari*

*O‘rganish predmeti*: turli tovushlardan iborat bo‘g‘inlar zanjirini (3-5ta bo‘g‘indan iborat) talaffuz etadi; 2-4 so‘z ko‘rsatmasini 9 oylikda, va 4-7 ko‘rsatmani 10 oylikda tushunadi.

*Tekshirish metodikasi*: bu yoshdagi bola tekshirish vaziyatida doimo ham ovoz faolligini ko‘rsatmaydi, chunki notanish vaziyatdan qo‘rqishi mumkin. Shu sababli tekshiruvchi bolaning malakalarini baholash uchun onasidan: «Farzandingiz 3-4ta bir xil bo‘g‘inlarni, masalan, «ma-ma-ma», «ta-ta-ta», «ba-ba-ba» va boshqalarni talaffuz etadimi?» deb so‘rashi kerak. Agarda bola aloqaga yaxshi kirishsa unga 3-4ta o‘yinchok ko‘rsatiladi, ularni bola topishi kerak. So‘ngra ularning joylari o‘zgartiriladi va so‘raladi: «………..kani?» Savol 2-3 marta takrorlanadi. Bola uchta o‘yinchokdan ikkitasini topganidan so‘ng ular joylari bilan almashtiriladi va yana bir marta o‘yinchoklar haqida savol beriladi.

*Bolaga yordam*: agarda bola aytilgan o‘yinchoklarni «…….qani?» savollari bo‘yicha qidirmasa, tekshiruvchi o‘rgatuvchi yordam ko‘rsatadi: «ayiqcha qani?» Qara: mana ayiqcha!». So‘ngra ayiqchani yashiradi: «Ayiqcha yo‘q». «Mana ayiqcha». Shundan so‘ng yana boladan so‘raladi.

Agarda tekshirish vaqtida bolada istalayotgan javob reaksiyasini yuzaga keltirishning iloji bo‘lmasa, unda bolaning onasi farzandining uy sharoitidagi berilgan topshiriqqa tegishli o‘zini tutishini aniq misollar orqali ko‘rsatadi.

*O‘n bir oylik bolani tekshirish metodlari va yo‘llari*

*O‘rganish predmeti:* bo‘g‘inlarni va ba’zi so‘zlarni (dada, oyi, opa va h-zo) talaffuz qiladi; 6-10ta so‘z ko‘rsatmalarini tushunadi.

*Tekshirish metodikasi:* bu yoshdagi bolani tekshirishni o‘yin vaziyatida o‘tkazish lozim. Kuchukni ovkatlantirish, ko‘g‘irchoqni uxlatish (ko‘rsatib bermasdan)va h-zolar so‘raladi. Ko‘rsatma 2 marta takrorlanadi va bolaning harakatlari 5 minut kuzatiladi.

*Bolaga yordam*: agarda bola ko‘rsatmani bajarmasa, logoped uning oldiga o‘yinchoqni qo‘yadi va yana bir marta topshiriq takrorlanadi. So‘ngra bolaga talab etilayotgan harakat ko‘rsatib beriladi. Bola bilan o‘ynayotib, undan sodda, bola uchun tanish bo‘lgan, masalan: «Ol, qo‘y, ber, ko‘rsat, tashla, buyoqqa kel, itar, kiydir, mumkin emas» kabi harakatlarni bajarish so‘raladi. Agarda bola aytilayotganlarga e’tibor bermasa, so‘zlar tushuntiruvchi imo-ishoralar bilan birgalikda aytiladi.

Tushunilayotgan nutqda dastlabki umumlashtirishlarni aniqlash uchun boladan ikkita bir xil predmetni ko‘rsatish so‘raladi.

*O‘n ikki oylik bolani tekshirish metodlari va yo‘llari*

*O'rganish predmeti:* bir necha predmetlarning nomini, harakatlarni, ismlarni tushunadi (ko'rsatilmasa ham), ba'zi topshiriqlarni (top, ber, qo'y, ber, mumkin emas va h-zo) bajaradi; 5-10ta bo'g'in-so'zlarni, tovushlarga o'xshatishlarni talaffuz qiladi.

*Jihoz:* o'yinchoqlar, bola doimo kiyadigan kiyimlar, foydalanadigan predmetlar.

*Tekshirish metodikasi:* avval xonaga bolaga tanish bo'lgan bir necha predmetlar qo'yiladi. So'ngra tekshiruvchi onasiga ko'rsatmali ishoradan foydalanmasdan boladan predmetlardan birini, masalan :«menga koptokni olib kel!» yoki «qo'g'irchokni stol ustiga qo'y»va h-zolarni so'rashi iltimos qilinadi.

Bolaga tanish bo'lgan o'yinchoqlar, predmetlar beriladi. «Bu nima?», «Bu kim?», «Kuchukcha qanday gapiradi?», «Mushuk qanday miyovlaydi?»

## Ikki yoshdagi bolalarni logopedik tekshirish

### 1 yoshu 1 oylikdan 1 yoshu 3 oylikkacha

Impressiv nutk

1. Atrofidagi predmetlarning nomini tushunadi.

   *Jihoz*: hayvonlarni, transportni, maishiy jihozlarni tasvirlovchi 3-4ta o'yinchoq.

*Tekshirish metodikasi:* a) bola oldiga 4ta nazorat predmetlari (qo'g'irchoq, mashinacha, kuchuk, koptok) qo'yiladi. Tekshiruvchining: «……..qani?» savoliga javoban bola barcha predmetlarni ko'rsatishi kerak. So'ngra predmetlarning o'rnilari o'zgartiriladi va boladan yana so'ralgan predmetni topish ko'rsatmasi beriladi. Agarda bola yanglishsa yoki nomi aytilgan o'yinchoqni nigohi bilan qidirmasa, tekshiruvchi unga faqat ikkitasini ko'rsatadi va: «…..qani?», deb so'raydi. Javob bo'lmaganda bitta o'yinchoqni ko'rsatadi va uni nomini aytadi. Ikkita o'yinchoqning nomini aytish, so'ngra ularni boshqa nazoratlilar orasida ular haqida so'rash mumkin. Agarda bola uchtadan kam bo'lmagan predmetlarni topsa, ko'rsatsa topshiriq bajarilgan hisoblanadi; b) bolaning diqqati kiyimlarga, poyafzallarga (ishtonlar, shapka, tufli, ko'ylak) qaratiladi va «……..qani?», deb ularni ko'rsatish so'raladi. Agarda bola predmetlarni izlamasa yoki yanglishsa, tekshiruvchi ularni birgalikda qidirishni taklif etadi. Bolani biror predmetning oldiga olib boradi va: «……..qani?», deb so'raydi. Bola bilan birgalikda to'rtta predmetdan ikkitasini topish mumkin. So'ngra o'yinchoqlarni yana ko'zga ko'rinadigan joyga qo'yiladi va ularni topish, ko'rsatish so'raladi.

2. Harakatlarning nomini tushunadi.

   *Jihoz:* voqeaband o'yin uchun o'yinchoqlar.

*Tekshirish metodikasi*: bolaga «qo'g'irchoqni ovqatlantir», «Qo'g'irchoqni krovatga yotqiz», «kuchukka suv ber», «qo'g'irchoqqa qalpog'ini kiydir» va shunga

o‘xshash harakatlarni bajarish taklif etiladi. Agarda bola harakatlarni bajarmasa, tekshiruvchi uni o‘rgatadi, so‘ngra yana topshiriqni bajarishni so‘raydi.

E*ksperssiv nutk.*: bola turli bo‘g‘in-so‘zlarni, tovushga taqlid qilishni, undov so‘zlarni qo‘llay oladi. a, i, p, b, m, y tovushlarini talaffuz etadi.

Faol lug‘atning rivojlanish darajasi so‘rash, bolaning o‘yin faoliyatini kuzatish metodi orqali aniqlanadi.

**1 yoshu 4 oylikdan 1 yoshu 6 oylikkacha**

*Impressiv nutk*

1.Muhim belgilari bo‘yicha dastlabki umumlashtirishlar.

Jihoz: ba’zi bir belgilar bo‘yicha farqlanadigan ikkita o‘xshash predmetlar.

*Tekshirish metodikasi*: bir necha predmetlar, masalan, yumshoq matodan yasalgan kuchukcha, rezinadan qilingan kuchukcha, yumshoq matodan yasalgan mushukcha, qo‘g‘irchoq taklif etiladi, va kuchukchani va yana kuchukchani ko‘rsatish so‘raladi.

Ustida, ichida ko‘makchi otlarni tushunishi.

*Jihoz*: kubik, mashina, koptok, quticha.

Tekshirish metodikasi: boladan kubikni mashina ichiga, mashinani stul ustiga qo‘yish, mashinani quti ichiga solish so‘raladi.

3. Gavdaning 1-4ta kismini ko‘rsata oladi.

Dastlab bolaning onasidan farzandining gavdaning qaysi qismlarini bilishi aniqlanadi.

Eshitish diqqati va fonematik eshitish: nutqiy bo‘lmagan tovushlarni ajratadi (1yoshu 6 oylik).

*Jihoz*: childirma, qo‘ng‘iroqcha, yog‘och qoshiqlar.

Tekshirish metodikasi: bolaga nima ovoz chiqarganini topish taklif etiladi.

Ekspressiv nutq: tovushlarga taqlid qilish, bo‘g‘in-so‘zlar, predmetlarni va harakatlarni anglatuvchi so‘zlar. a, u, o, i, m, p, k, g, d, b, n tovushlari.

*Tekshirish metodikasi*: bolaga o‘yin vaziyatida turli o‘yinchoqlar, maishiy jihozlar ko‘rsatiladi va: «Bu nima?», «Bu kim?», deb so‘raladi.

**1 yoshu 7oylikdan 1 yoshu 9 oylikkacha**

*Impressiv nutk:*

1. Sodda hikoyalarni va kattalarning voqeaband rasm bo‘yicha bergan savollarini tushunadi.

*Jihoz:* mazmuni tushunarli, bolaning yoshiga mos boʻlgan turli voqeaband rasmlar: qizcha uxlayapti, ovqat yeyapti, choʻmilyapti, kiyinyapti va x-zo taklif etiladi.

*Tekshirish metodikasi:* tekshiruvchi bolaning oldiga rasmlarni qoʻyadi va «Qizchaning uxlayotganini koʻrsat», «Qizchaning choʻmilayotganini koʻrsat», deb topshiriq beradi. Agarda bola berilayotgan savollarga tegishli rasmlarni koʻrsatishga qiynalsa, u bilan birgalikda rasmlar koʻrib chiqiladi va alohida personajlarga tegishli savollar beriladi.

2. «tagida» koʻmakchi otining maʼnosini tushunadi.

Jihoz: stul tagida yotgan predmet.

*Tekshirish metodikasi*: bolaga stul ustidagi ruchkani, stul tagidagi ruchkani olish va ho-zo koʻrsatmalari beriladi.

3. Otlarning birlik va koʻplik shakllarni ajratadi (1yoshu 9 oylik)

*Jihoz:* bu yoshda haqiqiy predmetlardan, shuningdek rasmlardan foydalanish mumkin: qalam-qalamlar, mashina-mashinalar va hokazo.

*Tekshirish metodikasi:* bolaga koʻrsatish taklif etiladi (mashina qani, mashinalar esa qani, mashinani ber, mashinalarni ber).

4. feʼllarning oʻzlik nisbatida ifodalangan soʻz-harakatlarni tushunadi.

*Jihoz:* rasmlar (qoʻgʻirchoq qoʻlini yuvyapti, qoʻgʻirchoq yuvinyapti, bola mashinani gʻildiratyapti, bola mashinada uchyapti, qiz kiyyapti, qiz kiyinyapti).

*Tekshirish metodikasi*: boladan qaerda kiyayayotganini, qaerda kiyinayatganini koʻrsatish soʻraladi va hokazo.

Uch juft rasmdan 2-3 tasini koʻrsatadi.

5. Kichraytirish koʻshimchalari mavjud soʻzlarni tushunadi (1 yoshu 9 oylik).

*Jihoz:* haqiqiy predmetlar yoki rasmlar: katta mashina, kichkina mashina, katta stul, kichkina stul va hokazo.

*Tekshirish metodikasi*: bolaga katta mashinani, mashinachani, stulni va stulchani koʻrsatish taklif etiladi.

6. Yuz va gavdaning 3-5 qismlarini koʻrsatadi.

*Tekshirish metodikasi*: bola bilan hissiy aloqa oʻrnatib, koʻzini, burnini, ogʻzini koʻrsatish soʻraladi.

Fonematik eshitish: nutq tovushlarini farqlash.

*Jihoz:* kuchuk, mushuk, xoʻroz, sigir.

*Tekshirish metodikasi*: bolaga nima ovoz chiqarganini anikqlash taklif etiladi.

Bola tovushlarga taqlid bo‘yicha tanish o‘yinchoqlarni topadi.

Ekspressiv nutq:
1. Fe’llarni qo‘llaydi, ikki so‘zdan iborat jumlalardan foydalanadi.
*Tekshirish metodikasi*: bolaning o‘yin faoliyatini kuzatayotib uning barcha nutqiy imkoniyatlari e’tiborga olinadi.
2. So‘zning bo‘g‘in tuzilishi.
1 yoshu 9 oylikda bola ikki ochiq bo‘g‘inli (oyi, opa, dada), bir bo‘g‘inli (non, choy, uy, gul) so‘zlarini ayta oladi.
3. a, u, o, i, m, p, b, k, g, d, n, t, l, s tovushlarini talaffuz qiladi.
So‘zlarda ko‘pincha bosh dastlabki tovush yoki oxirgi undosh tashlab ketiladi.

**1 yoshu 10 oylikdan 2 yoshgacha**

Impressiv nutq
1. Bolaning tajribasida bo‘lgan voqealar haqida ko‘rsatilmasdan aytib berilganlarni tushunadi.

*Tekshirish metodikasi*: katta odam bolaning xotirasidagi avval yuz bergan hodisalarni eslatib savollar beradi.

2. “yonida” ko‘makchi otning ma’nosini tushunadi.
*Jihoz:* koptok, stol.
*Tekshirish metodikasi:* bolaga koptokni o‘ynash taklif etiladi. “Kel, koptok o‘ynaymiz. Endi koptok stol ustidan sakrasin. Koptokni stolning yoniga qo‘y”.
*Jihoz:* voqeaband rasmlar: kuchuk yog‘ochni o‘ynayapti., bola esa uning yonida turibdi.
*Tekshirish metodikasi:* so‘raladi: “Kuchuk nimani o‘ynayapti?”, “Bola nimaning yonida turibdi?”.

3. Fe’llarning birlik va ko‘plik shakllarini ajratadi (2 yosh).
*Jihoz*: voqeaband rasmlar: qizcha qo‘shiq aytyapti, qizlar qo‘shiq aytyaptilar; bola rasm chizyapti, bolalar rasm chizyaptilar.
*Tekshirish metodikasi:* so‘raladi: Top-chi, men qaysi rasm haqida gapiraman: “Qo‘shiq aytyaptilar”. “Rasm chizayotganlari haqidagisini ko‘rsat”. Uchta rasmlar juftidan bola ikkitasini ko‘rsatishi kerak.

Eshitish diqqati va fonematik eshitish: ovozning balandligini ajratadi (2 yoshda).
*Jihoz:* o‘yinchoqlar: katta va kichik kuchuklar, katta va kichik mushuklar va hokazo.
*Tekshirish metodikasi:* boladan “Qaragin, mening qo‘limda katta va kichik hayvonlar bor. Kichkinalari sekin ovoz chiqaradi, kattalari esa qattiq ovoz chiqaradi”. “ Hozir nima ovoz chiqarganini topasan”.

*Ekspressiv nutq*

- ikkinchi shaxsda birlik va koʻplikda buyruq-istak maylidagi fe'llarni, infitiniv (harakat nomini) nutqda qoʻllaydi;
- bosh kelishikda otlarning koʻplik shakllarini qoʻllaydi;
- ravish, olmoshlarni : mana, ana, qaerda, yaxshi, kerak, kerak emas qoʻllaydi;

Ba'zan kishilik olmoshlarini aralashtirib yuboradi (oʻzi haqida 3 shaxsda gapiradi);

- coʻzning boʻgʻin tuzilishi: uch boʻgʻinli soʻzlarni (mashina, doʻlana) nutqda qoʻllaydi. Ba'zan boʻgʻinlarni tashlab ketishi mumkin.
- sifat va olmoshlarni qoʻllab uchta soʻzdan iborat gaplardan foydalanadi. Qoʻshimchalarni qoʻshish orqali soʻz yasash malakalariga ega boʻladi (erkalatish-kichraytirish qoʻshimchalarini).

*Tekshirish metodikasi:* bolani oʻyin faoliyatida kuzatayotib, rasmlar yuzasidan berilgan savollarga javob berishni taklif etib uning barcha nutqiy imkoniyatlari belgilab boriladi.

## 2 yoshu 1 oylikdan 2 yoshu 6 oylikkacha

*Impressiv nutq:*

1. Asosiy leksik mavzular boʻyicha predmetlarning, harakatlarning ma'nosini anglatuvchi soʻzlarni tushunadi:

- oʻyinchoqlar: qoʻgʻirchoq, ayiqcha, koptok, kubik, quyoncha;
- idish-tovoqlar: piyola, choynak, qoshiq;
- kiyimlar: shapka, palto, tufli, koʻylak, ishton, mayka;
- mebel: stol, stul, shkaf, krovat;
- gavda qismlari: bosh, qoʻllar, oyoqlar, boʻyin;
- yuzning qismlari: koʻzlar, ogʻiz, burun, peshona, lab;
- uy hayvonlari: it, mushuk, xoʻroz, ot, sigir;
- transport: mashina, avtobus, poezd, samolyot;
- mevalar: olma, apelsin, olxoʻri;
- sabzavotlar: sabzi, bodring, pomidor;
- hayvonlar gavdasining qismlari: boshi, oyogʻi, dumi, koʻzi, moʻylovi;
- harakatlar: kiyinish, ovqatlanish, ichish, kulish, oʻynash, qurish, uchish, yuvish, silash, dazmollash, davolash;
- sifatlar: katta, kichik, uzun, qisqa, qizil, koʻk, sariq, yashil, shirin, achchiq;
- narechiya (ravishlar): uzoq, yaqin, past, baland, tez, sekin, qorongʻi, yorugʻ;
- Lugʻat boyligini tekshirish uchun *jihoz:* predmetlarning rasmlari, voqeaband rasmlar.

2. “orqasida”, “oldida”, “ustida” ko‘makchi otlarning qo‘llanilishini tushunadi (2 yoshu 6 oylik).

*Tekshirish metodikasi:* bolaga quyidagi ko‘rsatmalarni bajarish taklif etiladi: “Stulning ustiga chiq”, “Gilamning ustida yur”, “Oynaning oldiga bor”, “Qo‘lingni boshing ustiga ko‘tar”.

3. Fe’llarning hozirgi va o‘tgan zamonlarini ajratadi (2 yoshu 6 oylik).

*Tekshirish metodikasi:* bolaning nima qilganligi va nima qilishi haqida suhbat orqali aniqlanadi.

4. Uch pog‘onali ko‘rsatmani tushunadi.

*Tekshirish metodikasi:* boladan quyidagicha ko‘rsatmalarni bajarish so‘raladi: “Stulning ustidagi koptokni ol va stol ustiga qo‘y” yoki “Stolning ustidagi mashinachani va koptokni ol, oyingga mashinachani ber, menga esa koptokni ber”.

E*shitish diqqati va fonematik eshitish:* paronim-so‘zlarni farqlaydi (2 yoshu 6 oylik)

*Jihoz:* rasmlar (shim-cim, bosh-tosh, stol-stul va xokazo).

*Tekshirish metodikasi:* bolaga so‘ralayotgan rasmni ko‘rsatish taklif etiladi.

E*kspressiv nutq:*

- otlarni bosh, jo‘nalish, o‘rin-payt kelishiklarda qo‘llay oladi;
- otlarni birlik va ko‘plikda qo‘llay oladi;
- fe’llarni birlik va ko‘plikda qo‘llaydi,shaxslarda o‘zgartira oladi (2 shaxs ko‘plikdan boshqasida). Fe’llarning hozirgi va o‘tgan zamonlarini farqlaydi.

*So‘zning bo‘g‘in tuzilishi:* ikki bo‘g‘inli so‘zlarni (limon, shamol) talaffuz etadi.

Tovushlar talaffuzida artikulyatsiya jihatidan bir-biriga yaqin tovushlarni almashtiradi.

**2 yoshu 7oylikdan 3 yoshgacha**

*Impressiv nutq*

ochish, yopish, olib ketish, olib kelish, o‘rash, taxlash, yoyin).

*Fonematik eshitish*: omonim so‘zlarni farqlaydi.

E*kspressiv nutq:*

- otlarni, fe’llarni ko‘plikda qo‘llaydi.

*Jihoz:* bitta va bir necha predmetlar tasvirlangan rasmlar;

- o‘zlik nisbatidagi fe’llarning barcha shakllari paydo bo‘ladi;
- nutqida sifatdoshlar paydo bo‘ladi ( borgan, kelgan, ketgan).

*Tekshirish metodikasi:* bola bilan rasmlarni qo‘llab suhbat o‘tkazish orqali aniqlanadi.

*So‘zning bo‘g‘in tuzilishi:* undosh tovushlar ketma-ket kelgan so‘zlarni qo‘llay boshlaydi, masalan, tarvuz, sholg‘om, taksi.

*Tovushlar talaffuzi:* sh, j, ch, q, g‘.

## Logopedik teshirish natijalarining taxlili

*1 oylikdan 4 oylikkacha bo‘lgan bolalarni tekshirishdan olingan ma’lumotlarning taxlili*

Bolalar organizmidagi markaziy nerv sistemasining jarohatlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan turli patologik holatlar hatto oddiy ovoz reaksiyalarining yuzaga kelishiga ham to‘sqinlik qilishi mumkin. Bolaning artikulyatsiya a’zolari va nafas mushaklaridagi zaiflik uning qichqirig‘ini qisqa, zaif, yuqori tonda, ba’zan esa esa shunchalik sekin bo‘lishiga olib keladiki, bunda faqatgina mimik reaksiyaga ko‘ra bola yig‘layotganini sezish mumkin. Bulbar va psevdobulbar buzilishlarda, artikulyatsiya a’zolarining tug‘ma nuqsonlarida, ochiq rinolaliyada bolaning qichqirig‘ida eshitiladigan tovushlar manqalangan tarzda bo‘ladi. Nafas mushaklari zaif bolalarda bundan tashqari, yo‘talish juda zaif yoki bo‘lmaydi, go‘dak aksiradi, ammo bo‘g‘iz tovushlarini chiqarmaydi. Emishning zaifligi, so‘rg‘ichni lab bilan ushlab olishning bo‘shligi, emishda ko‘pincha qoqilib ketish til, lab, chaynash mushaklarining inervatsiyasini buzilishlaridan dalolat berishi mumkin.

Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda ovozga, o‘yinchoq ovoziga eshitib e’tibor berishning zaifligi yoki yo‘qligi kuzatiladi, ammo bu yoshda eshitishning tashxis qilish juda mushkuldir, chunki hatto total karlikka ega bo‘lgan bolalar ham bu davrda ovoz chiqarishi, onasi unga erkalatib qaraganga e’tibor berishi mumkin.

Markaziy nerv sistemasining organik jarohatlanishlari bo‘lgan 2-3 oylik bolalarda nutq paydo bo‘lgunga qadar rivojlanish orqada qoladi, sustlashadi. Og‘ir holatlarda vokalizatsiya (ovoz chiqarish) faqatgina nafas mashqlari jarayonida, nafas chiqarishda imkoni bo‘ladi. Yengilroq holatlarda bunday bolalarda ovoz faolligini kattalar bilan hissiy-nutqiy aloqa qilishda, yorqin rangdagi o‘yinchoqqa nisbatan va taktil tegish orqali yuzaga keltirish mumkin. Bunday bolalarda dizartrik buzilishlar mavjudligiga taxmin qilinishi mumkin. Qichqiriq fiziologik reaksiya bo‘lib, ko‘pincha bu davrda ham intonatsiya jihatidan yorqin bo‘lmaydi, butilkachaning so‘rg‘ichini, emishni sezishda ham to‘xtamaydi.

3 oylikka kelib bunday bolalarda psevdobulbar sindrom ancha aniq namoyon bo‘la boshlaydi, u emishni, yutishni, nafas olish, qichqirishni yaqqol buzilishlarida kuzatiladi. Bu davrda kuzatiladigan pevdobulbar sindromning xususiyatlari salbiy belgilarda namoyon bo‘ladi. Ularga lab, til, yumshoq tanglay, bo‘g‘iz, nafas mushaklarining falajliklari va parezlari kiradi. Tilning hajmi katta, tarang, harakatsiz, uchi aniq emas, ko‘pincha yarim doira shaklida, yuqoriga biroz ko‘tarilgan “so‘ruvchi til” shaklida, ba’zi bolalarda esa, aksincha, spastik orqaga tortilgan, harakatsiz bo‘ladi.

2-3oylik bolalarda nutq nuqsonlarining paydo bo‘lish belgilariga qichqiriq va gugulashning bo‘lmasligi yoki yetarlicha intonatsion jihatdan ifodaliligi; gugulashdagi bir xil va sekin tovushlarning qo‘l va oyoqlarning betartib harakatlari bilan birgalikda kelishi; jonlanish kompleksining yo‘qligi; qichqiriqdagi manqalangan tovushlarning ko‘pligi va xokazolar kiradi.

Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda asosan qisqa, ko‘p bo‘lmagan gugulash kuzatiladi.

Logopedik tekshirishda go‘dakning tovush reaksiyalari: gugulash, bo‘g‘inlarni talaffuz etish kuzatish orqali baholanadi:. Bunda faqatgina bunday tovush reaksiyalarining mavjudligi emas, balki ularning sifatiga e’tibor beriladi.

*4 oylikdan 8 oylikkacha bo‘lgan bolalarni tekshirishdan olingan ma’lumotlarning taxlili*

Bulbar va psevdobulbar buzilishlar bu davrda faqatgina oziqlanishning buzilishini, ya’ni emish va yutishning buzilishlari bilangina emas, balki fonatsiyaning o‘zgarishi, gipersalivatsiya (so‘laklarning oqishi) va til mushaklarining tonusini oshishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Psevdobulbar dizartriyada til tonusi oshgan bo‘ladi. Og‘iz ochilganda til uchining qalinlashganligi, tilning kattaligi, kam harakatliligi kuzatiladi, bola qichqirganida til “qayiqcha” shaklida bo‘ladi yoki uchi bilan qattiq tanglayga tegib turadi. Tilning mushaklari tonusi psevdobulbar falajlikda pasaygan, til yoyilgan holatda, og‘izdan chiqib turadi yoki lablar orasida bo‘ladi.

Bulbar buzilishlarda mushaklarning bir tomonining atrofiyasi natijasida tilning uchi ingichkalashgan va yon tomonga egilgan bo‘ladi. Yumshoq tanglay osilib turadi. Til va yumshoq tanglay tonusining buzilishi natijasida bolaning qichqiriqlari va gugulash tovushlari manqalanib eshitiladi. Gugulash tovushlari kam, bir xilda bo‘ladi, hissiy aloqaga javoban kulgu, quvonchli qichqiriqlar kuzatilmaydi.

Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda jonlanish kompleksi tovushlarining shakllanishi orqada qoladi.

Eshitish analizatori buzilgan bolalarda gugulashda o‘z-o‘ziga taqlid qilish kuzatilmaydi, bola onasi bilan hissiy aloqada kulmaydi, sokin, ritmik musiqaga reaksiya kuzatilmaydi.

5 oylik markaziy nerv sistemasi jarohatlanishlariga ega bo‘lgan bolalarda eshitish buzilgan hollarda bo‘g‘inlarni talaffuz etishning dastlabki bosqichi rivojlanmaydi, yengilroq holatlarda esa ovoz faolligining yetarlicha emasligi, tovush komplekslarining kambag‘alligi, parcha tarzdaliligi namoyon bo‘ladi.

Turli sababalarga ko‘ra psixomotor rivojlanishi sustlashgan, ko‘rishida, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda “..........qani?” savoliga chamalash (izlash) reaksiyalari kuzatilmaydi.

Ko‘rishida, eshitishida buzilishlar bo‘lgan bolalarda shuningdek tovush va artikulyator mimika o‘rtasida bog‘lanish yuzaga kelmaydi, natijada bo‘g‘inlarni talaffuz qilishning shaklanishi orqada qoladi.

### *9 oylikdan 12 oylikkacha bo‘lgan bolalarni tekshirishdan olingan ma’lumotlarning taxlili*

11-12 oylikda bola ikkita bir xil bo‘g‘inlarni birin-ketin bog‘lashga o‘tadi, bu holat ona tili fonematik idrok etish ta’sirida yuzaga keladi. Bo‘g‘inlarni ko‘paytirish “so‘zlarni ajratish” sifatida qaralishi mumkin. Harakat doirasida qo‘pol buzilishlarga ega bo‘lgan bolalar patologik tonik reflekslarning ta’siri natijasida haligacha gugulash davrida bo‘ladilar. Ko‘pincha chaynash, yutishning buzilishlari, suyuq ovqatlarni iste’mol qilayotganlarida “qoqilib” ketish hollari kuzatiladi. Predmetli faoliyat va impressiv nutqning (nutqni tushunish) shakllanishi orqada qoladi. Maqsadga yo‘naltirilgan aniq harakatlarning shakllanishi va barmoqlarning nozik harakatlarini rivojlanishidagi buzilishlar boladagi nutq paydo bo‘lgunga qadar rivojlanishning ham sustlashishidan darak beradi.

Agarda 12 oylikda nutq paydo bo‘lgunga qadar va nutqning ilk rivojlanish davrlaridan orqada qolish kuzatilsa orqada qolishning sababini aniqlash uchun bolani nevrologik va psixologik tekshirish zarur.

Turli tovushlarga reaksiyaning bo‘lmasligi yoki zaifligi hamda bolaning so‘zlarni tlaffuz etmasligi uning eshitishining pasayganligidan dalolat beradi.

Ko‘rishning pasayishi bolada predmetning aniq ko‘ruv obrazini yuzaga kelmasligiga olib keladi va bola so‘zlayotgan odamning ko‘rinayotgan artikulyatsiyasiga tayana olmaydi, natijada nutqning impressiv tomonining rivojlanishi orqada qoladi, chunki so‘zning tovush obrazining ko‘ruv-kinestetik sezgi o‘rtasida bog‘lanish hosil bo‘lmaydi.

### *1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan bolalarni tekshirishdan olingan ma’lumotlarning taxlili*

Nutqning ekspressiv tomonining rivojlanishi orqada qolgan bolalar nutqini impressiv tomonini tekshirish uning yetarlicha darajadaligini ko‘rsatadi. Bolalar so‘ralganda predmetlarni, o‘yinchoqlarni, rasmlarda predmet va harakatlarning nomlarini ko‘rsatadilar. Ekspressiv nutq nutqiy faollikning pastligi bilan tavsiflanadi. Bolalar imo-ishoralar bilan bilan harakat qilishga moyil bo‘ladilar, bo‘g‘in-so‘zlarni qo‘llaydilar, ko‘rsatilgan ko‘pgina predmetlarni, shuningdek predmetlarning rasmlarini, voqeaband rasmlarni nomlay olmaydilar yoki tovushlarga taqlid qilish bilan cheklanadilar. Jumlali nutq ko‘p bolalarda bu davrda shakllanmagan bo‘ladi. Ba’zi hollarda amorf gaplar kuzatiladi.

Artikulyatsiya a’zolarining harakatchanligini buzilishi hollarida 2 yoshga kelib nutqiy faollikning pastligi namoyon bo‘ladi. Bolalar alohida

vokalizatsiyalarni, amorf so‘zlarni, “bo‘g‘in so‘zlarni” chiqaradilar. Ko‘rsatilgan nuqsonlar bolalarda dizartrik buzilishlarning mavjudligidan dalolat berishi mumkin.

Impressiv nutq birlamchi buzilgan hollarda bolalar ularga qaratilgan nutqni tushunmaydilar. Nutqiy bo‘lmagan tovushlarga e’tibor beradilar, ammo bunda turg‘unlik kuzatilmaydi. Aloqa qilishda bolalar modulyatsiyalashgan vokalizatsiyalardan foydalanadilar, ko‘pincha so‘ralganda ular fonetik tizimdagi ko‘pgina tovushlarni, bo‘g‘in-so‘zlarni yoki so‘zlarni talaffuz qilishlari (takrorlashlari) mumkin.

Eshitishi pasaygan bolalarda nutqni tushunish qo‘pol buzilgan bo‘ladi. Bolalar maishiy xarakterdagi bir necha ko‘rsatmalarni aniq vaziyatda baland ovoz bilan aytilganda tushunishlari mumkin. Nutqiy faollik keskin pasaygan bo‘ladi. Aloqa qilish uchun bolalar ekspressiv imo-ishorali va predmet-amaliy vositalardan foydalanadilar. Ekspressiv nutqda 2 yoshga kelib eshitishi pasaygan bolalarda asosan, alohida kam modulyatsiyalangan vokalizatsiyalar va bo‘g‘in-so‘zlar bo‘ladi.

*2 yoshdan 3 yoshgacha bo‘lgan bolalarni tekshirishdan olingan ma’lumotlarning taxlili*

*E*kspressiv nutqining rivojlanishi sustlashgan bolalarda impressiv nutq deyarli yoshiga mos darajada bo‘ladi. Bolalar rasmlarda tasvirlangan predmetlarning, harakatlarni yaxshi biladilar, grammatik kategoriyalardan son, kelishiklar qo‘shimchalarini ishlatilishini to‘g‘ri tushunadilar. Ular kichik hajmdagi bog‘langan matnlarni: she’r, ertak, hikoyalarning mazmunini tushunadilar.

Nutqning rivojlanishini orqada qolishi ijtimoiy omillarga bog‘liq bo‘lgan hollarda, ya’ni bolaning tarbiyasida haddan tashqari g‘amxo‘rlik, kattalarni bolaning barcha istaklarini, talablarini muhayyo qilishlarida ko‘pincha bolalar imo-ishoralardan ham ko‘p foydalanadilar, ularning nutqni faol qo‘llay imkoniyatlari chegaralanadi. Bunday bolalar uchun aloqaga kirishmaslik, xavotirlanish, qo‘rqoqlik, o‘jarlik, negativizm, kattalarning talablarini bajarmaslik kabi psixologik xususiyatlar xos bo‘ladi.

Nutqning shakllanishini sustlashuvi bolalar serebral falajligida artikulyatsiya a’zolarining harakatchanligining buzilishlaridan ham kelib chiqishi mumkin. Bu holda artikulyatsiya a’zolarini tekshirishda mushaklar tonusining buzilishlariga e’tibor qaratiladi. Mushaklar tonusidagi spastik yoki paretiklik artikulyatsiya a’zolarining ixtiyoriy harakatlarini chegaralaydi va tovushlar talaffuzining nuqsonlarini keltirib chiqaradi. Og‘ir holatlarda bola lablar, tilning ixtiyoriy harakatlarini umuman bajara olmaydi. Ko‘pincha chaynash, yutish buziladi. Bolalarda nutqning shakllanishidagi bo‘g‘inlarni talaffuz etish bosqichi kechikib qoladi, artikulyatsiya a’zolari harakatchanligi buzilishlarining og‘ir hollarida bo‘g‘inlar bolaning nutqida 2 yoshga kelib paydo bo‘lishi mumkin. Talaffuz etiladigan tovushlar ko‘pincha bir xil tarzda bo‘ladi.

Harakat doirasida buzilishlar kuzatiladigan bolalarda predmet-amaliy faoliyatning nuqsonlariga bog‘liq ravishda faol lug‘atni o‘zlashtirishda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Ularning nutqida predmetlarning ma’nosini anglatadigan dastlabki so‘zlar kech (2 yoshu 6 oylikdan 3 yoshda) paydo bo‘ladi.

Nutqni tushunish umumlashtirilgan darajagcha yetmaydi: bola predmetlarni anglatadigan so‘zlarni, predmetlarni faqatgina aniq, bola uchun tanish bo‘lgan vaziyatlardagina tushunadi, taniy oladi.

Nutqning rivojlanishini orqada qolishi ilk yoshdagi bolalar autizmida o‘ziga xos nutq buzilishlariga ham bog‘liq bo‘ladi. Bunday bolalarda nutqiy aloqaning keskin cheklanganligi, nutqning leksik-grammatik tomonini rivojlanmay qolishi, o‘ziga xos fonetik buzilishlar va ovozning yuqori tonda bo‘lishining ustunligi bilan ifodalanadigan buzilishlari kuzatiladi. Bolalarni kuzatishdan hamda uning onasi bilan suhbatdan olingan ma’lumotlar natijasida autik bolalarda artikulyatsiya a’zolari harakatchanligida qo‘pol buzilishlarning yo‘qligiga amin bo‘lish mumkin, chunki bola nutqida spontan ravishda (beixtiyoriy) murakkab bo‘g‘in tuzilishidagi so‘zlarni va to‘liq jumlalarni talaffuz eta oladi. Autik bola nutqni aloqa vositasi sifatida qo‘llamagani uchun nutqning rivojlanishi orqada qoladi.

Psixik rivojlanishi total sustlashgan bolalarda nutqning rivojlanishini orqada qolishi yaqqol namoyon bo‘ladi va ham impressiv va ekspressiv nutqda kuzatiladi. Artikulyatsiya a’zolarining harakatchanligining buzilishlari bo‘lmaganda ham psixik rivojlanishi sustlashgan bolalar sirg‘aluvchi tovushlarni uzoq vaqtgacha talaffuz eta olmaydilar, ularda predmetlarni farqlab tushunish va so‘z ifodasida aks ettirishining shakllanmay qolishi sababli fonematik idrokning shakllanishi ham kechikib qoladi. Bolalar nutqiy ko‘rsatmalarni imo-ishora bilan aniq, ular uchun yaxshi tanish bo‘lgan vaziyatlarda tushunadilar. Psixik rivojlanishi total sustlashgan bolalarda jumlali nutq 3 yoshda ham shakllanmagan bo‘ladi.

Impressiv nutqning rivojlanmay qolishi birlamchi (asosiy) nuqson bo‘lgan bolalar ularga qaratilgan nutqni tushunmaydilar. Ularda ekspressiv nutq shakllanmagan bo‘ladi, ammo ba’zan sodda bo‘g‘in tuzilishidagi so‘zlarni takrorlashlari mumkin. Bu yoshda bolalarda nutqning leksik-grammatik tomoni yetarlicha shakllangan va bog‘langan nutqi mavjud bo‘lan hollarda tovushlar talaffuzining buzilishlari ham kuzatilishi mumkin. Fonetik buzilishlar til oldi tovushlarini tisharo va yon tomonda talaffuzida namoyon bo‘lishi mumkin.

Nutqning fonetik-fonematik rivojlanmay qolishida bolalar tovushlarni bir-biriga almashtirishlari, o‘rnilarini almashtirishlari va buzib talaffuz etishlari kuzatiladi. Fonematik idrokning shakllanganligini tekshirishda akustik jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lgan tovushlarni farqlashda, rasmlar materialida paronim so‘zlarni ajratishdagi qiyinchiliklar, xatolar kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Psixologo-mediko-pedagogicheskoe obsledovanie detey doshkolnogo i mladshego shkolnogo vozrasta. Avtorы-sostaviteli: R.K.Aytjanova, R.A.Sulaymenova, A.K.Ersarina i dr. Almatы, 2000g.
2. Diagnostika psixicheskogo razvitiya v rannem detstve. Avtorы-sostaviteli: R.K.Aytjanova, R.A.Sulaymenova, A.K.Ersarina i dr. Almatы, 2000g.
3. Otbor detey v spesialnыe doshkolnыe uchrejdeniya. – M., 1972. Sostaviteli: Vlasova T.A., Lebedinskaya K.S., Machixina V.F.
4. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Pod redaksiey I.Yu.Levchenko i S.D.Zabramnoy. M., ACADEMA, 2005g.
5. Venger A.A., Vыgodskaya GL., Leongard E.I. Otbor detey v spesialnыe

Doshkolnqe uchrejdeniya. M., Prosвещение, 1972g.

## 2-MAVZU: INKLYuZIV TA'LIM MUAMMOSI: MUAMMOLAR VA YuTUQLAR

Reja:

1. Inklyuziv ta'lim haqida tushuncha
2. Inklyuziv ta'limning O'zbekistondagi huquqiy asoslari.

### *1.Inklyuziv ta'lim haqida tushuncha*

Inklyuziv ta'lim (ingliz tilidan olingan bo'lib, inclusive, inclusion– uyg'unlashmoq, uyg'unlashtirish, qamrab olmoq, qamrab olish ma'nolarini bildiradi) nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni (diskriminatsiyani) bartaraf etish, maxsus ta'limga muxtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko'ra nogiron bo'lgan) o'smirlar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iktisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir.

Inklyuziv ta'lim bu barcha o'quvchilar, shu jumladan imkoniyati cheklanganlar ham o'z tumanlaridagi umumta'lim maktablarida oddiy sinflarda,yoshlariga muvofiq bilim olish uchun kerak bo'lgan yordamni olganlari va maktab hayotidagi barcha jabhalarda ishtirok etishlari hamda o'zhissalarini qo'shishlarini anglatadi. Inklyuziv ta'lim barcha o'quvchilarga – ta'limda asosiy ehtiyojga muhtoj bo'lgan va bo'lmaganlarga ham ijobiy tarzda tarbiyaviy va ijtimoiy ta'sir qiladi.

Barcha imkoniyati cheklangan bolalarni hayotni yaxshi boshlashi va inklyuziv ta'lim muhitida qo'llab-quvvatlanib va yordam olib hayot kechirishi.

Inklyuziv ta'limni amalietga joriy qilishda va maqsad-vazifalari, ta'limni tashkil etish usullarini ommaga tushuntirishda hali qator muammolar, tusiqlar ham mavjud.

Inklyuziv ta'lim umumta'lim jarayonini rivojlantiradi va barcha bolalarga mos bo'lgan ta'limni joriy qiladi. Imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim olishiga oid qo'shimcha moslamalarni tashkil qilib bolalarni ta'lim olishiga qulay sharoit yaratadi.

Inklyuziv ta'lim xar xil extiyojli bolalarning ta'lim olishiga qaratilgan metodologiyani rivojlantirishga xarakat qiladi. Inklyuziv ta'lim turli extiyojlarni qondirishga qaratilgan ixcham turdagi dars berishga yondashadigan ta'limni ishlab chiqishni amalga oshiradi. Agarda inklyuziv ta'limni tadbiq etishda dars berish, o'qitish bir muncha samarali va unumli bo'lsa unda nafaqat imkoniyati cheklangan bolalar balki barcha bolalar yutadi. Inklyuziv ta'lim maktablari bolalarning bilim olish uchun shaxsiy huquqlarini himoyalaydi (vaxolangki ular uqitilmasaham). Bunday yondashuv diskriminatsiyani bartaraf etadi, kamaytiradi chunki bolalar bir-birlari bilan muloqot qilish jarayonida uzlarining o'qitilish jarayonida turli extiyojlarga ega individum ekanliklarini anglaydilar.

Inklyuziv ta’lim tizimida quyidagi maqsad va vazifalarning hal etilishi talab etiladi:

- ta’lim muassasasida imkoniyati cheklangan bolalar va usmirlarning ta’lim olishlari uchun zaruriy psixologik - pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratish, ularning imkoniyatiga yunaltirilgan umumta’lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruxiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish;
- ukuvchilarning ta’limdagi tenglik xukukini kafolatlash;
- jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog‘lom bolalarning extiyojlarini qondirish, ijtimoiy xayotga erta moslashtirish;
- imkoniyati cheklangan bolalar va usmirlarni oilalardan ajramagan xolda yashash xuquqini ruyobga chiqarish;
- jamiyatda imkoniyatti cheklangan bolalar va usmirlarga nisbatan dustona va mexr-muxabbatli munosabatni shakllantirishdir.

***2.Inklyuziv ta’lim kursining ob’ekti***




***3. Inklyuziv ta’limga kiritishning asosiy tamoyillari***

Ta’lim tizimini joriy etish har doim ma’lum bir qonun qoidalarga, tamoyillarga asoslanishni talab etadi. Inklyuziv ta’lim tizimini joriy qilishda esa quyidagi tamoyillarga asoslaniladi:

1). Inklyuziv ta’limning e’tirof etilishi.

2).Inklyuziv ta’limning barcha uchun ochiq bo‘lishi tamoyili.

3). Bog‘lanishning mavjud bo‘lishi tamoyili.
4). Markazlashtirilmagan bo‘lishi tamoyili.
5). Inklyuziv ta’limda kompleks yondashishi tamoyili.
6). Inklyuziv ta’limda moslashuvchanlik tamoyili.
7). Malakaviylik tamoyili.

**1). Inklyuziv ta’limning e’tirof etilishi tamoyili.**

Bu tamoyilning mazmuni shundaki, 1990 yildan buyon maxsus ehtiyojli bolalrni umumta’lim muassasalari tizimida o‘qitish borasida bir qancha jahon miqiyosida dekloratsiyalar va qarorlar qabul qilindi. Ularni jahonning ko‘plab davlatlari e’tirof etdilar. Ammo bugungi kunga qadar ularni hayotga joriy qilish borasida ko‘plab muammolar mavjud. Ba’zi davlatlarda esa umumiy ta’lim borasida qonun yoki qarorlar qabul qilinganda nogiron bolalarning ta’lim masalasi unga kiritilmaydi. Ammo inklyuziv ta’limni tan olish faqatgina qonun chiqarish bilangina bog‘liq bo‘lmaydi. Diskriminatsiya (odamlarni ajratish) va ijtimoiy noto‘g‘ri fikrlashga qarshi kurashish eng muhim narsadir. Ya’ni inklyuziv ta’limni e’tirof etgan holda, aholi o‘rtasida targ‘ibat-tashviqot ishlarini olib borish eng birinchi galdagi masaladir.

**2). Inklyuziv ta’limning barcha uchun ochiq bo‘lishi tamoyili.**

O‘tgan yigirma yil davomida maxsus ehtiyojli bolalrni umumta’lim muassasalari tizimida o‘qitish borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Ammo inklyuziv ta’limi tizimini joriy qilish asosan shaharlar miqiyosida bo‘lib qishloqlardagi hududlarda hali-hamon maxsus ehtiyojli bolalar ta’limdan chetda qolib ketmoqda yoki qishloqlardagi ota-onalar nogiron farzandini shaharlardagi maxsus muassasalarga qatnashlarini ta’minlash uchun qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Shuning uchun ham maxsus ehtiyojli bolalarni inklyuziv ta’limga jalb etish barcha hududlarda barcha maxsus ehtiyojli bolalarni qamrab olgan bo‘lishi ta’minlanishi lozim.

**3). Bog‘lanishning mavjud bo‘lishi tamoyili.**

“Bog‘lanish”-bu so‘zning zaminida-ommaviy binolarning sifati, ayniqsa nogiron bolalar uchun maktablarga kirishning oson bo‘lishi kabilar yotadi. Bola maktab binosiga (zinapoyalar aravachada yurishga moslashtirilmaganligi sababli) kira olmaganmi yoki maktab xojatxonasi aravachada harakatlanuvchilarga moslashtirilmaganligi uchun oddiy maktabdan chiqarib tashlamasligi kerak. Bu kabi qulayliklarni yaratish unchalik katta mablag‘ talab qilmaydi. Yangi maktab binosi nogiron bolalarning ehtiyojlarini e’tiborga olgan holda rejalashtirilgan paytdan boshlab qurilishi kerak. Alatta nogiron bolalar uchun yaxshi bo‘lgan qulayliklar normal rivojlanishdagi bolalar uchun hech bir muammo keltirib chiqarmaydi. Jismonan bog‘lanishlarni yaratish inklyuziv ta’limning asosiy muammolarini hal etishga xizmat qiladi.

**4). Markazlashtirilmagan bo‘lishi tamoyili.**

Bu tamoilning mazmuni quyidagi ikkita aspekt yordamida ifodalanadi:

A). Inaklyuziv ta’lim xizmatlari umumiy ta’lim tizimining integratsiya qilingan qismi bo‘lishi kerak.

B). Inklyuziv ta'lim tizimidgi vazifalar mahalliy ta'lim organlariga jaqvobgarlik va boshqaruvni yuklash uchun markazlashmagan holda olib borilishi kerak va imkoniyatlar mahalliy sharoitlarga moslashtirilishi lozim.

Optimal integratsiya erishish uchun markazlashtirilmagan bo'lish muhimdir. Bu ayniqsa qishloq sharoitlarida ayni muddao bo'ladi. Inklyuziv ta'limning vazifalari nogiron bolalarga o'z ota-onalari balan birga bo'lish, ularga xuddi tengdoshlari kabi o'zlariga yaqin bo'lgan maktablarda ta'lim olish imkonini beradi. Bu ularning shaxsiy sifatilarining shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Nogiron bolaning normal rivojlanishiga halaqil berish, nogironlikdan ham og'irroq holatlarga olib kelishi mumkin.

**5). Inklyuziv ta'limda kompleks yondashishi tamoyili.**

Nogiron bolalrga ularga nogiron deb faqatgina nuqson jihatdan yondashishi emas, balki bu bolalrga har tomonlama yondashish lozim. Bu esa maxus ehtiyojli bolalar uchun ta'lim masalasini rejalashtirayotgan uning butun hayoti davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ehtiyojlini hisobga olgan holda tuzishni talab etadi. Bundan tashqari inklyuziv ta'limda nogiron boladagi mavjud nuqonlarni bartaraf etish, korreksiyalash, kompensatsiya qilish bilan bir qatorda bilim ko'nikmalarga ega qilish, kasb hunarga o'rgatish ishlarini parallel ravishda olib borish talab etiladi. Bu tamoyilning mohiyatida maxsus ehtiyojli bolalarga ilk yosh davrida erta yondashish ham yotadi. Maxsus ehtiyojli bolalar ta'limi boshlang'ich va o'rta-maxsus ta'limni olishlari blan yakunlanmasligi kerak. Nogiron bolalarning kasb-hunar ta'limi va oliy ta'limi ham amalga oshirilishi taalab etadi. Chunki inklyuziv ta'lim tizimining vazifalaridan biri maxsus ehtiyojli bolalrni har tomonlama rivojlantirish, ularning barcha huquqlarini ta'minlashdan iboratdir.

**6). Inklyuziv ta'limda moslashuvchanlik tamoyili.**

Bu tamoyilning mazmuni shundaki, o'quv reja, dastur va darsiliklar maxsus ehtiyojli bolalarning imkoniyatlariga moslashuvchan bo'lishi kerak. Bolaning maxsus ta'limga bo'lgan ehtiyojlari har qanday integratsiya faoliyatining asosini tashkil etishi kerak. Shaxs ehtiyojlarining darajalari va turlari har xil bo'lganligi tufayli bunday faoliyatlar moslashuvchan o'zgaruvchan bo'lishi talab etiladi.

**7). Malakaviylik tamoyili.**

Maxsus ehtiyojli bolalar inklyuziv tarzda o'qitilayotgan sinflarda yuhori malakali o'qituvchilarning dars berishi talab etiladi. Bundan tashqari inklyuziv sinf o'qituvchisi defektlogiya sohasi bo'yicha ham malaka oshirgan bo'lishi kerak.

Inklyuziv ta'lim joriy qilingan maktablarda (muassasalarda) ta'lim jarayonini tashkil etish tamoyillari.

- Maxsus ta'lim tamoyillari:
- Korreksion yo'naltirilganligi;
- Nuqsonini aniqlash, ta'lim berishda kompleks (klinik-genetik, neyrofiziologik, psixologo pedagogik) yondoshish;
- Nuqsonli funksiyani erta aniqlab, tibbiy\psixologik jixatdan korreksiyalash;
- Umumiy o'rta ma'lumot berish, kasbga yunaltirish va ijtimoiy hayotga tayyorlashga moslashtirish;
- Differensial tabaqalashtirish va oloxida yondoshish;

- Ta’limning uzliksizligini ta’minlash.

**4. Inklyuziv ta’limining xukukiy asoslari**

**Inklyuziv ta’limning O‘zbekistondagi huquqiy asoslari.**

Yuqorida keltirilgan huquqiy-me’yoriy hujjatlar O‘zbekiston Respublikasida inklyuziv ta’limning joriy etilishi uchun asos bo‘lib hisoblanadi. Jumladan; “Ta’lim hamma uchun” dasturining bajarilishi, O‘zbekistonda ta’lim olish huquqining qonunchilik asosini:

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (1992 yil; 41-modda)
- “O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoyalash to‘g‘risidagi” qonun (19, 27-moddalar)
- “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun (1997 yil, 22, 23-moddalar)
- “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun (2008 yil; ta’lim olishdagi teng imkoniyatlar va alohida kafolatlari, 28, 29-moddalar)
- Kadrlar tayyorlash milliy dasturi (o‘quvchilarni qobiliyat va imkoniyatlariga muvofiq o‘qitishga differension yondashuv)
- “Ijtimoiy himoya yili” davlat dasturi (4.2-modda), “Yoshlar yili” Davlat dasturi.
- “Sog‘lom avlod” davlat dasturi (2000 yil)
- “Ijtimoiy himoya yili” davlat dasturi (2007 yil)
- “Barkamol avlod yili” davlat dasturi (2010 yil) va boshqalar

Inklyuziv ta’limning barqarorligini ta’minlash maqsadida “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahririga imkoniyati cheklangan bolalarni umumta’lim jarayoniga integratsiyalash maqsadida umumta’lim maktablari, maktabgacha ta’lim muassasalarida inklyuziv guruh va sinflarning tashkil qilinishini tartibga soluvchi modda kiritilgan.

O‘zbekistonda integratsiyalashgan (inklyuziv) ta’limni rivojlantirish bo‘yicha siyosati quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- integratsiyalashgan (inklyuziv) ta’limni imkoniyatlari cheklangan bolalarning barqaror rivojlanishi, reabilitatsiyasi, jamiyatda moslashuvi va integratsiyasining muhim omili sifatida tan olinishi;
- integratsiyalashgan (inklyuziv) ta’limni saqlab qolish va rivojlantirish maqsadida barcha strategik kuchlar, davlat va nodavlat tuzilmalar, keng jamoatchilikning jisplashishi;
- integratsiyalashgan (inklyuziv) ta’limning hamma uchun ochiqligi, ta’lim tizimining o‘quvchilarning rivojlanish salohiyatlari, o‘ziga hos xususiyatlari hamda ta’lim ehtiyojlarini hisobga olgan holda moslashuvi;
- imkoniyatlari cheklangan bolalarni umumiy ta’limga integratsiyalash maqsadida ta’lim muassasalari, ota-onalar, jamoatchilik tashkilotlarining faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirish mexanizmlarini yaratish;
- integratsiyalashgan (inklyuziv) ta’lim muassasalari uchun maxsus o‘quv rejalari, o‘quv-uslubiy komplekslar ishlab chiqish;
- o‘quvchilarda tevarak-atrofdagilar, tengdoshlari bilan o‘zaro ijobiy munosabatlarning o‘rnatilishi, atrofdagi kishilarda kommunikabellik va bag‘rikenglikni rivojlantirish;

- imkoniyatlari cheklangan bolalarni ularning ehtiyojlari va imkoniyatlariga qaratilgan sifatli ta’lim olishida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi;

O‘zbekistonning integratsiyalashgan (inklyuziv) ta’lim sohasidagi siyosati yosh fuqarolarning ta’lim olishlari uchun optimal sharoitlar yaratilishiga qaratiladi va quyidagi maqsadlar bajarilishiga yo‘naltiriladi:

- bolaning o‘ziga xos ta’limga ehtiyojlarini mumkin qadar erta (hayotining dastlabki oylaridan) aniqlash;
- o‘ziga xos ta’lim ehtiyojlari mavjud bolalarning barchasini ta’limga jalb etish;
- imkoniyatlari cheklangan bolalarni sog‘lom tengdoshlari qatoriga integratsiyalash uchun sharoitlar yaratish;
- imkoniyatlari cheklangan shaxslarning o‘ziga xos ta’lim ehtiyojlarini qondirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;
- inklyuziv ta’lim muhitida ishlayotgan pedagoglarga malakali uslubiy yordam ko‘rsatish va rag‘batlantirish;
- uyg‘un rivojlangan avlodni tarbiyalashga qaratilgan davlat siyosatini ta’lim vositalari yordamida qo‘llab-quvvatlash;

Mazkur maqsadlarga erishish, quyidagi vazifalar majmuasining amalga oshirilishini taqozo etadi:

- imkoniyatlari cheklangan bolalarning ehtiyojlaridan kelib chiqib, maxsus integratsiyalashgan (inklyuziv) ta’lim mazmunini ilmiy-uslubiy jihatdan ishlab chiqish;
- maxsus integratsiyalashgan (inklyuziv) ta’limni uning barcha pog‘onalarida tashkil etish, boshqarish va muvofiqlashtirish prinsiplari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- maxsus integratsiyalashgan (inklyuziv) ta’limning huquqiy asoslarini takomillashtirish, uning me’yoriy huquqiy jihatdan ta’minotini ta’lim siyosatining maqsad va vazifalariga moslashtirish;
- bolalarning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda sifatli ta’lim olishda teng imkoniyatlarga ega bo‘lishning davlat tomonidan kafolatining amalga oshirilishini ta’minlaydigan tashkiliy-boshqaruv mexanizmlarini yaratish;
- maxsus integratsiyalashgan (inklyuziv) ta’lim muassasalari uchun pedagogik kadrlarni tayyorlash, malakasini oshirish ishlarini takomillashtirish;
- maxsus integratsiyalashgan (inklyuziv) ta’lim muammolarini ilmiy-nazariy va ilmiy-uslubiy nuqtai nazardan ishlab chiqilishini ta’minlaydigan ilmiy-pedagogik kadrlarning kasbiy tayyorgarligi va malakasini oshirish;
- O‘zbekistonning bu faoliyatga davlat, jamoatchilik tashkilotlari, ota-onalarni keng jalb qilishga qaratilgan ta’lim siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishning davlat-jamoatchilik mexanizmlarini rivojlantirish;
- mintaqalarning imkoniyatlaridan kelib chiqib, integratsiyalashgan (inklyuziv) ta’lim holati va rivojlanish tendensiyalarini monitoring qilish tizimini yaratish;
- integratsiyalashgan (inklyuziv) ta’lim sohasida o‘qituvchilar, o‘quvchilar, ota-onalar, jamoa tashkilotlari xodimlari uchun o‘quv metodik majmualar va ommabop adabiyotlarni yaratish;

Imkoniyatlari cheklangan bolalarning, hoh u maxsus maktab, maktabgacha muassasalar bo‘lsin, hoh umumta’lim muassasalari qoshidagi sinf yoki guruhlar bo‘lsin, hoh uyda ta’lim olish bo‘lsin – o‘qitishning barcha shakllari–ta’lim sohasiga jalb qilinishi ma’lum jihatdan integratsiya jarayoni hisoblanadi, chunki o‘qish davrida va undan keyin ham bu bolalar boshqa bolalar, shu jumladan umumta’lim muassasalarda ta’lim olayotgan bolalar bilan o‘zaro muloqotda bo‘ladilar, ularning ijtimoiy moslashuvi va jamiyatga uyg‘unlashuvi ta’minlanadi. Biroq, ta’lim olish uchun mos shart-sharoitlarni tanlash har bir bolaning va ota-onasinig huquqi hisoblanadi. Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya mutaxassislari zimmasiga bolaning ruhiy-jismoniy holatini o‘rganish va tashxis qilish vazifasi yuklangan bo‘lib, bolani har tomonlama tekshirish natijasida bolalarni o‘qitish va ularga mos keladigan ta’lim sharoitini aniqlashga doir tavsiyalar beriladi. Shunday qilib, o‘ziga xos ehtiyojlari bo‘lgan bolaning umumta’lim sohasiga samarali jalb qilinishi uchun quyidagilar zarur:

- bolaning rivojlanishida ijobiy natijalarga erishishga imkon beradigan korreksion tadbirlarni erta yoshdan boshlash
- umumiy ta’limga jalb qilingan har bir bola uchun tibbiy-psixologik-pedagogik kuzatuvni, ya’ni mutaxassislarning doimiy yordamini tashkil etish;
- ruhiy-jismoniy rivojlanishi va ta’lim ehtiyojlaridan kelib chiqib, imkoniyatlari cheklangan har bir bolaning sog‘lom bolalar bilan birgalikda tarbiya va ta’lim olishining zarur shakllarini tanlashni ta’minlash;

Bolaning ta’lim tizimiga jalb qilinishining biror ko‘rinishi u uchun oddiy va foydali bo‘lishi darkor, ayni paytda bu inklyuziv ta’lim maromida rivojlanayotgan tengdoshlarining sifatli ta’lim olishiga halaqit bermasligi lozim.

Shuningdek, ushbu hujjatlar asosida 2003 yilda Respublikamizda “Talim hamma uchun” Milliy dasturi ishlab chiqildi. “Ta’lim hamma uchun” dasturining Milliy rejasi YuNESKOning maslahatlari va moddiy ko‘magi bilan 2000 yilgi Dakar shartnomalariga mos bo‘lib, siyosatchilar, ta’lim tizimi, vazirlik va idoralar rahbarlari, pedagoglar, jamoat arboblari, O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirish muammolari bilan qiziquvchi barcha shaxslar uchun mo‘ljallangan. Mazkur rejada O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz ta’lim tizimini “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi –“Ta’lim hamma uchun” Milliy Rejasining konseptual o‘zagi asosida isloh etish muammolari va istiqbollari tahlil qilingan. YuNESKOning “Ta’lim hamma uchun” loyihasida bayon etilgan mezonlarga muvofiq ta’lim sohasidagi muammolar Rejada alohida quyidagicha yoritilgan.

Umumiy qoidalar.

HMR-THU tayanch tamoyili (shaxs ustuvorligi)ga tayangan bo‘lib, har bir go‘dak, o‘smir va yoshi katta inson o‘zining tayanch ta’limga bo‘lgan ehtiyojlarini so‘zsiz tan oladiki, ushbu tushuncha eng yuqori va to‘la ma’noda qoniqish, yangi dunyoni bilishga o‘rganish, harakat qilish boshqalar bilan birgalikda yashash va kun ko‘rish imkonini beruvchi ta’lim olish huquqiga egadir. Shuningdek, HMR-THUning maqsadi-har bir insonning iqtidori va imkoniyatlarini ochish, o‘qiyotganlar shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’limni ta’minlashdir, toki odamlar o‘z hayotlarini yaxshilab, o‘z jamiyatlarini tuza olsinlar”

Bundan tashqari ushbu Rejaning III.9 qismi “Maxsus ehtiyojli bolalarni o‘qitish”, deb nomlangan bo‘lib, unda maxsus ta’lim tizimining bugungi kundagi barcha jabhalarining ahvoli yoritib o‘tilgan.

Shuningdek, VI. Band ham maxsus ta’lim xususida bo‘lib unda quyidagicha bayonot qilinadi:

1). Qonunchilik va me’yoriy huquqiy bazani takomillashtirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirildi:

a. “Rivojlanishda jismoniy va ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalarning uzluksiz ta’limi to‘g‘risidagi Nizom”ni tasdiqlash;

b. “Maxsus ehtiyojlari mavjud bolalarni xonadonlarda o‘qitish” to‘g‘risida Nizom ishlab chiqish;

c. Maxsus yordamga muhtoj bolalar korreksion ta’limi davlat standartlarini ishlab chiqish hamda tasdiqlash va boshqalar.

2). Maxsus ta’lim va tarbiya mazmunini takomillashtirish bandining bosh masalasi inklyuziv ta’lim tizimidir:

a. bolalar bog‘chalari va maktablarida inklyuziv ta’lim strategiyasini amalga oshirish. Umumta’lim maktab o‘qituvchilari bilan maxsus maktab o‘qituvchilarining hamkorlikda ishlashiga erishish;

b. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda inklyuziv ta’limni qo‘llab-quvvatlovchi moliyaviy vositalarni harakatlantiruvchi mexanizmlarini asoslash va qonuniy tasdiqlashni ko‘zda tutish maqsadga muvofiq.

c. imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarning skrining holatini aniqlash. Imkoniyati cheklangan bolalarni umumta’lim maktablariga jalb etishda ulardagi nuqsonlarning turi va darajasi, shu hududddaga sharoitlardan kelib chiqqan holda bosqichma-bosqich amalga oshirish.

Tashxis markazlari xodimlari ish faoliyatiga bog‘cha va maktablarga inklyuziv ta’lim strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish majburiyatini kiritish kabilar.

<u>IX. yo‘nalishning IV. bandi</u> inklyuziv ta’lim tizimini o‘quv uslubiy tomondan takomillashtirish xususida bo‘lib, unda quyidagilar bayon etilgan:

a. oddiy sinflarda maxsus ehtiyojli bolalarni o‘qitish rejalari, baholash va sinfdan sinfga o‘tkazish tizimini soddalashtirish;

b. maktablarning darsliklar, uslubiy qo‘llanmalar, dasturlarga ehtiyojini aniqlab, mazkur adabiyotlarni yetkazib berish, darsliklar mazmunini takomillashtirish (2003-2005 yillar);

g. inklyuziv maktab o‘qituvchilari va o‘quv rejalari zimmasiga yuklatilgan vazifalarni qayta ko‘rib chiqish, ta’lim standarti, shuningdek maxsus ehtiyojlari mavjud bolalarning oddiy sinflarda bilim olishlarini nazarda tutadigan ixcham va o‘zgaruvchan rejalar tuzish (2005-2010);

d. inklyuziv maktablar o‘quvchilari va ota-onalar uchun uslubiy qo‘llanmalar, o‘qituvchilar uchun o‘quv materiallari tayyorlash va ta’minlash.

Tahlil natijasi shuni ko‘rsatdiki, “Ta’lim hamma uchun” Milliy dastur rejasi har tomonlama mukammal tuzilgan. Reja dasturning V bandi “Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish” deb nomlanadi. Chunki inklyuziv ta’lim tizimini joriy etish yuqori malakali kadrlarsiz samarali kechmaydi. Jumladan,

dasturda "Umumiy ta'lim muassasalari pedagoglarini inklyuziv ta'lim bo'yicha qayta tayyorlash. Barcha gumanitar o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida inklyuziv ta'lim asoslari bo'yicha kurs kiritish (2003-2005)" kabi masalalar o'rin olgan.

"Ta'lim hamma uchun" Milliy dastur rejasida yuqoridagilardan tashqari inklyuziv ta'lim tizimini joriy etishning moddiy texnika bazasini mustahkamlash, maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalariga jalb etishda qonunchilik va me'yoriy bazani takomillashtarish, inklyuziv ta'limni joriy etishda targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish zaruriyati va boshqa masalalar ham qayd etilgan. Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun maxsus ishlab chiqilgan ta'lim dasturlari bo'yicha ta'lim muassasalarida o'qish va tarbiyalash hamda o'z jismoniy, aqliy qobiliyatlari va xohishlariga mos bo'lgan ta'lim olish huquqiga ega. Psixo - Tibbiy -pedagogik komissiyaning tavsiyasi bilan jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarning ota-onalari o'z xohish istagiga ko'ra hamda bolaning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda ta'lim (umumta'lim yoki ixtisoslashtirilgan) muassasasi turini tanlash huquqiga ega.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarga o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirishda qonun hujjatlari bilan imtiyozlar belgilanishi mumkin, deb belgilab berilgan. Xulosa qilib aytganda yuqorida keltirilgan barcha me'yoriy hujjatlar asosida O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limni joriy qilishning huquqiy asoslari yaratilgan.

Inklyuziv ta'lim kursining vazifalari

Inklyuziv ta'lim tizimida quyidagi maqsad va vazifalarning hal etilishi talab etiladi:

- ta'lim muassasasida imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarning ta'lim olishlari uchun zaruriy psixologo - pedagogik, koreksion sharoitlarni yaratish, ularning imkoniyatiga yo'naltirilgan umumta'lim dasturlari va koreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruhiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish;
- o'quvchilarning ta'limdagi tenglik xuquqini kafolatlash;
- jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog'lom bolalarning extiyojlarini qondirish, ijtimoiy xayotga erta moslashtirish;
- imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarni oilalardan ajramagan holda yashash xuquqini ro'yobga chiqarish;
- jamiyatda imkoniyatti cheklangan bolalar va o'smirlarga nisbatan do'stona va mexr-muxabbatli munosabatni shakllantirishdir.

Imkoniyati cheklangan bola ham barcha bolalardek bola hisoblanadi va u tan olinishi, hurmatga sazovor bo'lishiga haqli, shuning uchun ularni nuqsoni bilan atalishi nomaqbul hisoblanadi.

Bola, u qanday xolatda va qanday imkoniyatga ega bulishidan qat'iy nazar xar doim kattalar yordamiga muxtojdir. Uni ajratish yoki aloxida nom bilan atash insonparvarlik nuqtai nazariga tugri kelmaydi. Agar imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan «anomal bolalar», «nogiron bolalar», «ko'r bolalar», «kar bolalar», «aqli zaif bolalar», «xarakat tayanch a'zolari falajlangan bolalar» va x. k.

tushunchalar ishlatilib kelindi. Ammo ushbu tushunchalar mkoniyati cheklangan bolalarni xuquqlarini poymol kiladi. Ota-onalarga xam salbiy ta'sir etadi. Imkoniyati cheklangan bolalar me'yorda rivojlanishdagi bolalar kabi topshiriq va vazifalarni tezlik bilan mukammal amalga oshira olmasalarda, ammo imkoniyat darajasida bajara oladilar. Bolaning xukuklarini ximoya kilish, ularga ijobiy munosabatda bo'lish tarbiyalashning muxim usulidir. Shuning uchun xam taxkirlashlarga yul kuymaslik talab etiladi.

**Mavzu yuzasidan savol va javoblar:**

**1-Savol:** Inklyuziv ta'lim deganda nimani tushunasiz.

**Javob:** Inklyuziv ta'lim (ingliz tilidan olingan bo'lib, inclusive, inclusion– uyg'unlashmoq, uyg'unlashtirish, qamrab olmoq, qamrab olish ma'nolarini bildiradi) nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi tusiqlarni (diskriminatsiyani) bartaraf etish, maxsus ta'limga muxtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko'ra nogiron bo'lgan) o'smirlar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iktisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir

**2-Savol**:Inklyuziv ta'lim maqsadi va vazifalari nimalardan iborat.

**Javob**: Ta'lim muassasasida imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarning ta'lim olishlari uchun zaruriy psixologik - pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratish, ularning imkoniyatiga yunaltirilgan umumta'lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruxiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish; O'quvchilarning ta'limdagi tenglik xukukini kafolatlash; Jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog'lom bolalarning extiyojlarini qondirish, ijtimoiy xayotga erta moslashtirish; Imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarni oilalardan ajramagan xolda yashash xuquqini ruyobga chiqarish; Jamiyatda imkoniyatti cheklangan bolalar va o'smirlarga nisbatan do'stona va mexr-muxabbatli munosabatni shakllantirishdir.

**3-Savol:**Inklyuziv ta'lim ta'moyillarini yoriting.

**Javob:** Ta'lim tizimini joriy etish har doim ma'lum bir qonun qoidalarga, tamoyillarga asoslanishni talab etadi. Inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilishda esa quyidagi tamoyillarga asoslaniladi:

1). Inklyuziv ta'limning e'tirof etilishi.
2). Inklyuziv ta'limning barcha uchun ochiq bo'lishi tamoyili.
3). Bog'lanishning mavjud bo'lishi tamoyili.
4). Markazlashtirilmagan bo'lishi tamoyili.
5). Inklyuziv ta'limda kompleks yondashishi tamoyili.
6). Inklyuziv ta'limda moslashuvchanlik tamoyili.
7). Malakaviylik tamoyili

**4-Savol:** Ehtiyojlari bo'lgan bolaning umumta'lim sohasiga samarali jalb qilinishi uchun nimalar zarur:

**Javob:** bolaning rivojlanishida ijobiy natijalarga erishishga imkon beradigan korreksion tadbirlarni erta yoshdan boshlash; umumiy ta'limga jalb qilingan har bir bola uchun tibbiy-psixologik-pedagogik kuzatuvni, ya'ni mutaxassislarning doimiy yordamini tashkil etish; ruhiy-jismoniy rivojlanishi va ta'lim

ehtiyojlaridan kelib chiqib, imkoniyatlari cheklangan har bir bolaning sog‘lom bolalar bilan birgalikda tarbiya va ta’lim olishining zarur shakllarini tanlashni ta’minlash.

**5-Savol:** Maxsus ta’lim va tarbiya mazmunini takomillashtirish bandining bosh masalasi inklyuziv ta’lim tizimini sanab o‘ting:

**Javob**: 1.bolalar bog‘chalari va maktablarida inklyuziv ta’lim strategiyasini amalga oshirish. Umumta’lim maktab o‘qituvchilari bilan maxsus maktab o‘qituvchilarining hamkorlikda ishlashiga erishish;

2. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda inklyuziv ta’limni qo‘llab-quvvatlovchi moliyaviy vositalarni harakatlantiruvchi mexanizmlarini asoslash va qonuniy tasdiqlashni ko‘zda tutish maqsadga muvofiq.

3. imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarning skrining holatini aniqlash. Imkoniyati cheklangan bolalarni umumta’lim maktablariga jalb etishda ulardagi nuqsonlarning turi va darajasi, shu hududddaga sharoitlardan kelib chiqqan holda bosqichma-bosqich amalga oshirish.

**Mavzu yuzasidan test savollar:**

1**. Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida” gi qonunidda ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning jamiyatga uyg‘unlashish huquqi kafolatlari e’tirof etilgan qatorni belgilang**

*A. hamma javoblar to‘g‘ri.

B.Ta’lim, tibbiyot va madaniy-ma’rifiy muassasalar nogiron bolalar hamda jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolalarning erkin harakatlanishlari uchun moslashtirilgan bo‘lishi kerak.

G. Davlat ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni reabilitatsiya qilish tizimini shakllantirish va rivojlantirishni tashkil yetadi hamda bunga ko‘maklashadi.

D. Davlat ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar va ular oilalarining jamiyat hayotida faol ishtirok yetishini ta’minlash uchun ularning sha’ni va qadr-qimmatini kamsitmaslik shartlari asosida dasturlar ishlab chiqish tashabbuskori bo‘ladi hamda zarur resurslar ajratadi.

2. **Imkoniyati cheklangan bolalar Inklyuziv ta’limning huquqiy asosini belgilang.**

A.Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya

*B. Inson xuquqlari umumjahon deklaratsiyasi

G. Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya

D. Aqli zaif shaxslar huquqlari to‘g‘risidagi Deklaratsiya

**3. Inklyuziv ta’lim vazifalari nimalardan iborat**

A.O‘quvchilarning ta’limdagi tenglik xukukini kafolatlash, jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog‘lom bolalarning extiyojlarini qondirish, ijtimoiy xayotga erta moslashtirish

B. Nogiron bolalarga nisbattan salbiy munosabat; Imkoniyati cheklangan bolalarning hamjamiyatda ko‘rinmaslik muammosi;

G. Ta’lim muassasalarini moslashtirish; Sinfda o‘quvchilar sonining ko‘pligi; Kambag‘allik; Kadrlar masalasidagi muammolar

D. Har bir kishi eshitish va muloqot qilish qobiliyatiga ega.Har bir kishi bir-biriga muxtoj.

*E. Barcha javoblar to‘g‘ri

**4. Inklyuziv ta’limning barcha uchun ochiq bo‘lishi tamoyiliga tegishli qatorni belgilang.**

A. Maxsus ehtiyojli bolalarni inklyuziv ta’limga jalb etish barcha hududlarda barcha maxsus ehtiyojli bolalarni qamrab olgan bo‘lishi ta’minlanishi lozim.

B. Jismonan bog‘lanishlarni yaratish inklyuziv ta’limning asosiy muammolarini hal etishga xizmat qiladi.

G. Inklyuziv ta’limni tan olish faqatgina qonun chiqarish bilan emas, balki diskriminatsiyaga qarshi aholi o‘rtasida targ‘ibat-tashviqot ishlarini olib borish eng birinchi galdagi masaladir.

*D. barcha javoblar to‘g‘ri

**5. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim hamma uchun” dasturi qachon ishlab chiqilgan?**

*A. 2003 yilda

B. 2001 yilda

G. 2002 yilda

D. 2004 yilda

6. **Maktablarning darsliklar, uslubiy qo‘llanmalar, dasturlarga ehtiyojini aniqlab, mazkur adabiyotlarni yetkazib berish, darsliklar mazmunini takomillashtirish qaysi yillarni o‘z ichiga oladi.**

*A. 2003-2005 yillar

B.2003-2006 yillar

G. 2003-2007 yillar

D.2003-2004 yillar

7. **O‘zbekistonning integratsiyalashgan (inklyuziv) ta’lim sohasidagi siyosati yosh fuqarolarning ta’lim olishlari uchun optimal sharoitlar yaratilishiga qaratiladi va quyidagi qaysi maqsadlar bajarilishiga yo‘naltiriladi?**

A.Bolaning o‘ziga xos ta’limga ehtiyojlarini mumkin qadar erta (hayotining dastlabki oylaridan) aniqlash; imkoniyatlari cheklangan shaxslarning o‘ziga xos ta’lim ehtiyojlarini qondirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

B.O‘ziga xos ta’lim ehtiyojlari mavjud bolalarning barchasini ta’limga jalb etish; inklyuziv ta’lim muhitida ishlayotgan pedagoglarga malakali uslubiy yordam ko‘rsatish va rag‘batlantirish;

G.Imkoniyatlari cheklangan bolalarni sog‘lom tengdoshlari qatoriga integratsiyalash uchun sharoitlar yaratish; uyg‘un rivojlangan avlodni tarbiyalashga qaratilgan davlat siyosatini ta’lim vositalari yordamida qo‘llab-quvvatlash;

*D. Barcha javoblar to‘g‘ri

8. **Inklyuziv ta’limga kiritishning asosiy tamoyillari nechta?**

A. 5 ta

B.6 ta

G.7 ta

D. 4 ta

**9. Inklyuziv ma’nosi nima?**

- A.ingliz tilidan olingan bo‘lib, inclusive, inclusion–uyg‘unlashmoq, uyg‘unlashtirish, qamrab olmoq, qamrab olish

B.ingliz tilidan olingan bo‘lib, inclusive, inclusion–nogironlik, yordam bermoq, qamrab olmoq, qamrab olish

G. ingliz tilidan olingan bo‘lib, inclusive, inclusion–maxsus ta’lim, qamrab olmoq, yordam bermoq

D.ingliz tilidan olingan bo‘lib, inclusive, inclusion–korreksion ishlarni olib bormoq

**10. O‘zbekiston Respublikasida inklyuziv ta’limning joriy etilishi uchun asos bo‘lib hisoblangan "Sog‘lom avlod" davlat dasturi nechanchi yil bajarilgan?**

A.1996

- B.2000

G.2001

D.2005

**Adabiyotlar:**

1. R. Sh. Shomaxmudova. "Maxsus va inklyuziv ta’lim" uslubiy qo‘llanma. Toshkent-2011 yil.

2. L.R.Muminova. Inklyuziv ta’lim. Toshkent- 2014 yil.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1.Ture Yonsson. . Inklyuziv ta’lim. Toshkent -2003.

## 3- mavzu: Ayrim toifadagi bolalarning psixik rivojlanish xususiyatlari haqida ma’lumotlarning yetarli darajada emasligi

Mamlakatimizda so‘nggi yillar mobaynida maktabgacha ta’lim tizimini isloh qilish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Sog‘lom va har tomonlama rivojlangan avlodning shakllanishini ta’minlashga qaratilgan samarali maktabgacha ta’lim tizimini tashkil qilish bo‘yicha qabul qilingan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentyabrdagi «Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3261-son qarorida maktabgacha yoshdagi bolalarni uyg‘un rivojlantirish hamda sifatli maktabgacha ta’limni tashkil etish bo‘yicha vazifalar belgilangan. Shuningdek, globallashuv davrida maktabgacha ta’lim sohasidagi muhim vazifalarni quyidagicha talqin qilish mumkin: – rivojlangan davlatlar darajasidagi ta’limni joriy etish; – ta’lim muassasalari va ta’limiy xizmat iste’molchilari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish; – iste’molchi va ta’lim muassasasi o‘rtasidagi raqobatbardoshlikni yanada kuchaytirish; – bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashning samarali yo‘llarini aniqlash; – bola tarbiyasiga ijtimoiy jamoatchilikni jalb etish. Yuqorida keltirilgan vazifalarning mantiqiy davomi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi PQ-4312-sonli qarori bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi»1da maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatini, shuningdek, bolaning rivojlanishi va

uning umumiy boshlang‘ich ta’limga tayyorligini kompleks baholashning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish nazarda tutilgan. Maktabgacha ta’limni modernizatsiyalash yo‘lida jadal ravishda amaliy faoliyat olib borilmoqda. Binobarin, maktabgacha yoshdagi bolalar ta’limtarbiyasiga oid ilmiy-metodik asoslar ishlab 1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi «O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PQ-4312-sonli qarori. chiqildi, jahon standarti darajasida yangi mazmun va yo‘nalishda faoliyat yurituvchi maktabgacha ta’lim tizimi takomillashtirildi. Biroq bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash borasida aniq tizimlashtirilgan jarayon tashkil etilmagan. Maqsad. Muammoni nazariy va amaliy o‘rganish respublika miqyosida bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash samaradorligini takomillashtirish masalasi maxsus tadqiq etilmaganligi sababli tadqiqot yo‘nalishi sifatida «Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashning samarali texnologiyalari» mavzusi tanlandi. Tadqiqot ishimizning maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashning samarali texnologiyalari, zamonaviy talablar, uning sifat va samaradorligini belgilovchi mezonlar hamda omillarni aniqlash orqali ilmiy metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Mavzuga oid izlanishlar tahlili. Bolalarni maktab ta’limiga har tomonlama tayyorlashda tarbiyachilardan pedagogik bilimdonlik va mahorat talab etiladi. Shu sababli ta’lim-tarbiya jarayonida tarbiyachi-pedagoglar Sharq va G‘arb olimlarining pedagogik g‘oyalaridan foydalanishlari maqsadga muvofiqdir. Chunki ular tomonidan yaratilgan nazariyalarda maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga oid batafsil ma’lumotlar yoritib berilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishiga doir manbalarni o‘rganib, tahlil qilib tarixda yaratilgan pedagogik-psixologik nazariyalar bugungi kungacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganligiga amin bo‘ldik. Darhaqiqat, qadimgi Yunonistonda buyuk faylasuflar tomonidan bola psixikasi va rivojlanishi bo‘yicha ilmiy qarashlar ilgari surilgan. Taniqli faylasuf Geraklit bola qalbi dastlab «nam va ho‘l» bo‘ladi, astasekin «olov»ga aylana boradi, degan fikrni bildiradi. Bola ta’lim-tarbiya ta’sirida fikrlash, mulohaza qilishga o‘rganadi va unda tafakkur qilish layoqati paydo bo‘ladi. Geraklit ilk bora bolada nafaqat qalb rivojlanishi haqida fikr bildiradi, u rivojlanishni tafakkur bilan bog‘laydi, psixik rivojlanish bilan intellektual rivojlanishni solishtirib ularni tenglashtiradi. Psixik rivojlanish nazariyasiga ko‘ra bola shaxsining shakllanishi hissiy va irodaviy sifatlar hamda intellektning rivojlanishi natijasida ro‘y beradi1. Maktabgacha ta’lim jarayonida bolalarga aqliy tarbiya berish bilan birga ularni irodaviy-hissiy jihatdan ham maktab ta’limiga tayyorlash lozim. Bolalar maktab ta’limiga qadam tashlar ekanlar, ularda shaxsiy sifatlar, o‘z-o‘zini anglash va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalari ham shakllantirilib boriladi. Bola shaxsining rivojlanishi hamda unda axloqiy, ijtimoiy xulq shakllanishi yunon olimi Protagor tomonidan asoslangan. Uning fikricha, jamiyatda yaxshilik va yomonlik, ezgulik va johillik tushunchasi mavjud. Shuning uchun bola shaxsiga ta’sir ko‘rsatish, muloqotni axloqiy mazmunda olib borish, hayotiy qiyinchiliklarni yenga olish

ko‘nikma va malakalarini shakllantirish lozim. Bunday ta’sirdan maqsad, uning fikricha, nafaqat insonda axloqiy me’yorlarni takomillashtirish, balki u yashayotgan ijtimoiy sharoitlarga moslashishiga yordam berishdan iborat. Uning qarashicha, bola ruhiyatining tabiiy rivojlanishi uchun maqsadsiz yo‘naltirilgan ijtimoiy ta’sir uning ijtimoiylashuviga yordam bermaydi. Mana shu davrda qadimgi Yunonistonda «Bolaning ijtimoiy faol va moslashuvchan bo‘lib shakllanishiga qanday qulay sharoitlar zarur?» degan savol qo‘yilgan edi. Protagor ijtimoiy moslashuv uchun tashqi ta’sir zarurligini, ya’ni bolaga ta’lim berishda boshqalar tomonidan ta’sir ko‘rsatish usulini ma’qullaydi. Yunonistonda bolaga ta’sir ko‘rsatishning eng qulay usuli notiqlik san’ati hisoblangan. Odamlarga so‘z orqali ta’sir ko‘rsatish, ularni qiziqtirish va o‘z fikriga ishontirish mumkin. Protagor bola tarbiyasida notiqlik san’ati orqali o‘qitish asosiy o‘rinda turadi, deydi. Rim va Yunoniston olimlari so‘z va nutq boyligiga ega insonlar jamiyatda o‘z o‘rnini topishi oson bo‘lishini ilgari suradilar. Notiqliq san’ati iqtidor mezonlari bilan bog‘liq ekanligini asoslaydilar. Protagor o‘qish va mashq orqali inson axloqiy jihatdan takomillashadi va jamiyatga loyiq fuqaro bo‘la oladi. degan g‘oyani asoslaydi2. Darhaqiqat, maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablarining «Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari» sohasida ham bolada nutq va tilni rivojlantirish bo‘yicha ko‘rsatkichlar berilgan. Mazkur soha bo‘yicha o‘quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetganidan so‘ng 6-7 yoshli bola:

- nutqni eshitadi va tushunadi;
- o‘z nutqida to‘g‘ri talaffuz, qulay grammatik shakllar va xilma-xil gap konstruksiyalaridan foydalanadi;
- ikkinchi tilni o‘rganishga qiziqish namoyon qiladi;
- ikkinchi tilni egallash bo‘yicha dastlabki bilimlarini ko‘rsatadi;
- badiiy adabiyot asarlariga qiziqish namoyon qiladi;
- so‘zning lug‘aviy, bo‘g‘inli va fonetik tuzilishi to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘ladi;
- turli ma’no shakllarini mustaqil ravishda tuzish va so‘zlab berishni biladi, yozishning dastlabki malakalari va vositalaridan foydalanishni biladi3. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda yunon olimlari tomonidan keltirilgan pedagogik g‘oyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, Demokrit bilish jarayonini ikki pog‘ona – sezgi va tafakkurdan iborat,deydi. Ular bir vaqtda paydo bo‘ladi va rivojlanadi. Shuning uchun tafakkur orqali ko‘proq ma’lumotga ega bo‘lamiz. Biz sezgi orqali atomlarni ko‘ra olmaymiz, lekin fikrlash yo‘llari orqali ular haqida xulosa chiqaramiz. Demokritning fikricha, tarbiya insonga uch narsani berishi kerak: yaxshi fikrlash; yaxshi so‘zlash; yaxshi bajarish. Yunonistondagi yetakchi olimlarning barchasi ma’naviy rivojlanish bolaning psixik

rivojlanishining asosi ekanligini tasdiqlaydilar, jumladan, Demokrit ham. Olim axloqiy tamoyillar insonga 2 O'sha joyda, 8-b. 3 «Ilk qadam» maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018 yil 7 iyuldagi 4-sonli hay'at yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan. tug'ilishidan berilmaydi, balki tarbiya natijasi ekanligi haqida fikr bildiradi1. Taniqli arab olimi Ibn Rushdning fikricha, organizm va sezgi, hislar, fikrlash o'rtasida bog'liqlik bo'lib, inson qalbidagi o'ziga xos odatdagi jarayonlarni o'z boshidan o'tkazadi. Shifokor sifatida Ibn Rushd inson tanasi va sezgi a'zolarini o'rganib, atrofolamni idrok etish bevosita asab tizimi xususiyatiga bog'liqligini ko'rsatadi2. Fransuz psixologi va faylasufi Rene Dekart inson ongi mazmunini o'rganib, quyidagi xulosaga keladi. G'oyalar mavjudligiga ko'ra uchta turga bo'linadi: natija va oqibatga ko'ra paydo bo'ladigan; tayyor g'oyalar; tug'ma va tabiiy g'oyalar. Natija va oqibatga ko'ra paydo bo'ladigan g'oyalar hissiy tajribalar bilan bog'liq bo'lib, sezgi a'zolarimizning umumiy holatidan kelib chiqadi. Bu g'oyalarni bola mustaqil ravishda o'z tajribalarini tahlil qilishi natijasida oladi. Bu g'oyalar alohida narsa va buyumlar, hodisalar haqida bilim beradi, lekin atrof-olam haqidagi ob'ektiv qoidalarni anglashiga yordam bermaydi. Tug'ma va tabiiy g'oyalar insonga atrof-olam, borliq hamda uning rivojlanish qonuniyatlari haqidagi bilimlarni beradi3. B.Spinoza insonning yaxlitligi o'zaro ma'naviy va jismoniy jihatdan bog'liq emas, atrof-olamni anglash asosi bo'lib xizmat qiladi. degan g'oyani bildiradi. Dekart va Spinoza voqelikni bilishni bevosita haqiqatga erishish bilan amalga oshiriluvchi alohida usul va aqliy sezgirlik yetakchi hisoblanishini ilgari suradi. Intiutsiya buyumlarning mavjud holati, xususiyati va vaziyatlarni anglash kabi umumiy tushunchaga olib keladi. Inson o'zini anglasa, atrof-olamni ham anglaydi, qalb va ruhiyat, inson tanasidagi qoidalar bir xil kechadi. Spinoza bilish jarayonini tahlil qilib, uni quyidagi pog'onaga ajratadi: 1. Qarashlar, fikr va mulohaza yuritish - sub'ektning hissiy tajribalari asosida buyum va narsalar haqidagi bilimlari. Aql va zakovat-mantiqiy fikrlash asosida paydo bo'ladigan umumiy tushunchalar. Dj.Lokk fikricha, bola psixikasi faqat hayoti davomida shakllanadi. U tarbiyaga alohida ahamiyat qaratadi. Katta odamlardagi bilim va g'oyalar tayyor holda ularga berilmagan, u tarbiyaning natijasi bo'lib, bolaga katta odamlarning intellektual va ma'naviy munosabati natijasida shakllanadi. Lokk insondagi barcha bilimlar hissiy tajriba asosida yig'iladi, degan xulosaga keladi. U hissiy tajribani ikkita turga bo'ladi: refleksiya va sezgi. Ikkala jarayon ham tashqi olam haqidagi bilimlarning asosi bo'lib xizmat qiladi. Sezgi nafaqat anglashning birinchi bosqichi emas, tashqi olam haqidagi bilimlarni kashf qilishning yagona yo'li, inson bilan bog'lanuvchi yagona kanal hisoblanadi. Insonning sezgi a'zolari narsa va buyumlar, atrofimizdagi odamlar haqida batafsil ma'lumot beradi. Lokk asosladiki, narsa va buyumlar turlari haqidagi bilimlar, tabiatning umumiy qoidalari axloqiylik, mantiqiy operatsiyalar natijasi hisoblanadi, tajribalar orqali yetkaziladigan bilimlarni umumlashtirishdir. David Gartli ingliz psixologi psixikaning hayot davomida shakllanishida tarbiyaning imkoniyatlari, bolaning psixik rivojlanish jarayoniga ta'sir ko'rsatish haqiqatan ham

chegaralanmagan, deb hisoblaydi. Inson psixikasi rivojlanishi va xulq-atvori shakllanishi bilimlarni o‘xshatish orqali o‘zlashtirishdan bola tarbiyasida foydalanish lozim. Chunki ularning kelajagi atrofdagilar bolaga nimalar haqida yetkazayotganligiga bog‘liq. Shuning uchun bolaning qanday o‘sishi, qanday fikrlashi va hatti-harakati faqatgina kattalarga bog‘liqdir4. Jan-Jak Russo bolaning psixik tabiati haqida «Emil yoki tarbiya haqida» nomli buyuk asarida ilmiy qarashlarini ifodalaydi. Insonning ichki olamini har tomonlama yetuk va tabiiy holda rivojlantirish zarurligini tasdiqlaydi. U psixik rivojlanishni davrlarga ajratib berdi. Birinchi davr - tug‘ilgandan 2 yoshgacha, bu davrda bolaning jismoniy rivojlanishini ta’minlash lozimligini aytadi. Bu yoshda nutq 4 xali rivojlanmagan bo‘ladi, shuning uchun unga qarshi bo‘ladi. Ikkinchi davr - 2 yoshdan 12 yoshgacha, bolani sensor rivojlantirish zarurligini asoslaydi. Uning fikricha, sezgining rivojlanishi tafakkur rivojlanishiga asos bo‘ladi. Tizimli o‘qitish 12 yoshdan boshlanishi kerak, degan g‘oyani ilgari suradi. Uchinchi davr - 12-15 yosh, maqsadga yo‘naltirilgan ta’lim beriladi. Bu yoshda bolalar taklif etilayotgan bilimlarni to‘g‘ri o‘zlashtiradi. Bu yoshda beriladigan bilimlar tabiiy va aniq fanlar bilan bog‘liq bo‘lishi zarur. Ijtimoiy va ma’naviy rivojlanishi keyinroq amalga oshirilishi mumkinligini ko‘rsatadi. To‘rtinchi davr - 15 yoshdan balog‘atga yetgunga qadar. Aniq hayotiy tajribalar yig‘ilganda hissiyotlarning rivojlanishi ro‘y beradi. Bu yoshda bolalar ehtirosli bo‘ladilar. Ularda ijobiy hislar, irodaviy sifatlarni shakllantirish lozim1. G.S.Xollning shogirdi Getchinson psixik rivojlanishni beshta fazaga ajratadi. 1. Tug‘ilgandan 5 yoshgacha - titkilash va kovlash davri. Bu bosqichda bolalar qumda o‘ynashni yaxshi ko‘radilar. Turli mayda manipulyativ o‘yinchoqlarni o‘ynashga qiziqadilar. 2. 5 yoshdan 11 yoshgacha - ushlash va ovlash davri. Bunda bolalar begonalardan qo‘rqadilar, ularda agressivlik paydo bo‘ladi, berahm bo‘ladilar, kattalar oldida faxrlanish kuchli bo‘ladi. Yashirincha ishlar qilishga harakat qiladilar. 3. 8-12 yoshgacha - bu yoshda bolalar o‘zlarining shaxsiy burchagi bo‘lishini istaydilar. Uy hayvonlarini yaxshi ko‘radilar, ularni boqadilar. Qizlar bu yoshda yoqimtoy va muloyim bo‘lishga intiladilar. 4. 11-15 yosh – tabiat, tabiat hodisalariga qiziqadilar. O‘g‘il bolalar bog‘dorchilik, qizlar esa gullarni parvarishlashga qiziqadilar. Bu yoshda bolalarda kuzatuvchanlik va ehtiyotkorlik paydo bo‘ladi. zamonaviy inson bo‘lishga intiladilar. Savdoga qiziqadilar, pulning o‘rni va ahamiyatini biladilar2. Shveysariyalik psixolog olim Eduard Klapared bolaning psixik rivojlanishida o‘yinning ahamiyati katta ekanligini uqtiradi. O‘yinlarni quyidagi turlarga ajratadi: bolalarning individual xususiyatini rivojlantiruvchi o‘yinlar; intellektual o‘yinlar (bilish qobiliyatini rivojlantiruvchi); affektiv o‘yinlar (hissiyotni rivojlantiruvchi). Klaparedning ilmiy izlanuvchanligi tafakkur va uning bola rivojlanishidagi bosqichlarini o‘rganishga qaratilgan. U tafakkurni psixik rivojlanish bilan taqqosladi va davrlarga ajratdi. U psixik rivojlanishni 4 ta bosqichga bo‘ldi:

● tug‘ilgandan 2 yoshgacha - bu bosqichda bolalar narsa va buyumlarning tashqi ko‘rinishiga qiziqadilar. Chunki intellekutal rivojlanish idrok rivojlanishi bilan bog‘liqdir;

● 2 yoshdan 3 yoshgacha - bu bosqichda bolalarda nutq rivojlanadi va bilishga qiziqish mujassamlashadi va so‘zlar bilan ifodalanadi;

● 3-7 yoshgacha bolalar - intellekt hamda tafakkur rivojlanadi va umumiy qiziqishlar ortib boradi;

● 7-12 yosh bolalarda individual xususiyat va qobiliyatlar paydo bo‘la boshlaydi, ularda intellektual rivojlanish ob’ektiv maxsus qiziqishlar bilan uzviy bog‘lanadi. Klapared bolalarda intellektual muhitni tadqiq qilib, bola tafakkuridagi eng asosiy xususiyatni aniqladi, ya’ni sinkretizm - olam haqidagi bolalarning tasavvurlari shakllanishini aytadi. Uning fikricha, psixik rivojlanish buyumlarning tashqi ko‘rinishi va nomini o‘rganishni, keyin uni belgisini tushunish, mantiqiy tafakkurni rivojlanganligi natijasida ro‘y beradi. Vilyam Shtern bola avval predmetni butun xolicha tushunadi, keyin esa qismlarini qo‘shish va butun olamni tushuna boshlaydi, deydi. Fransuz psixologi Alfred Bine bolalarda intellektning rivojlanish darajasini o‘rgandi. Bolalarda tafakkurning rivojlanish bosqichlarini tajribadan o‘tkazdi. Ularga aniq tushunchadan iborat vazifalarni berdi. Masalan: stul nima? ot nima? o‘simlik nima? kabi savollar berdi. 3-7 yoshdagi bolalar javobni umumlashtirib, shu vaqtning o‘zida tushuncha rivojlanishining uchta bosqichini o‘taydi: 1. Sanab chiqish. 2. Tavsiflash. 3. Interpretatsiya-sharhlash, izohlash, tushuntirib berish. U bu tadqiqot natijasida bolalarning intellektual rivojlanish me’yorlari, ularda tafakkurning shakllanish jarayonlarining diagnostika qilish metodlarini ishlab chiqish zarur, degan xulosaga keladi. A.L.Gezell tug‘ilgandan 3 yoshgacha bolalarning psixik rivojlanishini tadqiq qilgan. U izlanishlari natijasida 3 yoshgacha bola psixik jihatdan juda tez rivojlanadi, keyin asta-sekin rivojlanishi sustlashadi, degan xulosaga keladi. Shu asosda psixik rivojlanishni uchta davrga ajratdi: tug‘ilgandan – 1 yoshgacha; 1-3 yoshgacha; 3-18 yoshgacha. Birinchi davrda psixika yuqori sur’atda, ikkinchisida o‘rta, uchinchisida past darajada rivojlanadi. Nemis psixologi Vilyam Shtern bola shaxsi rivojlanishini tahlil qilgan. Psixik rivojlanish - o‘zini rivojlantirish, o‘zini rivojlantirishni avjga chiqarish, bolaning yashayotgan muhitga moslashishidir. Bu nazariya konvergensiya nazariyasi deb ataladi, unda psixik rivojlanishda ikkita omil rol o‘ynaydi - irsiyat va muhit. Ikki omilning ta’sirini tahlil qilib, bolalarning asosiy faoliyat turlaridan biri – o‘yin psixik rivojlanishda asosiy omil ekanligini tasdiqladi1. Karl Byuller psixik rivojlanishni uchta bosqichga ajratadi: 1. Instinkt - avval harakat ro‘y beradi, keyin esa undan qoniqish hosil qiladi. Masalan: qurbaqa avval pashshaga sakraydi, uni yutadi, keyin ozuqadan qoniqish hosil qiladi. 2. Dressura (shartli reflekslar) - faoliyat va qoniqish parallel ravishda davom etadi. Kuchuk chambarakdan sakrab o‘tadi, keyin esa mukofotiga konfet oladi. 3. Intellekt (muammoli vaziyatlarni anglash tushunib

yetish) – bu bosqichda muhitga moslashish imkoniyati yaratiladi, intellektual faoliyatda bola qanday qoniqish olganligini tasavvur qila oladi. Masalan: qanday huzur-halovat hosil qiladi, konfet olishi yoki bu faoliyat boshlangunga qadar do‘sti bilan muloqot qilishi2. Z.Freyd fikricha bola psixikasining rivojlanishida, uning atrof-muhitga moslashishida ko‘pincha yomon muhit ham ta’sir ko‘rsatadi3. Mamlakatimizdagi olimlardan M.Zufarova 7 yoshli bolalarning psixologik jihatdan maktab ta’limiga tayyorligini aniqlash, bunda bolalarning psixik protsess va xususiyatlari, imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta’limni ratsional tashkil qilish yo‘llarini belgilash, ta’limni o‘zlashtirish qanday ixtiyoriy faollikni talab qiladi va bu ixtiyoriy faollik diqqat, idrok, xotira, tafakkur va nutq jarayonlarida qanday vujudga keladi, hamda uni qanday qilib faollashtirish mumkin, degan masalalarni asoslab bergan4. G.Djanpeisova tomonidan maktabgacha katta yoshdagi bolalarda elementar geometrik tasavvurlarni shakllantirishning metodik asoslari ishlab chiqilgan5. N.Raxmonqulova o‘z tadqiqot ishida shaxsni rivojlantiruvchi ta’lim konsepsiyasi asosida o‘quv-tarbiya jarayonida quyidagi tamoyillarga rioya etish lozimligini asoslangan: o‘ziga xoslik, har bir bolaning o‘ziga xos noyob sifatlari, individual yondashuv, o‘quv-tarbiya jarayoni bolalarning maksimal rivojlanishiga yo‘naltiriladi. Shaxsning o‘ziga xosligi tamoyili o‘quv-tarbiya jarayonini eng yuqori darajada individuallashu2 Zini tug‘diradi, yaratadi, keltirib chiqaradi. Ya’ni o‘quv reja va o‘quv dasturlarning moslashuvchan variativ shaklini amalga oshirishni taqozo etadi1. K.Qodirov bugungi kunda maktabda ta’lim olishga psixologik tayyorlik darajasining tarkibiy qismlari sifatida shaxs nuqtai nazaridan hamda aqliy va ijtimoiy jihatdan yetilganlik darajasining birligidan iboratligini ilmiy asoslab beradi. Shaxs nuqtai nazaridan yetuklik deganda, umuman olganda, bolaning yangi bir ijtimoiy bosqichga o‘tishi bilan bog‘liq ravishda maktab hayotiga, ya’ni o‘quv faoliyati, o‘qituvchi va o‘ziga bo‘lgan ichki munosabatlari tushuniladi. Maktab ta’limining samarali amalga oshirilishi uchun bolada hissiy barqarorlik nisbatan yaxshi shakllangan bo‘lishi darkor2. Maqolaning ilmiy yangiligi maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda ularning psixik rivojlanishiga oid ilmiy nazariyalardan samarali foydalanish yo‘llarini aniqlash hamda tarbiyachilarga bolalar bilan individual va yosh xususiyatiga ko‘ra yondashish uslublaridan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar berish. Bolaning atrofidagi insonlar bilan turli xil munosabatda bo‘lishining asosida turli xil motivlar yotadi. Bularning barchasi bolaning individual xususiyatidan kelib chiqib, uni boshqa bolalardan nafaqat intellekti, balki axloqiy motivatsion jihatdan farqlanadigan shaxsga aylantiradi. Tadqiqotimizning ob’ekti maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash jarayonidan iborat. Tadqiqotda qo‘llanilgan usullar: maktabgacha ta’lim o‘quv jarayonlari kuzatiladi, bolalar, tarbiyachi va ota-onalar bilan suhbat va anketa so‘rovnomalari o‘tkaziladi, tajriba-sinov vositasida loyihalashtirilgan mashg‘ulot ishlanmalari texnologiyalari samarasi aniqlanadi, tadqiqot natijalari umumlashtiriladi. Natijalar va amaliy misollar: o‘rganilgan adabiyotlar va kuzatuvlarimizning ko‘rsatishicha, bolaning maktab ta’limiga mukammal

tayyorligiga to‘sqinlik qiladigan tashqi va ichki omillarning ta’siri nafaqat jismoniy va ruhiy rivojlanishiga ta’sir qiladi, balki u har qanday salbiy ta’sir xoh u jismoniy, xoh ruhiy bo‘lsin, avvalo uning umumiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli bolalarning ijtimoiy-madaniy, jismoniy va ruhiy rivojlanishiga avvalo ota-onalar, tarbiyachi-pedagoglar mas’uliyat bilan yondashishlari lozim. Maktabgacha ta’lim-tarbiya jarayonida tashkil etiladigan muhit ham bola uchun qiziqarli va yoqimli bo‘lishi lozim. Agarda oilada ijtimoiy-madaniy muhit yaxshi bo‘lmasa, bola ham jismoniy, ham ruhiy jihatdan rivojlanishda orqada qoladi. Hattoki bolaning sog‘lom oziqlanmasligi jismoniy rivojlanish bilan birga psixik taraqqiyotida ham kamchiliklarni vujudga keltiradi. Bolalar bilan o‘tkazilgan suhbat natijalari ijtimoiy va motivatsion tayyorlik o‘zaro uyg‘unlikda rivojlanishi, shuningdek, irodaviy sifatlar ham bevosita ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Xulosa va takliflar. Yuqorida keltirilgan mulohazalardan kelib chiqib, maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berish mazmuni quyidagilardan iborat bo‘lishi lozim degan xulosaga kelishimiz mumkin: 1. Bolaning rivojlanish jarayonida atrofidagi predmet va hodisalar olami bilan munosabatga kirishishga yo‘naltirish. 2. Bolalarda aynan mana shu davrda mehnat va madaniy malakalarni shakllantirish, nutq va muloqotni rivojlantirish, ijtimoiy axloq va estetik tuyg‘ularning dastlabki kurtaklarini hosil qilish. 3. Bolalarning psixik rivojlanishida qiziqishning roli katta ekanligini inobatga olgan holda, ularni biror faoliyatga undash, vaholanki qiziqish bu ehtiyoj kabidir. 4. Bolalarni o‘yin faoliyati orqali amaliy harakatlar bajarishini ta’minlash hamda ko‘nikmalarni shakllantirish. 5. 3-7 yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishida badiiy-ijodiy faoliyat turlaridan biri bo‘lgan musiqaviy ta’limni samarali tashkil etish. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkurni rivojlantirish va natijada mustaqil fikrlash, o‘z-o‘zini anglash malakalarini shakllantirish. 7. Bolalarda ma’naviy hissiyotlar o‘rtoqlik, do‘stlik va jamoachilik hislarini tarbiyalash. Maktabgacha ta’limda sifatli ta’lim-tarbiyani tashkil etishda tarbiyachilardan yuksak pedagogik mahorat talab etiladi va ularga ushbu tavsiyalarga amal qilishlari lozimligini taklif etamiz: – bola bilan munosabatda og‘ir vazmin va bosiq bo‘lish; – bolada atrof-olam haqidagi tasavvurlarni shakllantirishda integratsion yondashuvni amalga oshirish; – mashg‘ulotlarda zamonaviy texnologiyalarni samarali qo‘llash; – bolalarda mantiqiy fikrlash bilan birga ijodkorlik imkoniyatlarini shakllantirish; – bolalarda nutq va tafakkur hamda fazoviy tasavvurlarni rivojlantiruvchi didaktik o‘yin va mashqlardan foydalanish.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi «O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PQ-4312-sonli qarori.

2. «Ilk qadam» Maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat o‘quv dasturi. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining 2018 yil 7 iyuldagi 4-sonli hay’at yig‘ilishi qarori bilan tasdiqlangan. - T., 2018. -59-b.

3. Baranova E.A. Vvedenie v detskuyu psixologiyu: Kurs leksiy. Uchebnoe posobie. - Sankt-Peterburg: «Rech», 2006. 4. Galustova O.V. Shpargalka po istorii psixologii: ucheb. posobie. - M.: TK «Velbi», 2005. -S. 48.

5. Djanpeisova G. Maktabgacha yoshdagi katta guruh bolalarida elementar geometrik tasavvurlarni shakllantirish. 10.00.02-Matematika o‘qitish metodikasi va nazariyasi.p.f.n. diss. - T., 2005.

6. Jdan A.N. Istoriya psixologii: Uchebnik. - M.: Izd-vo MGU, 1990. -S. 367. 7. Zufarova M. Yetti yoshli bolalarning psixologik jihatdan maktab ta’limiga tayyorligi. Ps.f. kandidati ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. - T., 1969. -S. 215.

8. Marsinkovskaya T.D. Istoriya detskoy psixologii: Uchebnik dlya stud. ped. vuzov. - M.: Gumanit. izd. sentr «VLADOS», 1998. -S. 272.

9. Nemov R.S. Prakticheskaya psixologiya: Poznanie sebya. Vliyanie na lyudey: Posobie dlya uchaщixsya. - M.: Gumanit.izd. sentr «VLADOS», 1998.

10. Raxmonqulova N.X. Teoriya i praktika adaptivnogo obucheniya doshkolnikov i mladshix shkolnikov. 13.00.03-Spesialnoe pedagogika d.p.n. diss. - T., 2009. -S. 271.

11. Stadnichuk B. Sokrat: uchitel, filosof, voin. - M.: «Litagent», 2015.

12. Sagadeev A.V. Ibn-Rushd (Averroes). - M.: «Mыsl»,1973. -S. 207.

13. Freyd Z. Psixologiya «Ya» i zaщitnыe mexanizmы lichnosti. - M.: «PedagogikaPress», 1993.

14. Shapovalenko I.V. Vozrastnaya psixologiya. (Psixologiya razvitiya i vozrastnaya psixologiya). - M.: «Gardariki», 2005. -S. 349.

15. Elkonin D.B. Psixologiya igrы. 2-ye izd. - M.: Gumanit. izd. sentr «VLADOS», 1999.

## 4- mavzu: Rivojlanishda nuqsonlari bo‘lgan o‘smirlar va yoshlarning ijtimoiy moslashuvi va kasbiy tayyorgarligi muammosi bugungi kunda ham dolzarbdir

## Reja:

1. **O‘zbekiston respublikasda kasbga yo‘naltirish ishlarining tizimi va bosqichlari**
2. **Maxsus ta’limda kasbga yo‘naltirish ishlarining tuzilmasi va mazmuni**

Amaliy va ijtimoiy sheriklik tomonlari sifatida, fan va ishlab chiqarishning ishtiroki bilan kasb-hunar ta’limi hamda kadrlar tayyorlashni rivojlantirish strategiyasining asosiy yo‘nalishlari kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan. Biroq, kasb-hunar ta’limiga ijtimoiy sheriklarni jalb qilishning real mexanizmi hali ishlab chiqilmagan. Ish beruvchilar bilan hunar ta’limi tizimi boshqaruv organlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabat davlat darajasida qonun yo‘li bilan mustahkamlangan. Tadbirkorlar, ayniqsa kichik korxonalar avvalo bozorda o‘zlarining tovarlarini raqobatbardoshligini oshirishga intilmoqdalar. Ular kadrlar tayyorlashda ishtirok etishdan manfaatdor emaslar, sababi ular asosan davlat ta’lim tizimidan tayyor xodimlarni oladilar. Bundan tashqari ko‘pchilik korxonalar o‘zlarining xodimlarini tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun yetarli mablag‘ga ega emaslar. To‘lov asosida, ya’ni buyurtmachi kadrlar tayyorlashga to‘la yoki qisman pul to‘lashi ko‘zda tutiladigan shartnomalar tuzish hali keng tarqalmagan. Shunday qilib, ishlab chiqaruvchilarni kadrlar tayyorlash ishiga jalb qilishni sekinlatadigan sabablardan biri, bu masala bo‘yicha me’yoriy-qonuniy bazaning mavjud emasligi hisoblanadi. Kadrlar tayyorlashga mablag‘ sarflaydigan korxonalar uchun soliq to‘lashdagi mavjud imtiyozlar kam samaralidir. Kadrlar tayyorlashning tashkiliy jihatdan ta’minlanishi quyidagi asosiy yo‘nalishlarni qamrab oladi: - me’yoriy-qonuniy; - moddiy-texnik; - o‘quv-metodik; - kadrlar. 5 Me’yoriy-qonuniy ta’minlash kasb-hunar ta’limi faoliyat ko‘rsatishining asosiy negizi hisoblanadi. Islohot davrida bu yo‘nalish hammasidan ko‘ra ko‘proq qayta ko‘rib chiqishga va o‘zgartirishlarga duchor bo‘lgan. Shu bilan birga, davr talabiga mos keladigan, muvaffaqiyatli qonunlar islohotlari nisbatan bazalar va muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beradi. O‘zbekistonda kasb-hunar ta’limini tashkil etishning tartibga soluvchi asosiy qonuniy hujjatlar ishlab chiqilgan. O‘quv-moddiy baza. Kasb-hunar ta’limining o‘quv-moddiy bazasi avvalo ta’lim muassasalari tarmoqlarini o‘z ichiga oladi. 1997 yilning oxirida respublikada xalq ta’limi Vazirligiga qarashli 442 ta hunar-texnika o‘quv yurtlari faoliyat ko‘rsatgan. 1998 yil mart oyidan ushbu o‘quv yurtlari o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi Markazi boshqaruviga berildi. Bugungi kunga kelib, mavjud o‘quv yurtlari negizida 35 ta yangi turdagi o‘quv yurtlari tashkil etildi, shu jumladan 22 ta kasb-hunar kollejlari va 13 akademik litseylar. Respublikada 2005-2006 o‘quv yili boshlanishiga 1800

akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarini o‘z ichiga olgan yangi ta’lim muassasalari tarmog‘ini yaratish vazifasi qo‘yilgan. Ularda 618200 o‘quvchi o‘rniga ega bo‘lgan 925 ob’ektlar yangi qurilish yo‘li bilan barpo etiladi. O‘quv-metodik ta’minlanishi. Respublika mustaqillikka erishgandan so‘ng shu bugungacha ta’lim tizimining barcha zvenolarida o‘quv dasturlari va darslarni isloh qilish bo‘yicha katta ishlar amalga oshirildi. Ko‘pgina gumanitar fanlar va iqtisodiy fanlarning ta’lim mazmuni qayta ko‘rib chiqildi. Kasb-hunar kollejlarida o‘quvchilarga tadbirkorlik sohasidagi bilimlarni singdirish maqsadida 90 soatlik dastur bo‘yicha “Bozor iqtisodiyoti asoslari va ishlab chiqarishni tashkil etish” nomli yangi o‘quv predmeti kiritildi. Shuningdek, o‘quv rejalari va dasturlar ishlab chiqildi, nashr etildi va ular asosida “menejer yordamchisi”, “referent”, “kichik va xususiy biznes uchun xisobchi” va shu kabi yangi ixtisosliklar bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash boshlandi. 6 Kadrlar tayyorlash Milliy dasturiga ko‘ra, kasb-hunar kollejlarida o‘qish muddati 3 yil. Buni hisobga olgan holda o‘quv vaqtining taqsimoti bilan namunali o‘quv rejasining modeli ishlab chiqildi. Bu tuzilmada umumiy ta’lim fanlariga 34,5% vaqt ajratildi, qolgan vaqt umumkasbiy va maxsus fanlar o‘rtasida taqsimlanadi, ularning hajmi va miqdori mutaxassisliklar murakkabligiga ko‘ra belgilanadi. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini rivojlantirish institutida yangi talablarga mos ravishda o‘quv rejalar va dasturlar ishlab chiqish boshlandi. Kadrlar bilan ta’minlash. Bugungi kunda kasb-hunar ta’limi muassasalarida 22 ming nafar muhandis-pedagoglar yoshlarga ta’lim va tarbiya berish bilan mashg‘uldirlar, shundan 5 ming nafarga yaqini umumta’lim fanlari o‘qituvchilari, 3 mingga yaqini umumtexnika va maxsus fanlar o‘qituvchilari va 10 mingdan ko‘prog‘i ishlab chiqarish ta’limi ustalaridir, qishloq joylarida va shahar tipidagi posyolkalarda istiqomat qiladigan davlat ta’lim muassasalari xodimlari o‘zlari yashaydigan davlat va idoralarga qarashli uylarni bepul xususiylashtirish kabi imtiyozlarga ega. O‘zbekistonda ta’limni boshqarish va nazorat qilish tizimi davlat xarakteriga ega. Bu jarayonga hamma bab-baravar, shuningdek hukumatning mahalliy organlari vakillari ham jalb etiladi. Ishbilarmon doiralar, jamoat tashkilotlari va fondlar ta’limni boshqarishda ishtirok etmaydilar. Ularning ishtiroki ta’limni moliyaviy va moddiy jihatdan ta’minlashga ma’lum darajada imkoniyat tug‘diradigan bo‘lar edi. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini boshqarish va nazorati respublika qonunlari belgilangan vakolat doirasida faoliyat ko‘rsatuvchi davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi. Bunday organlarga quyidagilar kiradi: - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi; - Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar mahkamasi; - O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi; 7 - O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi; - Qoraqalpog‘iston Respublikasi xalq ta’limi vazirligi; - Mahalliy davlat hokimiyati organlari; - Xalq ta’limi hududiy boshqarmalari; - O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi xududiy boshqarmalari. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta’lim sohasidagi vakolatlariga quyidagilar kiradi: - ta’lim sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish; - ta’lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlariga rahbarlik qilish; - ta’limni

rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish; - ta’lim muassasalarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibini belgilash; - ta’lim muassasalarini akkreditatsiyadan, pedagog, ilmiy kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazish tartibini belgilash; - boshqa davlatning ta’lim muassasalariga O‘zbekiston Respublikasining hududida ta’lim faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi ruxsatnomalar berish; - qonun xujjatlariga muvofiq xorijiy davlatlarning ta’lim to‘g‘risidagi hujjatlarini tan olish va bu hujjatlarning ekvivalent ekanligini qayd etish tartibini belgilash; - davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash; - davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma’lumot to‘g‘risidagi hujjatlarni tasdiqlash va ularni berish tartibini belgilash; - davlat grantlari miqdorini va ta’lim muassasalariga qabul qilish tartibini belgilash; - davlat oliy ta’lim muassasalari rektorlarini tayinlash; - ta’lim oluvchilarni akkreditatsiya qilingan bir ta’lim muassasasidan boshqasiga o‘tkazish tartibini belgilash; - qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar. 8 O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy – texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustivor soha – bu uzluksiz ta’lim bo‘lib, u kadrlar tayyorlash tizimining asosi hisoblanadi. Uzluksiz ta’lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma’naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi. Uzluksiz ta’lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta’lim standartlari asosida turli darajalardagi ta’lim dasturlarining izchilligi asosida ta’minlanadi va quyidagi ta’lim turlarini o‘z ichiga oladi: • maktabgacha ta’lim; • umumiy o‘rta ta’lim; • o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi; • oliy ta’lim; • oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim; • kadrlar malkasini oshirish va ularni qayta tayyorlash; • maktabdan tashqari ta’lim. Bu borada magistrantlar mazkur mavzu yuzasidan mavjud boshqa manbalardan foydalanib O‘zbekiston Respublikasida kasbga yo‘naltirish ishlarining tizimi va bosqichlariga xos qo‘shimcha ma’lumotlar bilan boyitib, chuqurlashtirib va kengaytirilgan holatda, “Kasbiy yo‘naltirishda mehnat resurslarini ishlatish ta’sirini kengaytirish omillari”ni ilmiy-pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi nuqtai nazaridan batafsil yoritishlari kerak. Keyin 8-9 sinflarga taaluqli materiallarda ta’riflangan mehnat resurslarini ishlatish texnologiyasi hamda ularni kasbiy yo‘naltirishdagi ta’sirini kuchaytirish holatlarini tahliliy izohlash maqsadga muvofiqdir. Pedagogik mahoratni kasbga yo‘naltirish ishlariga tadbiq qilishni ishlab chiqishlari lozim. 9 Tabiat va jamiyat hodisalari, ishlab chiqarish jarayonlari ko‘pincha shu qadar murakkabki, bularni bir ilm-fan doirasida tavsiflash mumkin emas. Maktabda o‘rganilayotgan ko‘pgina fakt va qonunlar o‘zaro bog‘liq holda aniq ro‘yobga chiqarilgan taqdirdagina o‘zlashtirishi mumkin. Misol uchun kasbga yo‘naltirish masalasini olib ko‘raylik. Muammoning muhimligi, yoshlarni kasbga yo‘naltirishga oid bir qancha amaliy masalalarni shoshilinch ravishda hal qilishning zarurligi hozirgi vaqtda ko‘plab mutaxassislar: pedagoglar, psixologlar, vrachlar, iqtisodchilar, sotsiologlar va g‘oyat xilma-xil sohalarida ishlovchi amaliyotchi xodimlarning e’tiborini o‘ziga jalb etdi. Bu borada ko‘plab mutaxassislarning ishtirok etishi va ish olib borishi muammoni to‘g‘ri va komleks

tarzda hal etish uchun zamin va sharoitlar yaratib beradi, albatta. Shu bilan birga bu mutaxassislarning har biri to‘la aniq ma’lumot olgan, muayyan ish tajribasiga ega xodimlardir. Shu boisdan ular kasbga yo‘naltirish sohasidagi o‘z faoliyatida o‘zlariga ma’lum bo‘lgan metodlarga, muammoga yondashuv usullariga hamda idrok qilish uslubi va shu kabilarga tayanadilar. Bu esa ba’zan ularda tushunchalarning ayrim atamalaridan foydalanishda ziddiyatlar tug‘diribgina qolmay, kasbga yo‘naltirish maqsad va vazifalarining qo‘yilishida bir qancha amaliy masalalarini tushunib olishda bu borada yakdillikning buzilishiga ham olib kelmoqda. Shu sababdan ham kasbga yo‘naltirishga oid bilimlar mazmunining yagona tizimini hamda kasbga yo‘naltirish metodologiyasini ishlab chiqish kasbga yo‘naltirish sohasida bundan buyon muvaffaqiyatli ish olib borishning muhim shartidir. Maktab o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirish muammosiga oid e’lon qilingan asarlarning tanqidiy tahlili va ommaviy maktablar tajribasini umumlashtirish asosida o‘quvchilarning e’tiborini yosh avlodga mehnat tarbiyasi berish va ularni kasbga yo‘naltirishga doir yetarli darajada yaxshi ishlab chiqilmagan bir qancha muammolarga alohida qaratish lozim. Jumladan, mintaqa sharoitlarini, milliy an’analarini hisobga olib 10 o‘quvchilarni kasblarga uchun ta’lim muassassining kasbga yo‘naltirish bo‘yicha kompleks tadbirlarini ishlab chiqish, kasbga yo‘naltirish vazifalarini amalga oshirish bilan o‘quvchilarning umummehnat va kasbiy tayyorgarligi o‘rtasida uzviy aloqadorlikni ta’minlash alohida dolzarblik kasb etadi . Respublikamizda yetarli darajada nazariy va amaliy jihatdan ishlab chiqilmagan bu kabi muammolarni hal qilishda mamlakatimiz mintaqa xususiyatlarini, milliy an’analarini va tarixiy tajribasini hisobga olish lozim bo‘ladi. Ikkinchi tomondan esa fan-texnika taraqqiyotining hozirgi talabalari asosida maktab yoshlariga mehnat tarbiyasi berish va ularni ishchi kasblarini egallashga yo‘naltirish shakl va metodlarini takomillashtirishning yangi yo‘llarini qidirishga to‘g‘ri keladi. Kasbga yo‘naltirish ishida iqtisodiy muammolar muhim o‘rin tutadi. Bular orasida xalq xo‘jaligini rivojlantirish va kad muammolari alohida ahamiyat kasb etadi. Bu masalalarni kasbga yo‘naltirish jihatlari bilan o‘zaro bog‘liq tarzda talabalarning mustaqil mashg‘ulotlarida ko‘rib chiqishi tavsiya etiladi. Hozirgi fan-texnika va ijtimoiy taraqqiyot sharoitida yosh avlodni jamiyat barpo etishda faol qatnashishga tayyorlashi lozim bo‘lgan maktabning roli har qachongidan ko‘ra o‘sdi. Shu munosabat bilan o‘quvchilarga ilm-fan asoslarining mustahkam bilimlarini singdirish, ularda yuksak onglilikni tarbiyalash, umuminsoniy axloqiylikni shakllantirish, yosh avlodni turmushga va mehnatga, ijtimoiy zarur kasblarni ongli ravishda tanlashga tayyorlash ta’lim va tarbiyaning hamma bosqichlarida hozirgi maktabning vazifalaridir. Kasbni to‘g‘ri tanlash – inson turmushida muhim qadamdir, yosh avlodning butun hayotidagi muvaffaqiyat ko‘p jihatdan kasbning qanchalik to‘g‘ri tanlanishiga bog‘liq. 11 Kasbni to‘g‘ri tanlash har bir maktab o‘quvchisining qiziqishiga, mayliga, qobiliyatiga va imkoniyatlariga mos bo‘lishi uchun uning sog‘lig‘ini, o‘zlashtirishini va hissiyotlarini hisobga olish lozim, bular ijtimoiy foydali va unumli mehnatda hammadan ko‘ra ko‘proq qaror topadi va

namoyon bo‘ladi. Odam bajarayotgan ishlariga ijodiy munosabatda bo‘lib, mehnat unumdorligini doimo oshirib borsa, tanlagan kasbiga zo‘r qiziqish bilan qarasa, o‘z ishining ijtimoiy ahamiyatini tushunsa, uning qobiliyatlari mehnatda takomillashib borsa, o‘shandagina u mehnatdan qoniqish hosil qiladi va xursand bo‘ladi, bunday hoolda har bir shaxs jamiyatga eng ko‘p naf keltiradi. Mana shu aytgan gaplardan kasb tanlashning g‘oyat muhim ijtimoiy ahamiyati kelib chiqadi. Kasb-korni erkin tanlash juda katta ahamiyatga ega. Odam shug‘ullanayotgan ishini yaxshi ko‘rsa, bundan u xursand bo‘ladi, qoniqish hosil qiladi, zo‘r tashabbus ko‘rsatadi, toliqmay mehnat unumini oshiradi. Maktab o‘quvchilarining kasb tanlashi ongli zaruriyat bo‘lishi va ayni vaqtda jamiyat manfaatlariga mos bo‘lib tushishi, yigit va qizlarning kamolot yo‘lida shaxsiy mudaolarini qondirishi lozim. Buning uchun yuksak darajada ma’lumotli bo‘lish zarur, hozirgi asrimizda bunday ma’lumotsiz fan-texnika ildam taraqqiy etishi mumkin emas. Umummehnat va maxsus malakalarni, kasbga bo‘lgan qiziqishlarini shakllantirishning bunday imkoniyatlari ob’ektiv zaminga ega bo‘lib, voqelikda har kuni amalda oshirilmoqda. Sanoat tez rivojlanganligi, qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash va elektrlashtirish borasida katta qadamlar qo‘yilganligi, ilm-fan, texnikani va madaniyatni yuksaltirish sohasidagi muvaffaqiyatlar bir tomondan, yoshlarning qiziqishlariga va qobiliyatlariga muvofiq, ikkinchi tomondan xalq xo‘jaligi talab-ehtiyojlariga asosan kasb tanlashlari uchun amaliy jihatdan cheklanmagan imkoniyatlar yaratdi; umumiy ta’lim maktabida mehnat poletexnika ta’limi sharoitida kasbga yo‘naltirish 12 muammosini ijobiy hal qilish uchun barcha shart-sharoitlar vujudga keltirildi. Kasbga yo‘naltirish o‘quvchilarga politexnik ma’lumot berish masalalari bilan, kasb tanlash esa muayyan bilim darajasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Yosh avlodga mehnatga ijodiy munosabatda bo‘lishni tarbiyalash muhimdir. Ijodkorlik inson faoliyatiga umuman xos narsadir, qobiliyatlarini har tomonlama kamol toptirish uchun imkoniyat mavjud bo‘ladi, chunki bolalar yoshligidanoq mehnatga qiziqib qoladilar: ular o‘z o‘yinlarida ota-onalariga, atrof-tevarakdagi kishilarga taqlid qiladilar, ularning mehnat harakatlarini takrorlaydilar. Faoliyatga ana shunda intilish, kattalarning mehnatiga taqlid qilish bolalarga maktabgacha yoshdayoq hammabop mehnat malakalarini singdirish uchun qulay omil bo‘lib xizmat qiladi. Tabiiyki, bularning hammasini tushunarli va obrazli shaklda bolalar ongiga yetkazish, bolalarni o‘rab turgan va ularga xizmat qilayotgan hamma narsalar odamlarning mehnati bilan vujudga keltirilgan, qo‘llar faqat mehnatdagina “mohir qo‘llar”ga aylanadi, mehnatsiz hech narsani o‘rganib bo‘lmaydi, degan fikrni singdirishga intilish zarur. Umumiy ta’lim maktablarida, zavod va fabrikalarda, o‘quv yurtlarida kasbga yo‘naltirish ishlarini o‘tkazish zaruriyatini turmushning o‘zi taqozo etmoqda. Bu narsa qayta qurish yangi marralari yil sayin tobora keng avj oldirilayotgandir. Bundan shunday xulosa kelib chiqadi: o‘quvchi tanlagan kasb og‘zaki tushunchagina bo‘lib qolmasligi, o‘quvchi o‘z qobiliyatlarini yangi kasbda sinab ko‘rishi, ushbu kasb to‘g‘risidagi tushunchasi qanchalik to‘g‘ri ekanini xolisona tekshirib ko‘rishi lozim. O‘z-o‘zidan ma’lumki, bunga o‘qitishning to‘g‘ri

yo‘lga qo‘yilishi, bilimlarni, ilm-fan asoslarini, ayniqsa ijtimoiy foydali va unumli mehnat bilan chambarchas bog‘langan mehnat politexnik bilimni chuqur va mustahkam egallash natijasidagina erishish mumkin. 13 Har qanday kasbda eng muhimi - uning mehnat mazmuniga ega bo‘lishidir. Shu boisdan mehnatsevarlikni, yaxshi urf-odatlarni tarbiyalash va ularni mehnat jo‘shqinligiga ko‘chirish bolalarni kasb tanlashga tayyorlashning bosh negizidir. Oilada bolani mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash odatda maktabgacha bo‘lgan yoshdan boshlanadi. Ana shu paytdan e’tiboran bolalarni bo‘lg‘usi kasbni tanlashga tayyorlash amalga oshirilishi lozim. Bunda bolalarning qiziqishlari, mayllari, qobiliyatlari va imkoniyatlarini muntazam ravishda o‘rganish zarur. Kasb tanlashda xato qilmaslik uchun bolalarga avvalo maktab va oila yordam berishi kerak. Har bir shaxs har tomonlama kamol topishi lozim, buning uchun maktablarda barcha imkoniyatlar mavjud. Bolalar yaxshi, aqliy, jismoniy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiyani va shu bilan birga politexnik ma’lumotni ola turib, shu asosda o‘zlarini kasbiy faoliyatga tayyorlashlari mumkin. “Kim bo‘lsam, ekan?” muammosi “Qanday odam bo‘lish kerak” muammosi bilan birgalikda hal qilinishi lozim. Maktab o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirishga oid ishlarni ta’lim yo‘llari oraqil mutassil va izchillik bilan olib borish kerak.

## 2. Maxsus ta’limda kasbga yo‘naltirish ishlarining tuzilmasi va mazmuni

Ijtimoiy talablarni qondirish maqsadida maktabda kasbga yo‘naltirish yuzasidan olib boriladigan ishlarni mazmunan yangilash, izchil yo‘lga qo‘yish zarurligi yuzaga kelmoqda. Dars jarayonida xalq ho‘jaligida bevosita ishlab chiqarish bilan mashg‘ul mehnat ahllariga hurmat va izzat tuyg‘ularini singdirib borishga alohida e’tibor qaratish lozim. Kasb-hunarga yo‘llash bo‘yicha olib boriladigan ishlarning barcha shakl va metodlari o‘quvchilarning maqsadli ravishda kasb tanlashlariga xizmat qilishi lozimdir. Maktabda kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini yo‘lga qo‘yishda an’anaviy amaliy mashg‘ulot, suhbat, dialogli munozaralar bilan birga pedagogik o‘yin, konferensiya, mustaqil fikrlar, mahalla, ishlab chiqarish korxonalarining jamoalari bilan birgalikda o‘tkaziladigan tadbirlar kabi yangi pedagogik texnologiya elementlaridan unumli foydalanish tavsiya etiladi. Umumiy o‘rta ta’lim davlat standartlariga asosan maktabda kasbga yo‘naltirish bo‘yicha mashg‘ulotlar 8-9 sinflarda amalga oshiriladi. 8-sinfda kasblar haqida “O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limidagi tayyorlov yo‘nalishlari, kasblar va ixtisosliklar tasniflagichi” asosida axborot berish davom ettirilishi bilan bir qatorda o‘quvchilarga kasb egallash yo‘llari, kasb tanlashda tibbiy nomuvofiqliklar, kasbga yaroqlilik va hokazolar tushunchalari berib beriladi. Maktabda o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish birgina mehnat ta’limi o‘qituvchisining ishi emas, balki butun maktab jamoasining, mahalla, ota-onalar, jamoatchilikning birgalikdagi ishidir. Maktabda fan 16 o‘qituvchilari mavzuni yoritish jarayonida kasblar bilan bog‘lab o‘tishsa, maktab psixologi va rahbariyati o‘quvchilarning individual qobiliyatlari, qiziqishlarini hisobga olgan holda ta’lim-tarbiya ishlarini olib borishsagina o‘quvchilarga kasb tanlashlarida ko‘mak bergan bo‘lishadi. Shu bilan birga takrorlash zarurki,

magistrlar O‘zbekiston Respublikasida yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ning qabul qilinishi o‘quvchi yoshlarni va aholini kasb-hunarga yo‘naltirish tizimini takomillashtirish – ish o‘rinlarini bo‘shab qolish jarayonlari jadallashadigan va ishchilarning malakalariga qo‘yiladigan sifat talablari oshib borayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Aholini ratsional va samarali bandligini ta’minlashdagi kasb-hunarga yo‘naltirishning asosiy roli shundan iboratki, yoshlar va aholi tomonidan kasbning ongli va ilmiy asoslangan tanlovi ularni mehnat faoliyatida yuqori natijalarga erishishda zamin yaratadi, iqtisodiyot sohalaridagi kasb-hunarga bo‘lgan mavjud ehtiyojlarni hisobga olgan holda mehnat resurslarini oqilona taqsimlaydi hamda insonlarning ish qidirish, ta’lim va kasbiy faoliyat turini tanlashlaridagi zo‘riqish holatlarini oldini olishga yordam beradi. Bu borada asosiy yo‘nalish qilib, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”, halqaro mehnat tashkilotining Nizomlari, konvensiyalari va takliflar, bir qator boshqa hujjatlar, shuningdek, rivojlangan mamlakatlarning bu sohadagi ishlarining amaliy tajribalari asos qilib olindi. Kasb-hunarga yo‘naltirish ishlari O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi vazirligining o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik tashxis Markazlari tomonidan bosqichma-bosqich va muntazam ravishda amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan rasmiy jihatdan qabul qilingan qarorlardan birida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish yuzasidan umumiy qoidalarda quyidagilar ta’kidlangan: 17 1. O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik tashxis markazi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 13 maydagi 203-sonli “O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta ta’limni tashkil etish to‘g‘risida”gi Qaroriga asosan tashkil etilgan. 2. O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik tashhis markazi har bir tuman, shahar xalq ta’limi bo‘limlari tuzilmasida, o‘z hududlari doirasida bolalar rivojlanishiga psixologik-pedagogik jihatdan tashhis qo‘yish, ularning qobiliyati va moyilligini aniqlash, bolani 6 yoshdan boshlab maktabga qabul qilish to‘g‘risida tavsiyanomalar berish, o‘quvchilarni har yili tibbiy-pedagogik tekshirishlardan o‘tkazish, bolalarga va ota-onalarga o‘quvchilarni o‘qitishda, tarbiyalashda va ijtimoiy moslashtirishda psixologik-pedagogik yordam ko‘rsatish, shuningdek, maktab o‘quvchilariga, ularning qobiliyatlarini, kasb-hunarga moyilliklarini, qiziqishlarini va ko‘nikmalarini hisobga olgan holda, akademik litsey yoki kasb-hunar kollejidagi ta’lim yo‘nalishini tanlashda ko‘maklashish maqsadida tuzilgan. O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik tashhis markazi va u orqali boshqa tashkilotlarning ilmiy-metodik rahbarligida: - o‘quvchilarning kasb-hunarga layoqat yo‘nalishlari va qobiliyatlari darajasini tashhis etish ishlarini maktablarda muntazam ravishda olib borilishini; - har bir o‘quvchi haqida uning qiziqishlari, intilish va layoqatlari, erishgan yutuq va kamchiliklari, aqliy va umumiy rivojlanishi haqidagi ko‘p yillik psixologik va pedagogik tashhis ma’lumotlari bankini tashkil etilishi, tartibga keltirilishi, maxsus

daftar va dasturlar yordamida qayd etib borilishini; - Kasb-hunar klassifikatori va hududda mavjud bo‘lgan o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha axborot to‘playdi va targ‘ibot qilishni tashkil etadi. 18 Maktab pedagogika kengashi bilan birgalikda attestatsiya yakunlariga ko‘ra 9 sinflarning bitiruvchilari o‘qishni akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida davom ettirish to‘g‘risida asosli tavsiyanomalar beradi. Yangi tashxis metodikalarining yaratilishida, sinab ko‘rilishida tajriba maydonchasi vazifasini o‘taydi, metodik va ommabop qo‘llanmalar yaratishda ishtirok etadi. Markaz ta’lim muassasalarining tibbiy-sanitariya holatini nazorat etadi, ularning tegishli mutaxassislar bilan ta’minlanishida xalq ta’limi va sog‘liqni saqlash bo‘limlari, maktablar rahbariyati bilan hamkorlik qiladi, davriy ravishda ularning hisobotlarini talab etadi, davlat va jamoatchilik tashkilotlari bilan bajarilishi lozim bo‘lgan faoliyatlarni muvofiqlashtiradi. Ta’limda iqtidorli bolalarning rivojlanishini maktab psixologlari orqali nazorat qiladi, iste’dodli deb topilgan o‘quvchi-yoshlarning hududiy bankini yaratadi. Ularning ijtimoiy-oilaviy muhiti haqida ma’lumotlar yig‘ishni tashkil qiladi, intellekt ko‘rsatkichlarini, kasb-hunarga moyilliklarini, qiziqishlarini va ko‘nikmalarini hisobga oladi, ehtiyojga qarab tegishli metodik, psixologik, tibbiy yordam usullarini qo‘llaydi. Markaz o‘z hududi doirasidagi yashovchi bolalar orasidan jismonan zaif va aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lganlarni nazoratga oladi, ular haqida alohida ma’lumotlar bankini yaratadi, maktab jamoasi, ota-onalar bilan hamkorlikda ularga oilada, shuningdek tegishli maxsus ta’lim muassasalarida bilim olishlari uchun tavsiya beradi, ularga metodik, psixologik va tibbiy yordam berishni tashkil qiladi. Maktablar va maktabdan tashqari ta’lim muassasalarida bolalar va yoshlarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirishda, kasb-hunarga yo‘naltiruvchi tadbirlarning o‘tkazilishida metodik va amaliy yordam beradi, qilingan ishlar natijalarini tahlil qiladi va umumlashtiradi. O‘z 19 hududi doirasida mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojni Mehnat vazirligining bo‘linmasi orqali oladi, o‘rganadi va zarur bo‘lgan kasb-hunarlar haqida maktablardagi kasb-hunarga yo‘naltiruvchi mutaxassislar bilan maxsus kechalar, suhbat va ko‘rik-tanlovlar, turli musobaqalar uyushtirishda yordam ko‘rsatadi. Yilda bir marta hududdagi maktab o‘quvchilarini tibbiy ko‘rikdan o‘tkazishda tuman, shahar sog‘liqni saqlash bo‘limlari faoliyatlarini maqsadli muvofiqlashtiradi, jismonan zaif, kasal bolalarni sog‘lomlashtirish ishlarining nazoratini maktab tibbiy xodimlari, ota-onalar, jamg‘armalar, kasaba uyushmalari va boshqalar bilan birgalikda amalga oshiradi. Bu borada magistrantlar o‘zining ilmiy izlanish hamda ilmiy-pedagogik izlanishlarida quyidagilarga e’tiborni kuchaytiradilar: 1. Maktab sharoitida: - o‘quvchilarni barcha o‘quv predmetlar mazmunidan kelib chiqqan holatda kasb-hunarga yo‘naltirish ishlari modelini ishlab chiqadilar; - shu fanlarning amaliyoti yuzasidan o‘tkazilayotgan mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilarga shu fanga xos kasblar yuzasidan dastlabki amaliy ishlarni tashkil qilish ko‘nikmalarini hosil qiladilar. 2. Kasb-hunar kollejlari sharoitida: - o‘quvchilarni barcha o‘quv predmetlari mazmunidan kelib chiqqan holda maktabda tanlagan kasbiga mavjud “moslashish” jarayonini shakllanishini

ta'minlaydi; - shu fanlarning amaliyoti yuzasidan o'tkazilayotgan mashg'ulotlar va amaliy ishlar jarayonida o'quvchilarga shu ishlarga xos kasblar yuzasidan shakllangan elementlarni kasbiy darajaga ko'tarishni ta'minlaydi. Magistrantlar mazkur ishlarni bajargandan keyin “Kasblarning psixofiziologik tahlili va kasbiy talablarning ilmiy-pedagogik asoslari”ga xos materiallarni “Ilmiy pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi”ni belgilab beruvchi asosiy hujjatlarida O'zbekiston 20 Respublikasining Konstitutsiyasi IX bob 37-moddasida kasb-hunarni tanlash, egallash va ulardan foydalanishga batafsil to'xtash, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi hamda Davlat ta'lim standartlarini ta'riflashga o'tish lozim. Bu magistrantlar “ishlab chiqarish va kasb-hunarga yo'naltirish asoslari”da mazkur mavzuga oid (8-9 sinflar uchun chop etilgan qo'llanmalardagi) materiallarni ilmiy-pedagogik asoslarini mukammal o'zlashtirishga kirishish lozim. I-IV sinflarning o'quvchilari kasb tanlashdan hali uzoq turadilar. Biroq ular o'rtasida to'g'ri yo'lga qo'yilgan kasb tanlash ishi shunday bir negiz bo'lishi kerakki, yuqori sinflardagi o'quvchilarning kasbga bo'lgan qiziqishlari, o'y va niyatlari keyinchalik shu negiz asosida rivojlanadigan bo'lsin. Beistisno barcha kasblar uchun zarur va muhim bo'lgan shaxs xislatlari bor, bular-mehnatsevarlik, hamma kasb va mutaxassislikdagi mehnat ahliga nisbatan hurmat-ehtirom, mehnat qilish zarurligini tushunish va anglash, o'z ishini rejelashtira va nazorat qila bilish, ish joyini to'g'ri tashkil qilish, ish batartib va intizomli bo'lish, toqatlik, sabotlilik, topshiriqni bajarishning eng oqilona usulini tanlab ola bilish, materiallar hamda vaqtni tejash va shu kabilardir. Ana shu xislatlar va fazilatlarning hammasini ballarda birinchi sinfdan boshlab shakllantirish lozim. Bolalarni kasblar olamiga asta-sekin olib kirish, ularni shu olamda mo'ljal olishga o'rgatish zarur. O'qituvchi o'quvchini darslarda kuzatish, u bilan suhbatlashish, bola faoliyati mahsulini tahlil qilish jarayonida uning ba'zi bir xususiyatlarini, mayllarini payqab oladi, bu xislatlarni rivojlantirish yuzasidan tegishli ishlarni ado etganlan keyin bular keyinchalik kasbni blgilashda asosiy omil bo'lishi mumkin. Bolaning kasbiy muhim xislatlarini barvaqt aniqlash esa keyinchalik unga o'z xususiyatlariga qarab kasbni to'g'ri tanlash, uni muvaffaqiyatli ravishda o'zlashtirish, mehnatda yuksak natijalarga erishish imkonini berishi mumkin. 21 Ko'pgina olimlar o'tkazgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maktab o'quvchilarining taxminan 30 foizida tanlangan kasbga nisbatan barqaror qiziqishlar boshlang'ich sinflardayoq shakllanar ekan. O'qituvchining vazifasi - o'quvchilarning qiziqishlarini mumkin qadar oldinroq aniqlashdan va jamiyat talab-ehtiyojlariga muvofiq shu qiziqishlarini rivojlantirishdan, inson shaxsini har tomonlama uyg'un kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Mehnat ta'limi darslari kasbga yo'naltirish ishini olib borish uchun alohida imkoniyatlarga ega. Buni mehnat darslari kasbga yo'naltirishga qaratilgan yo'lining tahlil misolida ham ko'rish mumkin. I-IV sinflarda mehnat ta'limining asosiy maqsadlaridan biri-o'quvchilarda inson uchun mehnat birinchi zaruriyat, ijtimoiy burch ekanligiga, har qanday kasbni egallash uchun mustahkam va chuqur bilimlar kerakligiga ishonch hosil qilishdan iborat. Mehnatga muxabbatni va ishlash istagini faqat mehnatda tarbiyalash mumkin. shu

boisdan ham mehnat ta’limi darslarida qariyb 80 foiz vaqt amaliy ishlar uchun ajratilgan. Shu bilan birga darslarda bolalar odamlar mehnat faoliyatining asosiy sohalari bilan, ularning qiziqishlari va qobiliyatlarini rivojlantirishga ko‘maklashuvchi sanoat va qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishiga oid eng ko‘p tarqalgan kasblar bilan tanishtiriladi. O‘qituvchi ilgari tuzgan kasbga yo‘naltirish rejasiga muvofiq tarzda dars reja-konspektini yoza turib, kasbga yo‘naltirish darsi oldiga maqsad qo‘yib, kasbga yo‘naltirishga oid ma’lumotlarni unga kiritadi. Bu esa biron-bir kasb, asbob, ishlab chiqarish texnologiyasi, muayyan mehnat operatsiyalarini o‘rgatishdan, kasb jihatidan muhim xislatlarini tarbiyalashdan, o‘quvchilarni ilgari belgilangan reja asosida o‘rganishdan yoki ana shu tarkibiy qismlarning hammasini qo‘shib olib borishdan iborat bo‘lishi mumkin. Quyi sinflarning o‘quvchilari xilma-xil materiallar (qog‘oz, karton, tabiiy materiallar, tunuka, sim, yog‘och, fanera, plastmassa, tolali 22 materiallar) bilan ish ko‘radilar, ular ishlashga oid o‘zlariga bop, ma’qul bo‘lgan operatsiyalarni o‘rganadilar. Ular texnik va texnologik tusdagi masalalarni yechishni o‘rganadilar, turli materiallar hosil qilish va qo‘llanish ishini, bu materiallarning odamlar turmushidagi ahamiyatini bilib oladilar, u yoki bu texnologik opratsiyalarni bajarish uchun mo‘ljallangan eng oddiy asboblardan foydalanish yo‘llari bilan tanishadilar va foydalanishni o‘rganadilar, tegishli kasblar to‘g‘risida ma’lumotlar oladilar. Chunonchi, o‘quvchilar uchun ishlab chiqilgan (transport) konstruktori bolalarni 18 xil turli transport mashinalari va kasblar bilan tanishtirish imkonini beradi. O‘quvchilar qurilish konstruktori bilan ishlab, qurilish kasblari, ularning muhimligi va zarurligi to‘g‘risida, qurilish bilan bog‘liq bo‘lgan odamlar mehnatining mazmuni haqida ma’lumotlar oladilar, qurilish ob’ektlarini modellashtirishni o‘rganadilar. Bu ishlar bolalarda texnik tafakkurni, makonga oid tasavvurlarni, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi, ularda quruvchi mehnatiga hurmat bilan qarash hissini tarbiyalaydi. Texnik konstruktor bilan ishlash chog‘ida bajariladigan topshiriqlar o‘quvchilarni mashinasozlik elektrotexnika asoslari bilan tanishtiradi, ularda texnik tafakkurni rivojlantiradi, unchalik murakkab bo‘lmagan texnik qurilmalarni bilib olish imkonini beradi. Bolalar mashinasozlikka oid keng tarqalgan va zarur kasblar, ana shu kasblarning mehnat mazmuni bilan tanishtiradilar. “O‘simliklarni o‘stirish va hayvonlarni hayoti bilan tanishtirish” bo‘limlari bolalarni qishloq xo‘jalik asoslari bilan tanishtirishni ko‘zda tutadi. O‘quvchilar xonaki o‘simliklarni parvarish qiladilar, piyoz, xonaki o‘simliklar yetishtirish yuzasidan tajriba o‘tkazadilar. Ular maktab o‘quv-tajriba uchastkasida ishlab, yerda mehnat qiladilar; tuproqni yumshatadilar, o‘simliklarning o‘sishini kuzatadilar, o‘z mehnatining 23 natijalarini ko‘radilar, odamlar mehnatini qadrlashni, yerni e’zozlashni o‘rganadilar. O‘quvchilar chorvachilik kasblari bilan ham tanishadilar, hayvonlarni to‘g‘ri parvarish qilishni o‘rganadilar. O‘qituvchining o‘quvchilarda yerga omilkorlik bilan qarash hissini shakllantirishi, qishloq xo‘jaligidagi mehnat to‘g‘risida to‘g‘ri tasavvur berishi, o‘z mehnati va o‘z jamoasi mehnati natijalaridan xursand bo‘lishni o‘rgatishi muhimdir. Shu boisdan ishni

shunday rejalashtirish kerakki, bolalar chorva mollarni parvarish qiladigan, hosilni yig‘ishtirib oladigan, mehnat natijalarini hisob-kitob qiladigan bo‘lsinlar. Bunday hollarda bolalarning ishga qiziqishi kuchayadi va kasbga yo‘naltirish ishi alohida mazmun kasb etadi. Yuqori sinflarda o‘quvchilar kasblar bilan professiogrammalar yordamida tanishadilar. kichik yoshdagi o‘quvchilar uchun esa hiskoya qilib berish, suhbatlar o‘tkazish, kasb namoyondalari bilan uchrashish, diafilmlar, kinofilmlar ko‘rish, albomlarni ko‘zdan kechirish, sayohatlar o‘tkazish ko‘proq maqbuldir. Bu sohada olib borilayotgan barcha ish shakllaridan suhbat o‘tkazish hammadan ko‘p foydalanilmoqda. Suhbat bolalarning faol ishtirokida o‘tishi muhimdir. Shu maqsadda o‘qituvchi kasblar to‘g‘risida, ayniqsa ota-onalari, qarindoshlari yoki tanish-bilishlari mazkur kasblari haqida ma’lumotlar to‘plash yuzasidan o‘quvchilarga topshiriqlar berishi mumkin. suhbatlar hikoya qilib berish, fotosuratlarni namoyish qilish, ta’limning texnik vositalarini qo‘llanish bilan to‘ldirishi mumkin. Informatika va hisoblash texnikasi imkoniyatidan foydalanish ayniqsa muhimdir. Darsning amaliy qismi mazkur kasbdagi odamlarning mehnati bilan bog‘lansa ayni muddao bo‘lur edi. Masalan, “Tolali materiallar bilan ishlash” bo‘limini o‘rgana turib, o‘quvchilar bichiqchi kasbi bilan tanishadilar; turli choklash ishlarini bajarib, tugmalar qadab, kiyimlarni 24 mayda tuzatish ishlarini ado etib, olgan ma’lumotlarini mustahkamlaydilar. O‘quvchilarni dasturda ko‘zda tutilgan kasblar bilan tanishtirishdan tashqari kasbini targ‘ib qilish, ya’ni bolalarni ushbu hudud uchun zarur bo‘lgan kasblar bilan tanishtirish, ularda yana shu kasblarga nisbatan hurmat-ehtiromni tarbiyalash, shu kasblarning jozibali jihatlarini ochib berish lozim. Bu borada darslardan tashqari o‘quv dasturida ko‘zda tutilgan korxonalarga qilinadigan ekskursiyalar katta rol o‘ynashi mumkin. Kasbga yo‘naltirish ishiga kompleks yondashish o‘quvchilarni har tomonlama o‘rganishni ham ko‘zda tutadi. Bu tadbir o‘quvchilar buyon ishlashning to‘g‘ri shakllari va metodlarini qidirib topishga yordam beradi. O‘rganishni metodlar bilan o‘tkazish, eng muhimi - bu ishni muntazam ravishda va sobitqadamlik bilan amalga oshirish kerak. Kuzatish - o‘quvchilarni o‘rganishning keng ommalashgan metodidir. Bu metod muayyan maqsadni ko‘zlaydi, ish reja asosida olib boriladi, kuzatishning yakunlovchi natijalari qayd qilinadi. Mehnat ta’limi darslari kuzatish o‘tkazish uchun keng imkoniyatlar yaratib beradi. Diagnostik suhbatlar o‘tkazish ham qo‘llaniladi. Bunday suhbatlar yakka tartibda yoki jamoa tarzida o‘tkazilishi mumkin. Quyi sinflarda o‘tkaziladigan mehnat darslarida o‘quvchilar faaoliyati natijalarini tahlil qilish uchun yaxshi imkoniyatlar mavjud. Chunki mehnatning turli ob’ektlarini tayyorlash chog‘ida har bir bolaning shaxsiy xususiyatlari g‘oyat ravshan namoyon bo‘ladi: bir xil bola texnik konstruktorni yaxshi biladi, ikkinchi xil bola tikishda mahorat ko‘rsatadi, uchinchi xil bola esa maktab uchastkasida o‘z qobiliyatlarini namoyon etadi va h.k. O‘quvchilarning hujjatlarini va amaliy ish -xarakatlarini tahlil qilish ham bola shaxsini o‘rganishda o‘qituvchiga yordam berishi mumkin. O‘quvchilarning shaxsini o‘rganish ularni tarbiyalash bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘qituvchi o‘quvchining alohida xususiyatlarini payqab, unda 25 mavjud

iste’dod nishonlarini rivojlantirish metodlarini topa olishi, uning xulq-atvoridagi salbiy jihatlarini bartaraf etishi mumkin va h.k. Ba’zi bolalarda kasbga moyillik yaxshi namoyon bo‘ladi, ko‘pchilik bolalarda bu narsa birdaniga aniqlanmaydi. O‘qituvchining boladagi iste’dod nishonalarini aniqlashi, bularni qobiliyatini rivojlantirish va shakllantirishda ko‘maklashimni muhimdir. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, kasbga yo‘naltirish ishi - o‘quv jarayonining uzviy tarkibiy qismidir. Quyi sinflardan boshlanadigan bu ish jamiyat uchun zarur, har bir kishining xususiyatlariga mos kasblarga barqaror qiziqishni tarbiyalashga yordam beradi. Mehnatga qiziqishning mavjudligi va mehnat qilishga shaylik-shaxs yetukligining eng muhim ko‘rsatkichlaridan biridir. Sinfdan va maktabdan tashqari ish o‘quvchilarni kasb-korni ongli ravishda tanlashga, ularni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, moddiy ishlab chiqarish, fan, texnika borasida va shu kabi sohalarda ularda ishga qiziqishni shakllantirishga ko‘p jihatdan yordam beradi. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda olib borilayotgan kasbga yo‘naltirish ishida o‘quvchilarning yosh va bilish xususiyatlariga qarab bir necha bosqichni ko‘rsatib o‘tish mumkin. Birinchi bosqich (I-IV) sinflarning o‘quvchilari bilan ishlash - moddiy ishlab chiqarish sohasida mehnat bo‘lgan ijtimoiy qiziqishlarni shakllantiradi, o‘quvchilarda umuman mehnatga ijobiy munosabatda bo‘lishni, eng muhimi - jismoniy mehnatga shunday munosabatda bo‘lishni, ishchi degan nomni hurmat qilishni, qo‘lidan keladigan o‘z mehnati bilan atrofdagi kishilarga quvonch bag‘ishlashga va bundan ma’naviy qoniqish olishga intilishni shakllantiradi. Bu boradagi ishlar oldindan tuzilgan reja asosida olib boriladi. Bu rejaga muvofiq ekskursiya uyushtirish eng ommalashgan kasblar to‘g‘risida qishloq maktablarining o‘quvchilari uchun jamoa xo‘jaligida, shahar maktablarining o‘quvchilari uchun korxonalarda, ota-onalarning ishlari va 26 ularning mehnatda erishgan muvaffaqiyatlarida suhbatlar tashkil qilish ko‘zda tutiladi. Ekskursiyalar chog‘ida ishlab chiqarish jarayonida qatnashayotgan odamlarning mehnatiga, xom ashyodan tayyor mahsulot olishga berayotgan mehnat qurollariga asosiy e’tibor beriladi, jamiyat va ayrim odamlar turmushida mehnatning roli o‘qtirib o‘tiladi. Ikkinchi bosqich (V-VII) sinflarning o‘quvchilari bilan ishlash - biron ish qilishga undaydigan bosqich. Ma’lumki, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarda bilishga bo‘lgan qiziqish, odatda, kasbga bo‘lgan qiziqishdan oldin shakllanadi. Shu boisdan ushbu bosqichida kasbga yo‘naltirish sohasida olib borilayotgan ishda o‘quvchilarda ish turlari (texnika bilan ishlash, tabiat ob’ektlari va shu kabilar bilan ishlash) ni bilishga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otish muhimdir. Kasbga yo‘naltirishning ana shu bosqichida texnikaga va mehnatga (texnika ijodkorligi va qishloq xo‘jalik tajribachiligiga) oid sinfdan tashqari mashg‘ulotlar, viktorinalar, o‘yinlar katta rol o‘ynashi lozim. Bu bosqichda o‘quvchilarda ijtimoiy maqsadlarning shakllanishi davom etadi, shu bilan birga kasbga yo‘naltirish ham boshlanadi. Uchinchi bosqich (asosan VIII-IX) sinflarning o‘quvchilarini qarab oladi - bu bosqichida o‘quvchilar o‘z kuchlarini konkret mehnatda tekshirib ko‘radilar, o‘quvchilarning kasbga bo‘lgan qiziqishlari va mayllari yanada shakllanadi. O‘quvchilar bu bosqichdao‘z

kasbiy niyatlarining birmuncha umumiy kasblar bo‘yicha amaliy ko‘nikma va malakalar bilan mustahkamlaydilar. Bu bosqich konkret kasbni tanlash, uni o‘zlashtirish yo‘llarini belgilash bilan tugaydi. O‘quvchilarni qiziqishlari (predmetlar, predmet-texnika, ishlab chiqarish-texnika va shu kabilar) bo‘yicha to‘garaklarda ishlashi ushbu bosqich uchun diqqatga sazovordir. Kasbga yo‘naltirish ishini amalga oshirishning umumiy tizimida maktab tizimi dastlabki bosqich hisoblanadi. Kasbga yo‘naltirish ishi maktab tizimining vazifalari: 27 - shaxsning yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlariga ega bo‘lgan fuqarolarni tarbiyalashdan; - politexnik va boshlang‘ich kasbiy malakalarning muayyan tizimini egallagan bo‘lg‘usi malakali mutaxassisni tayyorlashdan; - ham shaxsiy mehnat, ham jamoa mehnati muyyan tashkilotchilik malakalarini shakllantirishdan iborat. Kasb egallashgacha bo‘lgan tayyorgarlik maktab yoshlarini moddiy ishlab chiqarsh sohasida mehnatga hozirlashga umumiy qismi bo‘lib qoladi. Zarur politexnik tayyorgarlikni olgan yigit yoki qiz ishlab chiqarish kasbini tez egallaydi, bunda o‘rta maxsus yoki oliy ma’lumot olish jarayoni jadallashadi. O‘quvchilarni kasb tanlashga tayyorlash - butun pedagoglar jamoasining, ota-onalar va zavod jamoatchiligining ko‘p yillik ta’lim-tarbiya ishidir. Yoshlarni ma’naviy -psixologik jihatdan mehnat faoliyatiga tayyorlashga shaxsni har tomonlama kamol toptirishning o‘zaro bog‘liq jarayoni deb qaraladi, bu jarayonda qobiliyat va e’tiqod bilan birga o‘smirning shaxsi harakatlantiruvchi kuch kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Qobiliyat va qiziqishlarni shakllantirishning politexnik asoslari va maktab yoshlarni boshlang‘ich ishlab chiqarish tayyorgarligini kengaytirish bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi ishchi kasblarini egallashga yo‘naltirishning hal qiluvchi shartidir. Mehnat tarbiyasi jarayoni birmuncha ilk bosqich amalga oshirilgan taqdirda bunga erishiladi. O‘rta va yuqori bosqich ta’limida davomiylik shu narsada ifodalanadiki o‘quvchilar muntazam prinsip asosida tuzilgan yagona dasturlar bo‘yicha ishlaydilar. Bunday dasturlar asta-sekin murakkablashtirilib borishni, bilimlarni, ko‘nikma va malakani, mehnatning muayyan usullarini egallashni ta’minlaydi. Ta’lim va kasbga yo‘naltirish bilan qo‘shilgan unumli mehnatda muntazam qatnashish eng ko‘p pedagogik samara beradi. 28 O‘rta maktablarni tamomlab yoki kasb-hunar ta’limi tizimida, o‘quv kombinatlarida zarur tayyorgarlikdan o‘tib, xalq xo‘jaligining turli tarmoqlarida darhol ishlay boshlagan yoshlarning soni yil sayin ko‘payib bormoqda. Maktabda kasbga yo‘naltirish sohasidagi hamma ishlarning bir-biriga muvofiqlashtirilishini ta’minlash maqsadida maktab direktori raisligida kasbga yo‘naltiruvchi kengash tuziladi. Kengash tarkibiga maktab direktorining tarbiyaviy ishlar bo‘yicha muovini, kasbga yo‘naltiruvchi o‘quv-metodik kabinet mudiri, mehnat ta’limi, o‘quvchilarning ijtimoiy-foydali, unumli mehnatini kasbga yo‘naltiruvchi o‘qituvchi yoki tashkilotchi, bitiruvchi sinflarning minf rahbari, maktab kutubxonachisi, maktab o‘quvchilar tashkilotining vakillari, maktab vrachi, ota-onalar qo‘mitasining a’zolari, homiy korxona vakillari kiradi. Kasbga yo‘naltiruvchi kengashning ish rejasi maktab kengashi ko‘rib chiqadi va tasdiqlaydi. Kasbga yo‘naltiruvchi kengashning vazifalari kasbga yo‘naltirish bo‘yicha

umummaktab va sinflarning tadbirlarini rejalashitirish va tashkil qilishdan, kasbga yo‘naltirish ishiga oid ilg‘or tajriba ma’lumotlarini yig‘ish, umumlashtirish va ommalashtirishdan iborat. kasbga yo‘naltiruvchi kengash tuman maktablararo o‘quv-ishlab chiqarish kombinatlari, yoshlarni kasbga yo‘naltirish va ishga joylashtirish komissiyasi, kasb-hunar ta’limi tizimidagi ta’lim muassasalari, bazaviy korxonalar va tashkilotlar, o‘quvchilarning ota-onalari bilan aloqa bog‘lab turadi. Kasbga yo‘naltirish ishini rejalashtirilgan chog‘da kengash mahalliy sharoitlarni va maktab ishining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish lozim. Kengashning kasbga yo‘naltirish ish rejasi maktab ta’lim-tarbiya ishi umummaktab rejasining tarkibiy qismidir. 29 Kasbga yo‘naltirish kengashining majlislariga muassasalar, homiy korxona, oliy o‘quv yurtlarining vakillari, balog‘atga yetmaganlar ishi bo‘yicha komissiya a’zolari mehnat resurslaridan foydalanish o‘rganlarining vakillari taklif qilinadilar. O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishishini o‘tkazgan chog‘da maktab xodimlari va maktab ma’muriyatining vazifalari o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishga oid yo‘riqnomalar, buyruqlar, qarorlar bilan tanishishdan, ilmiy-metodik adabiyotni o‘rganishdan, chiqarilgan metodik tavsiyanomalarni o‘rganish va o‘z ishlarida foydalanishdan iborat. Sinf rahbarining vazifalari avvalo o‘quvchining shakllanayotgan shaxsini, uning mayillari, qiziqishlari, qobiliyatlarini chuqur va har tomonlama o‘rganishdan iborat. Bu sohada unga fan o‘qituvchilari, ota-onalar bilan, savol varaqasini to‘ldirish va o‘quvchining shaxsiy varaqacha-tavsifnomasini to‘ldirgan holda uni muntazam ravishda kuzatish yordam beradi. Sinf rahbari o‘quvchining shaxsini o‘rganish negizida muayyan dastur asosida bir maqsadga qaratib kasbga yo‘naltirish ishini olib boradi. Bunda sinf soatlaridan, fakultativ mashg‘ulotlardan va ekskursiyadan foydalaniladi. Kasbga yo‘naltirish ishi o‘quvchilarning ota-onalari bilan mustahkam aloqada o‘tkaziladi. O‘quvchilar yiliga bir marta savol varaqasini to‘ldiradi. Bundan maqsad-o‘quvchilarning hayotiy rejalarini aniqlab olishdir. Sinf rahbarlari savol varaqasini asosida o‘quv yili oxirida kasbga yo‘naltiruvchi maktab kengashiga topshirish uchun u yoki bu kasbni ongli ravishda tanlagan yoki zarur malaka darajasi bo‘yicha kasb egallagan hamda o‘qish va ish xususidagi o‘z istaklarini bildirgan o‘quvchilarning ro‘yxatlarini tuzadilar. O‘quvchilar mehnat ta’limi darslarida mehnatning har xil turlariga oid bilimlarnigina olib qolmay, shu bilan birga o‘z faoliyatlari jarayonida maxsus malakalarga ham ega bo‘ladilar, o‘z qobiliyatlarini rivojlantiradilar, mehnatda o‘z kuchlarini sinab ko‘radilar. Shu boisdan 30 mehnat ta’lim o‘qituvchisi mehnat darsini shunday tashkil qilishi kerakki, toki har bir o‘quvchi mehnatni sevishni o‘rganib olsin, odamlarga naf keltiradigan bo‘lsin, ish jarayonidan va uning natijalaridan zavqlansin. Mehnat o‘qituvchisi o‘z ishida bilim va malakani egallashda o‘quvchilarga eng ko‘p faollik va mustaqillikni ta’minlaydigan shakllari va metodlaridan foydalanishi lozim. Laboratoriya - amaliy, o‘quv-ishlab chiqarish ishlari, ishlab chiqarish ekskursiyalari, tajribasi shunday ish shakllari va metodari jumlasiga kiradi. bu ishlar mustaqil kuzatishlar, tajribalar, tahlillar, hisob-kitoblar, ishlab chiqarish va ijodiy vazifalarni hal qilishni hamda bevosita ijtimoiy-foydali,

unumli mehnatni o‘z ichiga oladi. Mehnat ta’limi jarayonida o‘qituvchi kasb qilib olingan mehnat to‘g‘risidagi ma’lumotlarni konkret mavzularni o‘rganish bilan mantiqiy bog‘lashi mumkin. Chunonchi, elektrotexnika fizikasi va bo‘limini o‘rgangan chog‘da o‘qituvchi xalq xo‘jaligada elektr quvvatining roli va ahamiyatini, uni ishlab chiqarish hamda iste’molchiga yetkazib berish usullarini ko‘rsatishi, shuningdek ushbu tarmoq kasblari uchta katta guruxda bo‘lishni tushuntirib berish mumkin. Birinchi guruxga elektrotexnika uskunalari, mashinalari, apparatlari va asboblarini ishlab chiqarish bilan bog‘liq kasblar (elektrotexnika mashinalarini yig‘uvchi slesar, sozlovchi slesar o‘rovni elektromontyor, izolyatsiya qiluvchi va shu kabilar); ikkinchi guruxga elektr quvvati uzatish bilan bog‘liq kasblar (podstansiyalarning elektromantyori, elektr tarmoqlarini ishlatuvchi elektromontyor va shu kabilar); uchinchi guruxga elektr quvvatidan foydalanish bilan bog‘liq kasblar (elektromontajchi slesar, ta’mirchi elektromantyor va shu kabilar) kiradi. O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishda o‘qituvchining shaxsi juda katta rol o‘ynaydi. O‘qituvchining shaxsi - o‘qituvchining ijodiy rivojlanishini, yuksak pedagogik mahoratini, ishda doimiy novatorligini, omilkorligini, bolalarga nisbatan muhabbat va hurmatini belgilab beradigan xislatlar 31 majmuidir. Ayni shunday o‘qituvchi o‘quvchilarda o‘ziga nisbatan hurmat-ehtirom, ishga havas tug‘diradi, o‘ziga o‘xshash bo‘lish, u bilan do‘stlashish eng ezgu istaklar, istiqbol to‘g‘risidagi, o‘z kasbi haqidagi orzularni baham ko‘rish ishtiyoqini yaratadi. Maktabda qiziqishlar bo‘yicha o‘tkaziladigan xilma-xil mashg‘ulotlar orasida to‘garak ishi alohida ahamiyat kasb etadi. Maktabda to‘garaklarning asosiy ko‘pchiligini mehnat ta’limi o‘qituvchilari olib boradi. Bular - ishlab chiqarish - texnika to‘garaklaridir. O‘qituvchi bunday to‘garaklarda o‘quvchilarda ixtirochilik, konstruktorlik singari maxsus qobiliyatlarni ijodiy rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish imkoniyatiga ega. Mehnat ta’lim o‘qituvchisi o‘quvchi shaxsini o‘rgangan chog‘da kasbga yo‘naltirish maqsadida quyidagi qoidalarga: shaxs kamol topadigan konkret vaziyatda konkret jamoada shaxsning xulq-atvorini kuzatish; faoliyat orqali shaxsni o‘rganish; shaxsni qandaydir qotib qolgan narsa tariqasida emas, balki taraqqiyotda ko‘rib chiqish; shaxsning vaqtincha psixologik holatini, o‘rtoqlariga munosabatini hisobga olish kabi qoidalarga amal qilishi maqsadga muvofiqdir. Mehnat ta’limi o‘qituvchisining ishida psixologik diagnostikasiga katta o‘rin ajratiladi. Psixologik diagnostika jarayonida u maktab, kasb-hunar kolleji kasb maslaxatchisi bilan birgalikda har bir o‘quvchining kelgusidagi kasbni tanlashi jarayonida shaxsiy xususiyatlarini aniqlashi mumkin. Shunday qilib, mehnat ta’limi o‘qituvchisi ishida quyidagi yo‘nalishlarni; - kasbga oid bilimlar - o‘quvchilarni mehnat faoliyati sohalari, xalq xo‘jaligining ayrim tarmoqlari, kasblar va mutaxassisliklar bilan tanishtirish; 32 - psixologik pedagogik maslahat - mehnat faoliyatining turlari to‘g‘risida, o‘quvchi xislatlari, bilimlari va mayllariga eng muvofiq bo‘lgan kasblar va mutaxassisliklar haqida o‘quvchiga gapirib berish; - kasb tarbiyasi - o‘quvchilarda u yoki bu kasbga nisbatan barqaror qiziqishlarini shakllantirish; - amaliy kasbiy ko‘nikish - mehnat faoliyatining turli sohalarida kuchlarni amaliy

jihatdan sinab ko‘rish uchun shart-sharoitlar yaratish; - kasbga yo‘naltirish maqsadida o‘quvchining shaxsini o‘rganish, mehnatga bo‘lgan qiziqishlarni va kasbga qiziqishlarni shakllantirish kabi yo‘nalishlarni ko‘rsatib o‘tish mumkin. Mehnat ta’limi o‘qituvchisining kasbga yo‘naltirish ishi o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlarning butun bir kompleksi bilan, shu jumladan kasbga yo‘naltiruvchi o‘quv-metodik kabinet faoliyati, sinf rahbarining, fan o‘qituvchilarining ishi, ota-onalar va shu kabilar bilan mahkam bog‘langandir. Mehnat o‘qituvchisi bular bilan yaqindan aloqa bog‘lamay turib samarali ishlashi mumkin emas. Mehnat ta’limi darslarida kasbga yo‘naltirish ishini olib borgan o‘quvchilarni mehnat faoliyatiga tayyorlashdagi boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqani ham hisobga olish lozim. Maktabda har bir o‘quv fani o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishni amalga oshirishdagi o‘ziga xos imkoniyatlariga ega, lekin u mehnat turlari, kasblarning xilma-xilligi va shu kabilar to‘g‘risida o‘quvchilar bilimlarini shakllantirishning birdan bir manbai bo‘lishi mumkin emas. Shu sababdan ham kasbga yo‘naltirish ishida mehnat o‘qituvchisining faoliyatini sinf rahbarlari va fan o‘qituvchilari ishi bilan muvofiqlashtirish g‘oyat muhimdir. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarda kasbga bo‘lgan barqaror qiziqishni shakllantirish ishlari samaradorligini oshirish uchun: 33 - fan asoslarini o‘qitishning, mehnat ta’limining va fakultativ mashg‘ulotlarning fanlararo aloqalarini, davomiyligini, politexnik va kasbga yo‘naltirish yo‘nalishini ro‘yobga chiqarish; - politexnik ma’lumot, mehnat ta’limi va kasbga yo‘naltirishning o‘quvchilar ijtimoiy-foydali, unumli mehnati bilann o‘zaro aloqasini ta’minlash; - o‘quvchilarning bir maqsadga qaratilgan ijtimoiy ahamiyatli o‘quv-ishlab chiqarish topshiriqlarni bajarishlari; - xalq xo‘jaligining turli sohalarida o‘quvchilarning qiziqishini rivojlantirishga shaxsiy, tabaqalashtirilgan yondashuvni amalga oshirish; - o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish sohasida maktab o‘qituvchilari bilan ishlab chiqarish jamoalarining birgalikda ish ko‘rishi; - sanoat qishloq xo‘jalik kasblarini targ‘ib qilish lozim. Tabiiy - matematik turkum fanlarni o‘rgangan chog‘da o‘quvchilar konkret iqtisodiy hududdagi yetakchi kasblar bo‘yicha mehnat mazmuni bilan tanishish, ana shu kasblarni muvoffaqiyatli egallash uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni olish imkoniyatiga egadirlar. Maktab o‘quvchilari gumanitar fanlar bo‘yicha o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda kasb tanlash masalalarida g‘oyaviy-axloqiy, dunyoqarashga oid bilim oladilar.

# IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

## 1-AMALIY MAShG‘ULOT: TUG‘ILGANDAN TO 3 YoShGAChA DAVRDA BOLALAR RIVOJLANIShIDAGI NNUQSONLARNI TAShXIS QILISh VA KORREKSIYaLASh MUAMMOSI 2-SOAT

**Mashg‘ulotni o‘tkazish rejasi**

1.Nutqida nuqsoni bo’lgan bolalar nutqini o’rganish

2. Tovush tomonini tekshirishda samarali usullardan foydalanishni o’rganish va amaliy ma’lumotlarga ega bo’lish

3.Nutqida nuqsoni bo’lgan bolalarni psixologik , pedagogik va korreksion tekshirish.

4.Tekshirish natijalarini sog’lom bolalar bilan taqqoslash va tahlil qilish.

**Adabiyotlar.**


1. L.S.Volkovoy. Logopediya. Darslik. M.: Vlados. 2003 g.

2. Ayupova M.Yu. Logopediya. Darslik. T.: O‘zbekiston faylasuflar Milliy jamiyati, 2007.

3. Mo‘minova L.R., Ayupova M. Logopediya. O‘quv qo‘llanma. «O‘qituvchi» T.: 1993.

4. L.S. Volkovoy, V.I.Seliverstova. Xrestomatiya po logopedii. M.: Vlados, 1997.

5. Ayupova.M.Yu “Korreksion ishlar metodikasi” Ma’ruza matni .T-2001

6. Ishmuxamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. T., - 2008.

7. R.Ishmuxamedov, M.Yuldashev Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.T.2017

**1-topshiriq**

Tovush tomonining tekshirishda nazariy bilimlarni mustahkamlash. Qaysi olimlar tadqiqotlaridan foydalanish mumkin?

**2-topshiriq**

Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan olib boriladigan psixokorreksion ishlar mazmuni hamda mohiyatini o‘rganishda zamonaviylik deganda nimalarni tushunasiz va amaliy yondoshgan holda topshiriq tayyorlang.

## T – sxema chizmasi

Tovush tomonini tekshirishda samarali usullardan foydalanishni jarayonidagi

| Ijobiy | Salbiy |
| --- | --- |
| | |




## 2-AMALIY MAShG'ULOT: INKLYuZIV TA'LIM MUAMMOSI: MUAMMOLAR VA YuTUQLAR (2 SOAT)

**Ishning maqsadi:** Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'limga joriy etishda maktab direktori, o'qituvchilari, psixolog va defektologlarning vazifalari bilan tanishtirish.

**1-ilova**

**Quyidagi tushunchalarni sharhlab bering:**

- Inklyuziv maktab
- Maktab direktori ....
- O'qituvchilari ....
- Psixolog ....
- Defektolog ....

**2-ilova**

## Munozara uchun savollar:

1. Inklyuziv ta'lim maktablarini imkoniyatlari haqida fikringizni bayon eting
2. Maktab direktorlari qanday vazifalarni bajarishadi? Sizning fikringiz
3. Inklyuziv sinf o'qituvchilarining vazifalari nimalardan iborat deb o'ylaysiz?
4. Oliy ta'lim muassasalariga inklyuziv ta'limni joriy qilishga sizning munosabatingiz
5. Maktab direktori, o'qituvchilari, psixologlari va defektologlarining vazifalari nimalardan iborat?

**3-ilova**

**NAZORAT TEST SAVOLLARI**

| № | Test savollari | A | B | V | G |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | **Inklyuziv ta'lim qaysi ta'lim muassasalarini o'z ichiga oladi?** | *mtm, maktab, o'rta maxsus va oliy ta'lim | maktabgacha, maktab va o'rta maxsus | maktab va o'rta maxsus | maktabgacha va maktab |
| 2. | **Resurs o'qituvchi faoliyatidan ko'zlangan asosiy maqsadi**: | Umumta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan maxsus ta'limga muhtoj o'quvchilar va ularningo'qituvchilariga yordam ko'rsatishdan iborat. | Bolani qabul qilish e'tirof etish hurmat qilish | Shaxsni jinsiy, diniy, madaniy, irqiy, millatidan qat'iy nazar har qanday kamsitishlarga qarshi chiqish, Ijtimoiy yordam ko'rsatish ishining markazida bolani qiziqishi turadi | *Barcha javoblar to'g'ri |
| 3 | **Maktablarning darsliklar, uslubiy qo'llanmalar, dasturlarga ehtiyojini aniqlab, mazkur adabiyotlarni yetkazib berish, darsliklar mazmunini takomillashtirish qaysi yillarni o'z ichiga oladi** | *2003-2005 | 2003-2006 | 2003-2007 | 2003-2004 |
| 4. | **Resurs o'qituvchi faoliyatidan ko'zlangan asosiy maqsadi**: | *Umumta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan maxsus ta'limga muhtoj o'quvchilar | Bolani qabul qilish e'tirof etish hurmat qilish; | Shaxsni jinsiy, diniy, madaniy, irqiy,millatidan qat'iy nazar har qanday | Ijtimoiy yordam ko'rsatish ishining markazid |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | va ularning o‘qituvchilariga yordam ko‘rsatishdan iborat. | | kamsitishlarga qarshi chiqish | a bolani qiziqishi turadi |
